Yirik shoxli mol sochlari ichida bosh sohasi, ya'ni shoxlari orasidan olingan sochlar odam

sochlarining ba'zi morfologik belgilari, ya'ni pigment donadorligi, pigment rangi, kutikula surati va ba'zan o'zak bo'yicha o'xshashlik belgilari mavjud.



*Shoxlar orasidagi bosh soch.
Odam bosh sohasining sochi.*

Xulosa. Yuqorida o'rganilgan ma'lumotlarni inobatga olgan holda quyidagilarni xulosa qilish mumkin:

1. Bo'linga taqdim etilgan sochlarni zamonaviy bo'lgan N-300M (MD101) rusumdagi monitorli mikroskop yordamida tekshirish yo'lga qo'yildi.

2. Yirik shoxli molning ba'zi o'qsimon va qoplovchi sochlari, ayniqsa shoxlar orasidan olingan sochlar odam sochlarining ba'zi morfologik belgilari, ya'ni pigment donadorligi, pigment rangi, kutikula surati va ba'zan o'zak bo'yicha o'xshashlik belgilarini namoyon qildi.

3. Sud-biologik ekspertiza o'tkazayotgan ekspert shoxli mol sochlarining morfologik tuzilishi bo'yicha yaxshi tajribaga ega bo'lishi tavsiya etiladi.

4. Sud-biologik bo'lim ekspertlari tomonidan tasodifan shoxli mol sochlari odam sochlari sifatida noto'g'ri baholanishiga yo'l qo'ymaslik tavsiya etiladi.

5. Mazkur ekspertizalarning xatosiz va sifatli o'tkazilishi sud-tergov idoralarining xato yo'ldan ketishi, odam DNK ekspertizasida qimmatbaho reaktiv va reagentlarning maqsadsiz sarflanishining oldini oladi.

ADABIYOTLAR

1. Томилин В.В., Барсегянц Л.О., Гладких А.С. Судебно-медицинское исследование вещественных доказательств. – Москва, 1989.
2. Генбом Р.Г., Корнеева Н.П. Судебно-медицинское исследование волос. – Москва, 1963.
3. Шпак В.В. Судебно-медицинская экспертиза вещественных доказательств биологического происхождения. – Гомель: ГомГМУ, 2017. – С. 32.
4. Ефимова А.А., Савенковой Е.Н. Судебная медицина. – Москва, 2012.
5. Туманов А.К. Основы судебно-медицинской экспертизы вещественных доказательств. – Москва: Медицина, 1975.
6. Судебно-медицинская экспертиза волос : Учебное пособие / под ред. Павловой А.З., Барина Е.Х. – Москва, 2022.

EKSTREMIZMGA QARSHI KURASHISH SOHASIDA XORIJIY DAVLATLAR ILG'OR TAJRIBASI

MAVLYANOV

*Murod Abduraximovich,
O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi
Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi,
podpolkovnik*

ANNOTATSIYA

Maqolada ekstremizmga qarshi kurashish yo'nalishida xorijiy davlatlarda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar mazmun-mohiyati va ko'rilayotgan chora-tadbirlar tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: tahdid, ekstremizm, terrorizm, radikallashuv, internet, ijtimoiy tarmoq, jinoyat, ekstremistik material, targ'ib qilish, kontentni o'chirish va bloklash, anonimayzer, kiberpolit-siya, sud qarori.

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются зарубежные нормативно-правовые документы, принятые странами в направлении противодействия экстремизму, терроризму, и меры, принимаемые для борьбы с этими угрозами.

Ключевые слова: угроза, экстремизм, терроризм, радикализация, Интернет, социальная сеть, преступность, экстремистский материал, пропаганда, удаление контента и блокировка, анонимайзер, контент, киберполиция, судебное постановление.

ANNOTATION

The article analyzes the essence of regulatory documents adopted by foreign countries in the direction of countering extremism and the measures taken to combat these threats.

Key words: threat, extremism, terrorism, radicalization, Internet, social network, crime, extremist material, propaganda, content removal and blocking, anonymizer, content, cyber police, court ruling.

Bugungi kunda ekstremizmga qarshi kurashishda xorijiy davlatlar tajribasida qator ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilib, amaliyotda samarali qo'llanilmoqda. Ekstremizm tahdidlaridan kelib chiqib, ushbu sohaning huquqiy va tashkiliy asoslari doimiy ravishda, takomillashtirib borilmoqda.

Ekstremizmga qarshi kurashish yo'nalishida Birlashgan Arab Amirliklarida tashkil etilgan tuzilmalar, ularning vazifalari hamda tajribalari o'rganildi.

Internet jahon axborot tarmog'ida ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish, xususan, bag'rikenglikni targ'ib qilish, mazhabparastlik va yoshlarni aqidaparastlikka undash holatlarining oldini olish maqsadida, 2015-yili AQSh bilan hamkorlikda Birlashgan Arab Amirliklari tomonidan "Sawab" markazi¹ (keyingi o'rinlarda Markaz) tuzilgan.

Mazkur markaz ekstremizm va terrorizm muammolariga oid ilmiy tadqiqotlar olib borib, Internetning ijtimoiy tarmoqlarida ekstremistik g'oya va targ'ibotlarga qarshi muqobil xabarlarini yuborish, ekstremistlarning ijtimoiylashuvini ta'minlash, qayta tarbiyalash kabi bir qator faoliyatlar bilan shug'ullanadi.

2015–2018-yillarda markaz o'zining Twitter, Facebook, Instagram va YouTube ijtimoiy media platformalariga 28 ta faol targ'ibot kampaniyalari hamda interaktiv targ'ibot kampaniyalari orqali 4 mln. dan ortiq obunachilarni jalb qilgan.

Markazning ko'plab tadbirlari terrorizm oqibatlaridan aziyat chekkan tinch aholini, ekspluatatsiya qilish uchun foydalanadigan zo'ravon ekstremistlarning yolg'on da'volarini fosh qilishga qaratilgan. Ushbu faol targ'ibot kampaniyalari quyidagi xeshteglarni o'z ichiga olgan: #DeludedFollowers, #Daeshsteals TheirChildhood va #Sources Of Extremism. Shuningdek, insonparvarlik va birgalikda yashash qadriyatlarini mustahkamlashga qaratilgan tadbirlar #NationalPride, #GivingDefinesUs

va #WeTweetForHer kabi xeshteglarda aks etgan².

Masalan, 2018-yilda AQSH bilan hamkorlikda Markaz o'zining ijtimoiy media platformalarida zo'ravon ekstremistik mafkuralarga qarshi onlayn kurashish va ijobiy muqobillarni ilgari surish maqsadida, butun dunyo bo'ylab ekstremizm va terrorizm qurbonlari, ushbu harakat natijalaridan omon qolganlar to'g'risida axborotlarni tayyorlab tarqatgan³.

Shuningdek, 2015-yilda Birlashgan Arab Amirliklari "dunyoni zo'ravon ekstremizmsiz qurish" shiori asosida Hedayah markazini tashkil qilgan. Markaz o'z faoliyati davomida innovatsion dasturlarni yaratish, ilmiy-amaliy tadqiqotlar bilan strategik aloqalarni o'rnatish va dunyodagi ilmiy tadqiqotlar natijalarini amaliyotga joriy etish orqali ekstremizmning oldini olish borasida choralar ko'rib boradi. Xususan, Markaz tomonidan "Zo'ravon ekstremizmning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha milliy harakat rejalari dasturi"⁴ ishlab chiqilib, ushbu dasturga asosan 19 ta mamlakatga zo'ravon ekstremizm tahdidlariga samarali choralar ko'rish uchun davlatlarning milliy strategiyalarni ishlab chiqish, amalga oshirish va baholash borasida yordam bergan.

Bugungi kunda Hedayah markazi STRIVE Global dasturi doirasida 37 ta mahalliy tashkilotlarga radikallashuv va zo'ravon ekstremizmning oldini olish, empirik ijtimoiy tadqiqotlar va jurnalistik loyihalarni ishlab chiqishda yordam berib, ularni amalga oshirish, monitoring qilish va baholash uchun mablag' ajratib kelmoqda.

Ushbu dastur ekstremizmga qarshi kurashish bo'yicha davlatlarga quyidagi 4 ta yo'nalishda amaliy yordam ko'rsatadi:

- 1) xalq madaniyatidan kelib chiqib ilmiy asoslangan o'quv dasturlarini ishlab chiqish;
- 2) fuqarolik jamiyati institutlari vakolatlarini kengaytirish;
- 3) ommaviy axborot vositalarida yoritishni yaxshilash;
- 4) tadqiqot resurslarini ishlab chiqish⁵.

² O'sha manba

³ <http://wam.ae/ru/details/1395302709231>

⁴ <https://hedayahcenter.org/programs/national-action-plans-to-prevent-and-counter-violent-extremism/>

⁵ <https://hedayahcenter.org/strive-global-in-focus-hedayah-presents-the-strive-global-program/>

Masalan, STRIVE Global dasturi doirasida “Radikallashuv va zo‘ravon ekstremizmga qarshi kurash” mavzusi bo‘yicha 23 ming nafar yoshlar va talabalar, 1 200 nafar maktab o‘qituvchi va psixologlari, 1150 nafar oila a‘zolari, 52 nafar din peshvolari, 26 nafar politsiyachilar, 371 nafar jurnalist, 295 nafar jurnalistika talabalari va 134 nafar hukumat vakillari o‘qitilgan⁶.

Shuningdek, zo‘ravon ekstremizm va terrorizm haqida xabar berish o‘quv dasturini ishlab chiqish, hukumat va ommaviy axborot vositalari o‘rtasidagi hamkorlikni takomillashtirish, jurnalistlar malakasini oshirish orqali reportaj sifatini yaxshilash kabi mavzu va treninglarni qamrab olgan.

Ekstremizm tahdidlariga qarshi kurashishda uzoq tarixga ega bo‘lgan Buyuk Britaniya tajribasini, xususan bugungi kunda Britaniya hukumat tomonidan qo‘llanilayotgan ilg‘or tajribalarni o‘rganishni talab qiladi.

Jumladan, Buyuk Britaniyada terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish sohasining normativ-huquqiy asoslari sifatida 1998-yilda qabul qilingan “Axborotni himoya qilish to‘g‘risida”gi (Data Protection Act – DPA), 2000-yildagi “Terrorizm to‘g‘risida”gi va “Tergov vakolatlarini tartibga solish to‘g‘risida”gi (Regulation of Investigatory Powers Act – RIPA), 2001-yildagi “Terrorizmga qarshi jinoyat va xavfsizlik to‘g‘risida”gi (Anti-Terrorism Crime and Security Act – ATCSA) qonunlarni keltirib o‘tish mumkin⁷.

Rossiyalik olim D.Bazarkinaning fikriga ko‘ra, “Buyuk Britaniyada terrorizm va siyosiy ekstremizm tahdidiga qarshi kurashda razvedka va kontrrazvedka xizmatlari muhim rol o‘ynaydi. Xususan, Parlamentning razvedka va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi doimiy faoliyat yuritib, u 1994-yildagi “Razvedka xizmatlari to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq tashkil etilgan. Ushbu qo‘mitaning asosiy maqsadi dastlab mamlakatning uchta razvedka xizmati, ya‘ni Xavfsizlik xizmati (Security Service – MI5), Maxfiy razvedka xizmati (Secret Intelligence Service – SIS yoki Military Intelligence – MI6) va Hukumat aloqalari markazi (Government Communications Headquarters – GCHQ)ning

⁶ <https://hedayahcenter.org/programs/yeu-strive-global/>

⁷ <https://www.legislation.gov.uk>

xarajatlari, boshqaruv tizimi va siyosatini tahlil qilish bo‘lgan”.

Shuningdek, Buyuk Britaniyada 16 ta davlat idoralari vakillaridan iborat Terrorizmni tahlil qilish birlashgan markazi tashkil etilgan bo‘lib, markaz o‘z faoliyati davomida ichki va xorijdagi xalqaro ekstremizm va terrorizmga oid barcha razvedka ma‘lumotlarini tahlil qiladi hamda tahdidlarni baholaydi. Shuningdek, ushbu sohadagi tendensiyalar, ekstremistik va terroristik tarmoqlar, ularning kuch vositalari hamda joylashuvi, maqsad va harakatlari to‘g‘risida batafsil hisobotlarni taqdim etadi⁸. Markazning rasmiy saytida⁹ uning asosiy vazifalari sifatida quyidagilar keltirilgan:

- milliy xavfsizlikni josuslik, terrorizm va sabotaj tahdidlaridan, xorijiy davlatlar agentlarining harakatlaridan hamda parlament demokratiyasini siyosiy, sanoat yoki zo‘ravonlik yo‘li bilan ag‘darish yoki buzishga qaratilgan harakatlardan himoya qilish borasida axborotlarni baholab borish;

- iqtisodiy farovonlik va britaniyaliklarni yuzaga keladigan tahdidlardan himoya qilish;

- politsiya va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarning terrorizm bilan bog‘liq jinoyatlarning oldini olish hamda fosh etish bo‘yicha faoliyatini tahliliy qo‘llab-quvvatlash.

Markaz rahbari Britaniya kontrrazvedka davlat idorasining Terrorizmga qarshi kurash bo‘limi bosh direktoriga hisobot berib, ushbu hisobot o‘z navbatida hukumat huzuridagi Birlashgan razvedka qo‘mitasiga taqdim etiladi. Ushbu model ekstremizm tahdidi bo‘yicha razvedka ma‘lumotlarini tahlil qilish, ular asosida tezkor qarorlar qabul qilish va amalga oshirishga imkon beradi¹⁰.

Bundan tashqari, Buyuk Britaniya huquq-tartibot idoralari nafratga asoslangan jinoyatlar (Hate crimes), ya‘ni ichki ekstremizm ko‘rinishlariga qarshi kurashishga alohida e‘tibor qaratadi. Ushbu toifa jinoyatlarga shaxs yoki uning mulkiga qarshi sodir etilgan,

⁸ Базаркина Д. Борьба с терроризмом в Великобритании (коммуникационный аспект) // <https://cyberleninka.ru/article/n/borba-s-terrorizmom-v-velikobritanii-kommunikatsionnyy-aspekt>

⁹ <https://www.mi5.gov.uk/joint-terrorism-analysis-centre>

¹⁰ <https://www.mi5.gov.uk/joint-terrorism-analysis-centre>

shaxsning nogironligi, irqi, dini, jinsi yoki jinsiy oriyentatsiyasi tufayli unga nisbatan dushmanlik munosabati bilan sodir etilgan har qanday jinoyat harakatlar kiradi.

Shu sababli, 2004-yilda Buyuk Britaniyada ichki ekstremizmga qarshi kurashish milliy koordinatori (National Coordinator Domestic Extremism) tuzilib, u ekstremizm bilan bog'liq tahdid, jinoyat va tartibsizliklarni bartaraf etish borasida faoliyat olib borishi belgilangan¹¹.

Buyuk Britaniyada Bolalarni shafqatsiz munosabatlardan himoya qilish milliy jamiyati tomonidan musulmon bo'lgan ota-onalar uchun farzandlarini radikal islom g'oyalari bilan himoya qilish, diniy ekstremistik tashkilot tuzilmalar ta'siriga tushgan shaxslarni psixologik rehabilitatsiya qilish va ijtimoiylashtirish maqsadida, 24 soat davomida ishlaydigan bepul qo'ng'iroqni amalga oshirish mumkin bo'lgan "ishonch telefoni" tashkil etilgan¹².

2007-yilda Buyuk Britaniyada "Zo'ravon ekstremizmning oldini olish" dasturi qabul qilinib, ushbu dasturda ekstremizmning oldini olish, uni ta'qib qilish, undan himoya qilish va tayyorgarlik ko'rish choralari belgilangan¹³.

Bundan tashqari, Buyuk Britaniya amaliyotida ekstremizm, terrorizm, noqonuniy yoki ijtimoiy xavfli harakatlarni targ'ib qilgan yoki gumon qilingan xorijlik fuqarolar to'g'risida olingan tezkor ma'lumotlar asosida davlat hududiga kirishi taqiqlanadi.

Bugungi kunda dunyo bo'ylab ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishda bir qator faol choralar ko'rayotgan, xususan ekstremizmga qarshi kurashishda turli xil ilmiy asoslangan dasturlarni amalga oshirayotgan Amerika Qo'shma Shtatlarining (keyingi o'rinlarda AQSH) tajribasini o'rganish o'rinlidir.

Ekstremizm tahdidi to'g'risida aholini ogohlantirish, ushbu turdagi jinoyatlarni barvaqt aniqlashda aholi imkoniyatlaridan keng foydalanish, profilaktik targ'ibotlarni tashkil

¹¹ Голованова Н.А. Экстремизм в Великобритании: способы противодействия // <https://cyberleninka.ru>

¹² <https://www.nspcc-ott-uk>.

¹³ Терещина Е.А. Опыт зарубежных государств в области противодействия молодежному экстремизму: <https://cyberleninka.ru/article/n/opyt-zarubezhnyh-gosudarstv-v-oblasti-protivodeystviya-molodezhnomu-ekstremizmu>

etishda Rossiya Federatsiyasida o'ziga xos tajriba to'plangan. Jumladan, Rossiyaning internet tarmog'ida yot g'oyalar tarqalishining oldini olish borasidagi qo'llagan tajribasini o'rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xususan, internet tarmog'i va ta'lim sohasida terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish axborot milliy markazining internet sayti (<https://ncpti.su>) tashkil qilingan bo'lib, ushbu sayt orqali internet foydalanuvchilariga ekstremistik va terroristik faoliyati uchun taqiqlangan hamda tavsiya etiladigan manbalar ro'yxati ma'lum qilib boriladi. Shuningdek, ushbu sayt orqali e'lon qilingan turli ijtimoiy loyihalar orqali internet ijtimoiy tarmoqlarida taqiqlangan kontentni tarqatib kelayotgan resurslar haqida ("общ-щит" sahifasi orqali) axborot berish imkoniyati yaratilgan¹⁴.

Shuningdek, xalqaro terroristik va ekstremistik tashkilotlar yollovchilariga qarshi kurashish, radikallashtirilgan shaxslar va ekstremizm to'g'risidagi ma'lumotlarni aniqlash maqsadida, 2012-yilda Rossiya Federatsiyasi Jamoatchilik palatasi tomonidan "ishonch telefoni" tashkil etilgan. Mazkur "ishonch telefoni"ga:

- 1) shaxsni destruktiv diniy tashkilotlar (sektalar) safiga yollash harakatlari to'g'risida;
- 2) ekstremistik tashkilotlarga yollash harakatlari to'g'risida;
- 3) ekstremizm va terrorizm bilan bog'liq jinoyatlar to'g'risida;
- 4) milliy yoki diniy belgilariga ko'ra diskriminatsiya holatlari to'g'risida;
- 5) inson huquq va erkinliklarining buzilishi to'g'risida qo'ng'iroq qilish tavsiya qilinadi.

Shuningdek, ushbu xizmat orqali ekstremistik va terroristik tuzilmalar ta'siri ostiga tushgan shaxslarga anonim tarzda maslahat berish choralari ham ko'riladi.

Masalan, 2019-yilga qadar ushbu xizmatga "Islom davlati" a'zolari tomonidan amalga oshirilayotgan yollash harakatlari to'g'risida 4 mingdan ortiq murojaatlar yuborilgan¹⁵.

Shuningdek, internet ijtimoiy tarmoqlarida terrorizm va diniy adovatni targ'ib qiluvchi ma'lumotlar mavjudligini nazorat qilish maqsadida, Rossiya Federatsiyasi Jamoatchilik

¹⁴ https://ncpti.su/report/monitoring-seti/monitoring-seti-internet.php?sphrase_id=104651

¹⁵ <https://www.oprf.ru/>



palatasi tomonidan “STOP TERROR” loyihasi tashkil etilgan. Fuqarolar ushbu loyiha sahifasidagi shakldan foydalanib, ekstremizm, terrorizm, millatlararo va dinlararo adovatni targ‘ib qiluvchi Twitter, Facebook, BКoH-takte ijtimoiy tarmog‘idagi internet-resurs yoki akkauntlar to‘g‘risida havola yuborishi mumkin. Yuborilgan xabarlar ekspert bahosidan so‘ng, resurs manzilini blokirovka qilish uchun organlarga o‘tkaziladi va undagi ma‘lumotlardan bunday materiallarga qarshi kurash strategiyasini ishlab chiqishda foydalaniladi¹⁶.

Ekspertlarning ta‘kidlashicha, xalqaro terrorchilik va ekstremistik tashkilotlar ta‘siriga tushgan shaxs qo‘lga olinganda, uni qamoqqa jo‘natishdan ko‘ra, malakali ruhshunos orqali hayotga qaytarish jamiyat uchun foydaliroqdir. Shu sababli, hozirgi kunda RFda yetakchi ruhshunos-tahlilchilar tomonidan Internet saytlari

orqali xalqaro terrorizm va ekstremizm ta‘sirini kamaytirish maqsadida, onlayn tarzda test savollari ishlab chiqilgan bo‘lib, mazkur testdagi 20–30 tadan iborat savollarga javob berish orqali insonning targ‘ibot ta‘siriga tushish ehtimolining darajasini aniqlab, ruhiy jihatdan yordamga muhtoj shaxslarga onlayn tarzda psixologik yordam berilmoqda.

Xulosa qilish mumkinki, Amerika Qo‘shma Shtatlari, Buyuk Britaniya, Birlashgan Arab Amirliklari, Turkiya Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi kabi davlatlarda ekstremizmga qarshi kurashishda faqat kuchga tayanish emas, balki asosiy e‘tibor ekstremistik tahdidlarni tezkor aniqlash, bunda axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan samarali foydalanish, aniqlangan axborotlarni tizimli tahlil qilib borish, ta‘sirchan profilaktik tadbirlarini o‘tkazishga qaratilmoqda.

¹⁶ <https://school-merion.ru/bezopasnost/proekt-stopterror/>

ADABIYOTLAR

1. <http://wam.ae/ru/details/1395302700964>
2. <http://wam.ae/ru/details/1395302709231>
3. <https://hedayahcenter.org/programs/national-action-plans-to-prevent-and-counter-violent-yextremism/>
4. <https://hedayahcenter.org/strive-global-in-focus-hedayah-presents-the-strive-global-program/>
5. <https://hedayahcenter.org/programs/yeu-strive-global/>
6. <https://www.legislation.gov.uk>
7. Базаркина Д. Борьба с терроризмом в Великобритании (коммуникационный аспект). – Режим доступа: <https://cyberleninka.ru/article/n/borba-s-terrorizmom-v-velikobritanii-kommunikatsionnyu-aspekt>.
8. <https://www.mi5.gov.uk/joint-terrorism-analysis-centre>
9. Голованова Н.А. Экстремизм в Великобритании: способы противодействия. – Режим доступа: <https://cyberleninka.ru>.
10. <https://www.nspcc-orr-uk>.
11. Терешина Е.А. Опыт зарубежных государств в области противодействия молодежному экстремизму. – Режим доступа: <https://cyberleninka.ru/>
12. https://ncpti.su/report/monitoring-seti/monitoring-seti-internet.php?sphrase_id=104651
13. <https://ncpti.su>
14. <https://www.oprf.ru/>
15. <https://school1-merion.ru/безопасnost/proekt-stopterror/>

MEDIA DUNYOQARASH SHAKLLANISHI JARAYONIDA DINIY MUTAASSIBLIKNING OLDINI OLISH OMILLARI

KARIMOV

Farxod Erkinovich,

*O'zbekiston xalqaro islom
akademiyasi,*

*“Xalqaro munosabatlar va
ijtimoiy fanlar” kafedrasi mudiri,
siyosiy fanlar doktori*

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada bugungi media makonda keng tarqalayotgan diniy mutaassiblik va aqidaparstlikni targ'ib qiluvchi materiallarning asl mohiyati hamda ularni tarqatayotgan subyektlarning ko'zlagan maqsadlari ochib berilgan. Shuningdek, diniy aqidaparastlikka moyillik sabablari, diniy fanatizmning turlari, aqidaparastlikning oldini olish imkoniyatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: media dunyoqarash, mutaassiblik, aqidaparastlik, diniy fanatizm, psixoterapiya.

АННОТАЦИЯ

В статье раскрывается истинная природа материалов, пропагандирующих религиозный радикализм и фанатизм, широко распространенных в современном медиапространстве, и цели субъектов, их распространяющих. Анализируются причины склонности к религиозному фанатизму, виды религиозного фанатизма, возможности его предотвращения.

Ключевые слова: медийное мировоззрение, религиозный радикализм, религиозный фанатизм, психотерапия.

ANNOTATION

This article reveals the true nature of materials promoting religious radicalism and fanaticism, widespread in the modern media space, and the goals of the entities disseminating them. The reasons for the tendency to religious fanaticism, types of religious fanaticism, and the possibilities of preventing them are also analyzed.

Key words: media worldview, religious radicalism, religious fanaticism, psychotherapy.

Diniy mutaassiblik yoki aqidaparastlik – bu nimani anglatadi, u qanday namoyon bo‘ladi?

Diniy aqidaparastlik nafaqat shu yo‘lga kirgan shaxsni, balki uning yaqinlarini ham qayg‘u va g‘amga soladigan illatdir. Bunday shaxslar aldanishga, aqldan ozishga moyil. Ular boshqa odamlarni tushunmaydi va eshitmaydi. Diniy aqidaparastlar ma‘lum oqim tarafdorlari bo‘lib, ular o‘zlarining haqligiga ko‘r-ko‘rona ishonadilar. Bunday shaxslarni tanqidiy fikrlashning yetishmasligi bilan tanib olish oson. Ular real holatni tushunmaydi, o‘ylamaydi, balki olingan ma‘lumotlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlashtiradi. Boshqa fikrda bo‘lganlarning hammasini dushman sifatida qabul qiladi.

Diniy aqidaparastlik muammosiga odatda qandaydir komplekslarga ega bo‘lgan shaxslar duch keladi, degan noto‘g‘ri fikr mavjud. Darhaqiqat, hayotda o‘z maqsadlarini topishga harakat qiladigan, ammo qila olmaydigan turli xil toifadagi odamlar bor. Ba‘zi shaxslar buning evaziga ularga o‘zlarining hayotni tushunishga oid talqinlarini taklif qilishadi, ular esa bundan ta’sirlanadi.

Agar tashqi muhitning ta’siri haqida gapiradigan bo‘lsak, unda uzoq vaqtdan beri atrofdagilar, uni tushunmaydigan odamlar hayoti birinchi galda tadqiqot obyekti bo‘lishi lozim. Misol uchun, bunday odamning atrofidagi odamlar uni tushunmaydilar yoki bolaligida u psixologik travma olgan bo‘lishi mumkin. Shunday sharoitda bunday odam to‘satdan uni mukammal tushunadigan odam bilan uchrashadi. Maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan bunday shaxslar o‘z harakatlari bilan o‘sha insonga qanchalik hamdard ekanliklarini namoyish etadilar. Natijada jamiyatdan ajralib qolgan odamda boshqalarga befarq emasligi va qandaydir maqsadda yashash hissi paydo bo‘ladi. Ayni paytda bunday sodda odamlar o‘zining bironing faoliyati uchun “tayyor o‘lja” bo‘lib borayotganini anglamaydilar.

Diniy fanatizmning bir necha turi mavjud:

- irqiy;
- millatchi (shovinizm);
- siyosiy (fashizm);
- diniy;

puritanizm (kundalik hayotda axloq va qoidalarining qattiqligi);

prozelitizm (ayyor usullar bilan e’tiqodga jalb qilish);

diniy ekspansiya (zo‘ravonlik vositalaridan foydalangan holda ma‘lum bir dinning dunyo hukmronligiga tashnalik).

Fanatizmning asosiy ko‘rinishi boshqa dinlarga nisbatan murosasizlikdir. Ochiq nafrat va tajovuzkorlik bilan birga keladi. O‘z-o‘zidan bunday fanatik shaxslar jamiyat uchun juda xavfli emas, lekin ular guruhlariga birlashganda, ertami-kechmi bu mo‘tadil fikrlaydigan din vakillari o‘rtasidagi ziddiyat bilan yakunlanishi mumkin.

Yana nimasi bilan xavfli diniy fanatizm? Har qanday dindan uzoq bo‘lgan fuqarolar ko‘pincha aqidaparastlar qilmishlaridan jabr ko‘radi.

G‘oyaviy buzilishning yana bir ko‘rinishi – hamma yangi narsalarni inkor etuvchi diniy fundamentalistlar faoliyatidir. Bunday shaxslar o‘z g‘oyasini tanqid qilinmaydigan yagona to‘g‘ri deb biladi. Tanqidlar adolatli va mantiqiy asosga ega bo‘lsa ham, mutaassib ularga konstruktiv munosabatda bo‘lolmaydi. Ko‘pincha ularni shaxsiy haqorat deb hisoblaydi va qizg‘in bahsni bir necha daqiqada kuch ishlatish bilan qarama-qarshilikka aylantirishi mumkin. Bunday aqidaparastlar “jang”da mag‘lub bo‘lishini anglagan holda ham o‘zini “yovuzlik”ka qarshi kurashga qo‘shilishga majbur deb hisoblashda davom etadi. Aynan shunday o‘zini tutishi ham jamiyat uchun xavfli hisoblanadi.

Diniy aqidaparastlik holatlari va misollarini dunyoning ko‘plab mamlakatlarida uchratish mumkin. Tarixan ham bunday aqidaparastlik harakatlari uchrab turgan. Ommaviy aqidaparastlikka misolni o‘rta asrlarda ham ko‘rish mumkin. Bu davrda Yevropada boshqa madaniyatlarni va “sehrarlar”ni yo‘q qilishga qaratilgan salib yurishlari bo‘lib o‘tgan. Sektantlarning butun avlodlari butparastlikni xristian ruhoniylari uchun tahdid deb hisoblab, haqiqiy dindor qiyofasiga to‘g‘ri kelmaydigan har bir kishidan qutulishga harakat qilishgan. Giordano Bruno, Janna d’Ark, Galileo Galiley va boshqa taniqli shaxslar mana shunday aqidaparastlar qurboni bo‘lishgan.

Diniy aqidaparastlikning yana bir yorqin misoli – tarixda “Avliyo Varfolomey kechasi” nomi bilan qolgan ommaviy qirg‘in voqeasidir.

1572-yil avgustda katolik Ketrin de Medichi Fransiyada protestantlarga qarshi shafqatsiz qirg'in uyushtiradi. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, o'sha kuni "bid'atchi" tamg'asini olgan 30 mingdan ortiq odam o'ldirilgan.

Diniy aqidaparastlik holatlari zamonaviy dunyoda ham ko'plab kuzatilmoqda. Ko'pincha u islom niqobi ostida faoliyat yuritayotgan terroristik, jihodchi harakatlar faoliyati bilan bog'liq. Bunga eng yorqin misollar – 2001-yil 11-sentabrda AQSHda sodir bo'lgan fojia, 2000-yili Indoneziyada nasroniylarning o'ldirilishi va boshqalar.

Nima uchun odamlar diniy aqidaparast bo'lishadi?

Aksariyat hollarda mutaassiblar mazhabning ma'naviy rahbarining buyrug'i bilan harakat qiladilar. Ular o'rnatilgan dogma va qoidalarga bo'ysunishdan tonmaydilar.

Diniy fanatizmning asosiy sabablari:

Siyosiy. Hokimiyat uchun kurashda din kuchidan faol foydalaniladi. Siyosatchilar o'zlarining mavqeyini mustahkamlash yoki kengayish uchun bahona qilib, ayrim g'oyaviy sust odamlarning aqlsiz fanatizmidan foydalanadilar.

Psixologik. Fanatizm ruhiy nosozlikning oqibati hisoblanadi. Nevrotik xarakterga ega bo'lgan odamlar dinning yordami bilan o'zlaridan va atrofida g'ilardan ichki noqulaylik va buning natijasida paydo bo'lgan tajovuzkorlik, xudbinlik va pastkashlik xususiyatlarini yashirishga harakat qilishadi.

Diniy. Ba'zi din yoki diniy oqimlar fanatizmni norma aylantirishdi.

Ma'lum bo'lishicha, bolaligida tushunmovchiliklarga duch kelgan shaxslar diniy sabablarga ko'ra nizolarga moyil bo'ladi. Voyaga yetganida, ular hamfikr odamlarni topadilar va "tosh devor" orqasiga yashirinishga harakat qiladilar. Ammo bolalikda qolgan qo'rquv hissi ularni azoblashda davom etadi va uni go'yoki topilgan tinchlikni himoya qilish uchun "so'nggi nafasi" gacha "g'ayridinlar" bilan kurashishga majbur qiladi.

Odatda mutaassiblar boshqa dinlarga nisbatan murosasiz va tajovuzkor bo'ladi. Bunday odamni ruhiy sog'lom deb hisoblash ham balki noto'g'ridir. Bunday odamlar mantiqiy dalillar va faktlarni umuman qabul qilmaydilar. Ular ko'p jildli diniy asarlarni yod olishlari, yirik tashkilotlarda rahbarlik lavozimini egallashlari,

lekin ayni paytda ma'naviy falsafa asoslari haqida asosiy tushunchaga ega bo'lmasliklari mumkin. An'anaviy ravishda barcha aqidaparastlarni 2 turga bo'lish mumkin:

G'oya uchun kurashuvchilar. Bunda, ularning diniy qarashi eng yaxshisidir, ta'limotlari eng ilg'ordir, faqat ular muqaddas kitoblarni to'g'ri tushunishadi. Qolganlar xato qilganlar sifatida qaraladi.

Diniy rahbarning muxlislari. Mazhab (yoki diniy oqim) boshlig'i ularning eng ishongan yo'l boshlovchisi bo'ladi. Ba'zi hollarda fanatizmning ikkala turi bir odamda uyg'unlashishi mumkin.

O'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, aqidaparastlik qurboni o'z faoliyatidan emas, balki g'oyaning mavjudligi haqiqatidan qoniqish oladi. U yorqin his-tuyg'ularni boshdan kechirayotganda, o'z xohish-istaklarida sarxush bo'ladi. Bunday odamlarda o'zini-o'zi ta'minlash qobiliyati yo'q va shuning uchun ular o'zlarini uchun "muqaddas fikr"ni o'ylab topadilar. Ular o'zlaridan tashqarida eng muhim narsani topishga harakat qilishadi. Rahbariga taqlid qilib, mutaassib muvaffaqiyatli odamning bir qismiga aylangandek tuyuladi. U o'z hayoti uchun mas'uliyatni boshqalarning qo'lga topshiradi.

Ushbu buzqlik bilan og'rikan "bemorlar" o'ziga o'xshash odamlarga muhtojlik sezadi. Ular bir xil ashaddiy muxlislarni faol ravishda qidirishadi, ular orasida o'zlarini imkon qadar qulay va xotirjam his qilishadi. Mutaassibning muhiti – bu umumiy tuyg'u bilan bog'langan, asta-sekin o'sib boruvchi va ulkan nisbatlarga erisha oladigan jamoadir. Aynan shunday muhit shakllanishiga yo'l qo'ymaslik diniy bag'rikenglik va mo'tadil diniy muhitni qo'llab-quvvatlaydigan jamiyatlar uchun birinchi galdagi vazifadir.

Yuqorida ta'kidlanganidek, diniy mutaassiblik boshqa madaniyatlar va qadriyatlar tizimini yo'q qilishga qaratilgan bo'ladi. Aqidaparastlar esa o'z g'oyasini himoya qilish va rahbarning obro'sini himoya qilish uchun har qanday harakatlarga tayyor bo'lishadi. Ko'pincha, hali hayotiy tajribaga ega bo'lmagan o'smirlar va yoshlar diniy fanatizmga duch kelishadi.

Qanday odamlar diniy aqidaparastlikka duchor bo'lishadi?



Ayrim toifadagi odamlar diniy aqidaparastlikka moyil:

- tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lmaganlar;
- aql bilan emas, balki his-tuyg'ular bilan boshqariladigan shaxslar;
- oson ishonuvchan insonlar;
- boshqa odamlarning ta'siriga moyil bo'lganlar;
- biror sevimli mashg'ulot yoki kasbga ega bo'lmaganlar;
- o'zlarining shakllangan dunyoqarashiga ega bo'lmaganlar.

Bunday shaxslar uchun muayyan aqidaga rioya qilish o'zini qadrlash va muhim narsaga aralashish (ishtirok etish) hissini beradi.

Ko'r-ko'rona qaramlik tufayli aqidaparastlarning jamiyat bilan munosabatlari buziladi.

Vaqt o'tishi bilan ular diniy sekta a'zolaridan boshqa hech kim bilan muloqot qilmay qo'yishadi. Oila a'zolari bilan munosabatlar ham juda yomonlashadi.

Diniy fanatizm yoki aqidaparastlikni davolash mumkinmi?

Diniy fanatizm nafaqat psixologik qaramlik, balki uzoq muddatli psixoterapiyani talab qiladigan holat ekanligini tushunish kerak.

Bunday g'oyalar ta'siriga tushib qolgan odamlarni qutqarishda oila katta rol o'ynaydi. O'zligini topa olmaydigan odamlar deyarli har doim o'z qarindoshlaridan olmaydigan yordamni diniy oqimlardan izlaydilar. Muammo bolalikdan kelib chiqadi, shuning uchun bola bilan turli mavzularda suhbatlashish muhimdir. Mafkuraviy terapiya payti yaqinlarning qo'llab-quvvatlashi ham muhimdir. Mafkuraviy oriyentatsiyani yo'qotgandan so'ng, odam dunyoni kulrang (eyforiya yo'qoladi), dushman (hech kim achinmaydi) va chalkash (nima yomon va nima yaxshi ekanligini tushunishga hech kim yordam bermaydi) sifatida ko'radi. Bu davrda aqidaparastlik olamiga tushib qolish juda oson. Har qanday dunyoviy jamiyat bunday holatning oldini olishi kerak.

ADABIYOTLAR

1. Ислам: Энциклопедический словарь. – Москва, 1991.
2. Isoqjonov R. Islom falsafasi: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2012.
3. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari (o'quv qo'llanma) / Mas'ul muharrir A.Ochildiyev. – T.: Toshkent islom universiteti, 2013.
4. Hasanboyev O'. O'zbekistonda davlat va din munosabatlari: diniy tashkilotlar, oqimlar, mafkuraviy kurashning dolzarb yo'nalishlari / Mas'ul muharrirlar K.Kornilov, A.Mansurov. – Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyoti, 2014. – B. 552.

A.MAMAJONOVNING MATN TILSHUNOSLIGI HAQIDA ILMIY- NAZARIY QARASHLARI

YULDASHEVA

*Dilafroz Mahammadaliyevna,
Farg'ona davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi,*

ERMATOVA

*Marg'uba A'zamjonovna,
X.Sulaymonova nomidagi Respublika
sud ekspertiza markazi Farg'ona
bo'limi ish o'rganuvchi eksperti,
FarDU mustaqil tadqiqotchisi*

ABDUMALIKOVA

*Nozanin Ulug'bek qizi,
Farg'ona davlat universiteti,
filologiya fakulteti,
filologiya va tillarni o'qitish:
rus tili yo'nalishi,
2-bosqich talabasi*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada professor A.Mamajonovning tilshunoslikka oid ilmiy-nazariy qarashlari bayon etiladi. Olimning "Matn lingvistikasi" nomli monografiyasi o'rganish obyekti qilib olingan. Asarda matn tilshunosligining paydo bo'lishi, o'zbek tilshunosligiga yangi yo'nalish – matn lingvistikasining kirib kelishiga olimning katta hissa qo'shganligi, matn haqidagi ilmiy-nazariy qarashlari ma'lum darajada tahlil qilingan. Matn tushunchasining mohiyati, tiplari va komponentlari, bu komponentlarning o'zaro bog'lanishi va matn qismlarining bog'lovchi vositalari, matn birliklariaro sinonimiya, sintaktik-stilistik figuralar masalalari ta'limiy nuqtayi nazardan o'rganilganligi, an'anaviy va zamonaviy tilshunoslikdagi matn tadqiqi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Tilshunoslik, matn tilshunosligining paydo bo'lishi, gap, an'anaviy va zamonaviy matn tilshunosligi.

АННОТАЦИЯ

В статье изложены научно-теоретические взгляды профессора А.Мамаджонова на языкознание. В качестве объекта исследования взята монография ученого "Лингвистика текста". В работе анализируются зарождение лингвистики текста, большой вклад ученого во внедрение этого нового направления в узбекском языкознании, а также его научно-теоретические взгляды на текст. Сущность, виды и компоненты понятия текста, взаимосвязь этих компонентов и средства связи частей текста, вопросы синонимии между текстовыми единицами, синтаксически-стилистическими фигурами изучаются с педагогической точки зрения. Освещены исследование текста в традиционном понимании и современное языкознание.

Ключевые слова: Языкознание, возникновение лингвистики текста, речи, традиционная и современная лингвистика текста.

ANNOTATION

This article describes the scientific and theoretical views of Professor A. Mamajonov on linguistics. The scientist’s monograph “Text Linguistics” was taken as an object of study. In the work, the emergence of text linguistics, the scientist’s great contribution to the introduction of a new direction in Uzbek linguistics - text linguistics, and his scientific and theoretical views on the text are analyzed to a certain extent. The essence, types and components of the concept of text, the interconnection of these components and the connecting means of text parts, the issues of synonymy between text units, syntactic-stylistic figures are studied from an educational point of view, text research in traditional and modern linguistics illuminated.

Keywords: Linguistics, emergence of text linguistics, speech, traditional and modern text linguistics.

KIRISH

Necha ming yillardir odam bolasi o‘rganadi, o‘rgatadi, tajribato‘playdi, saqlaydi va boshqalarga yetkazadi. Albatta, bu faoliyatlarning, hech bir istinosiz, barchasi – o‘rganish va o‘rgatish ham, tajriba-axborotlarni to‘plash va saqlash ham, ularni boshqalardan olish va boshqalarga berish ham til vositasidagi muloqot (og‘zaki va yozma) orqali amalga oshadi. Zotan, tilning mohiyatiga daxldor bo‘lgan bosh vazifasining kommunikativ vazifa ekanligi bugun faqat mutaxassisgagina emas, balki barchaga besh qo‘lday ma‘lum bir haqiqat. Ammo mazkur kommunikativ aloqaning, nutqiy muloqotning lisoniy-mantiqiy, ijtimoiy-ruhiy, tarixiy-estetik mexanizmlari, ular bilan bog‘liq qoida-qonuniyatlar, o‘ziga xosliklar tegishli fanlar (tilshunoslik, adabiyotshunoslik, mantiq, sotsiologiya, estetika kabi) tomonidan to‘laligicha o‘rganib bo‘lingan emas. Bu boradagi juda ko‘plab muammolar hamma zamonlarda olimlarning e‘tiborida bo‘lib kelganligiga qaramay, hamon bahs-u munozaralarga sabab bo‘ladi, ilgari surilgan turli fikrlar goh birovlar tomonidan e‘tirof etilsa, goh jiddiy e‘tirozlarni tug‘dirib keladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA
METODLAR

Bugungi kun tilshunosligida matn tilning alohida yirik birligi (supersintaktik butunlik) va matn tilshunosligi deb atalayotgan sohaning asosiy obyekt sifatida talqin qilinadi. Matnni tadqiq etishda uni so‘z birikmasi va gapdan farqlash lozimligi, matnning ham o‘z kategoriyasi va qonuniyatlari borligi aytiladi [1. 188- b.]

“**Matn**” atamasi ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da matn so‘zining arabchadan o‘zlashganligi, eskirgan kitobiy so‘z ekanligi va aynan *tekst* so‘zi anglatgan ma‘noga tengligiga ishora qilinadi. Izohli lug‘atning 156-betida *tekst* so‘ziga quyidagicha ta‘rif beriladi:

1. Yozilgan, ko‘chirilgan yoki bosilgan ijodiy, ilmiy asar, nutq, hujjat va shu kabilar yoki ularning bir parchasi; matn. Maqolaning teksti.

2. Muzika asariga, masalan biror kuyga, opera, roman va shu kabilarga asos bo‘lgan she‘r, so‘z.

3. Z.Poligrafiyada yirik shriftlardan birining nomi[2. 20-bet.].

O‘zbek tilshunosligiga matn nazariyasining olib kirilishi va yangi taraqqiyot bosqichiga ko‘tarilishida N.M.Turniyozov, B.Yo‘ldoshev, A.Mamajonov, E.Qilichev, M.Hakimov, M.Yo‘ldoshev, S.Boymirzayevaning tadqiqotlari muhim ahamiyat kasb etdi. Shu tariqa o‘zbek tilshunosligida ham matn har tomonlama turli aspektlarda tadqiq qilindi va bu boradagi tadqiqotlar davom etmoqda.

Matn lingvistikasi fanining obyekti – matn (ilmiy, badiiy, publitsistik matn va b). **Matn lingvistikasi fanining predmeti** – matnning turli jihatlarini tadqiq qilish, ya‘ni matnning lingvistik, sotsiolingvistik, psixolingvistik, lingvostatistik, kognitiv-diskursiv va boshqa jihatlarini o‘rganishdir.

Professor Alijon Mamajonov sintaktika sohasida diqqatga sazovor izlanishlar olib borish bilan birga, o‘zbek tilshunosligiga yangi yo‘nalish – matn lingvistikasining kirib kelishiga katta hissa qo‘shdi. U akademik G‘.Abdurahmonov rahbarligida 1975-yili “Hozirgi zamon o‘zbek tilida periodlar” mavzusida nomzodlik, 1991-yili “O‘zbek tili qo‘shma gaplarining stilistik xususiyatlari” mavzusida doktorlik dissertatsiyalarini yoqladi. Olim yaratgan qator ilmiy risola va qo‘llanmalar orasida “Tekst lingvistikasi” (1991), “Nutqning periodik ko‘rinishi” (1995), “Uslubiy vositalar” (1996), “Matn sintaksisi” (2002), “Gapning shakli va mazmuniy tuzilishiga ko‘ra turlari” (2004), “Matn birliklari” (2013) singari o‘quv-uslubiy qo‘llanmalari o‘zbek tilshunosligi rivojida muhim ahamiyat kasb etdi.

Professor A.Mamajonov “Tekst lingvistikasi” (1991) nomli o‘quv qo‘llanmasini nashr ettirdi [3.62-b.]. Bu ishda matn haqidagi ilmiy-nazariy qarashlar ma‘lum darajada tahlil qilingan, matn tushunchasining mohiyati, tiplari va komponentlari, bu komponentlarning o‘zaro bog‘lanishi va matn qismlarining bog‘lovchi vositalari, matn birliklariaro sinonimiya, sintak-

tik-stilistik figuralar masalalari ta‘limiy nuqtayi nazardan o‘rganilgan. Keyinchalik A.Mamajonov **M.Abdupattoyev** bilan hamkorlikda “**Matn sintaksisi**” nomli o‘quv qo‘llanmasini ham nashr ettirdi. Ta‘limiy xarakterga ega bo‘lgan bu qo‘llanmada matnning struktur-semantik va uslubiy jihatlari, matn birliklaridagi tema-rematik munosabat masalalari tahlil qilingan hamda shu asosda o‘zbek tilidagi matnlarning sintaktik tabiati haqida tegishli umumiy xulosalar bayon qilingan[4. 25-b.].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tilshunos olim A.Mamajonov matn komponentlari o‘rtasida mustahkam sintaktik aloqa mavjudligini ta‘kidlaydi va bu aloqaning o‘ziga xosligini “**Tekst lingvistikasi**” (1991) deb nomlangan risolasida quyidagicha izohlaydi: “Bizningcha, sintaktik aloqaning bu turi qo‘shma gap komponentlari orasidagi grammatik aloqaga o‘xshab ketadi, faqat murakkabroq ko‘rinishda yuzaga chiqadi. Ma‘lumki, qo‘shma gap komponentlari orasida birlashtirish, qiyoslash, zidlash, sabab-natija, shart-payt, aniqlash, izohlash kabi mazmuniy munosabatlar ifodalanadi. Bu munosabatlar qo‘shma gapning uch turi: bog‘lovchisiz, bog‘langan va ergash gapli qo‘shma gaplarda komponentlarni o‘zaro birlashtiruvchi sintaktik aloqa vositalari: intonatsiya, bog‘lovchilar, bog‘lovchi vazifasidagi so‘zlar, gap bo‘laklari tartibi, olmoshlar, ayrim so‘zlarning takrorlanishi, umumiy ikkinchi darajali bo‘laklar, kesimlarning zamon munosabati kabilar orqali reallashadi. Ko‘rinadiki, qo‘shma gaplarda sintaktik aloqa predikatsiyalar orasida o‘rnatiladi. Tekstda esa sintaktik aloqa bir butun gaplar, superfrazali sintaktik butunliklar, abzaslar, qismlar, bo‘limlar, boblar o‘rtasida yuzaga chiqib uning mazmuniy va struktural birligini ta‘minlaydi”[5. 15-bet.].

Demak, matn tarkibidagi gaplar faqat struktural jihatdan emas, balki mazmunan ham bir-birini taqozo qilishi kerak ekan. Matn butunligida mazmuniy yaqinlik qanchalik ahamiyatli bo‘lsa, mazmun izchilligi ham shunchalik muhim.

Matn uslubiy mohiyatiga ko‘ra **ilmiy matn** (tezis, maqola, ma‘ruza, annotatsiya, taqrizlar), **badiiy matn** (nasriy va nazmiy asarlar), **rasmiy matn** (ma‘lumotnoma, qaror, buyruq, tavsifno-

ma, tavsianomalar), **ommabop matn** (maqola, suhbat, tabrik va xitob nutqi matnlari) kabi tarmoqlarga bo'linadi. Biz ushbu qo'llanmada faqatgina badiiy matn haqida fikr yuritimiz [6. 220-bet.]. Matn hajm va mazmun belgisiga ko'ra ikkiga bo'linadi:

1. Hajm belgisiga ko'ra matn tiplari.

2. Ifoda maqsadi va mazmun belgisiga ko'ra matn tiplari.

Matn gapdan ko'ra yirik hajmli aloqa vositasi, nutqiy faoliyat mahsuli, muayyan qonuniyatlarda asosida shakllangan yozma nutq ko'rinishidir. Matnning hajm belgisiga ko'ra ikkiga ajratiladi: **minimal matn (mikromatn) va maksimal matn (makromatn)**.

Badiiy uslubda **minimal matn deyilganda** biror mavzuni yoritishga bag'ishlangan qatralar, xalq donishmandligini ifodalaydigan maqol, matl va aforizmlar, miniatyuralar, hajviy asarlar, nomalar, she'r va she'riy parchalar, umuman, kichik mavzuni qamrab oluvchi bir necha gaplardan iborat butunlik tushuniladi. Matnning ichki tomonini mazmun yaxlitligi, tashqi tomonini esa turli shakldagi bog'lamlar, sintaktik vositalar birlashtirib turadi. Masalan:

Talantsiz yozuvchi tovuqqa o'xshaydi. Yong'oqdek tuxum tug'adi-da, qaqog'lab olamni buzadi!(O'.Hoshimov)[7].

Yoki: Sevgi nima? Insoniyat paydo bo'ptiki, shu savol ustida bosh qotiradi. Ammo javob topolmaydi. Agar inson sevgining barcha sir-asrorlarini bilganida edi, uning modeli – qolipini yaratgan bo'lardi. Sevgi hech qanday qolipga sig'magani uchun ham sirli va abadiydir. (O'.Hoshimov)[8].

Mikromatn deb atash mumkin bo'lgan ikkita parchani keltirdik. Tarkiblanish jihatidan birinchisi ikkita gapdan tuzilgan. Mazmunni birlashtirishga xizmat qiladigan sarlavha berilmagan.

Shuni ham aytib o'tish kerakki, ayrim adabiyotlarda matn hajm jihatidan uchga ajratilgan: **kichik, o'rta va katta hajmli matnlar**. "Telegramma, ma'lumotnoma, ariza, ishonch xati, tushuntirish xati hamda vaqtli matbuotda chiqadigan e'lon va kichik xabarlar **kichik**

hajmdagi matnlar sanaladi. **O'rta hajmdagi matnlarga** hikoya, qissa, she'r, doston, poemalar kiradi. **Katta hajmdagi matnlarga** povest, roman, dramatik asarlar, trilogiyalar kiradi"[9. 6-7-betlar.].

– Tilning yaratuvchisi ham, egasi ham xalqdir, – deydi Alijon Mamajonov. Hatto rus tilidagi "ЯЗЫК" so'zining dastlabki ma'nosi "xalq" bo'lgan. Shuning uchun ham tilni o'rganish xalq ruhini o'rganish bilan barobardir. Til muhabbat, bu xalqqa, ona Vatanga muhabbatdir. Ona tilimizning hech qaysi tildan qolishmaydigan go'zal ifodalarga boyligi, ta'sirchanligi, betakror ifoda usullariga ega ekanligini ko'rsatish nutq tarbiyasi borasida yo'l-yo'riqlar berish orqali xalqqa naf yetkazish mening asosiy maqsadim bo'lgan va shunday bo'lib qolaveradi.

XULOSA

Ha, yuksak darajadagi og'zaki va yozma madaniyatni egallash xalqning har bir vakili uchun ham qarz, ham farzdir. Alijon Mamajonovga o'xshagan olimlar esa bu yo'lda xalqqa ko'mak beradigan, yo'l ko'rsatadigan kishilardir. Ayniqsa, davlatimiz mustaqillikni qo'lga kiritgan va dadil qadamlar bilan olg'a borayotgan paytda tilimizni turli "ta'sirlar" ostidagi buzilishlardan xalos etish, uning boyligini, betakror go'zalligini, nafisligi-yu hayotiy kuch-qudratini namoyish qilish va yanada rivojlantirish payti keldi.

Ustoz o'zbek tilshunosligi, matn lingvistikasi yo'nalishi borasida o'zining "Qo'shma gap stilistikasi", "Matn lingvistikasi", "Uslubiy vositalar", "Periodik nutq ko'rinishi" singari qator ilmiy-uslubiy monografiyalari, nufuzli ilmiy jurnallarda e'lon qilingan maqolalari orqali o'zbek tilshunosligidagi dastlabki fikrlarni bildira olganlar.

A.Mamajonovning "Hozirgi o'zbek adabiy tili qo'shma gaplarning stilistik xususiyatlari" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi xuddi mana shu masalalar bilan bevosita bog'liqligi bilan g'oyatda ahamiyatlidir.

ADABIYOTLAR

1. Yo‘ldoshev M., Muhamedova S., Saparniyazova M. Matn lingvistikasi [Matn]: o‘quv qo‘llanma / M. Yo‘ldoshev, S. Muhamedova, M. Saparniyazova. -Toshkent: “ISHONCHLI HAMKOR”, 2021. - 188 b.
2. M.Q.Xolbekova. “Badiiy matnning lisoniy tahlili” fanidan o‘quv-uslubiy majmua. (o‘quv qo‘llanma). - Guliston. 2012. – 20 bet.
3. Mamajonov A. Tekst lingvistikasi. O‘quv qo‘llanmasi. – Toshkent: ToshDPI nashri, 1989. – 62 b.
4. Mamajonov A., Abdupattoyev M. Matn sintaksisi. – Farg‘ona: FarDU nashri, 2002. – B. 4-25.
5. Mamajonov A. Tekst lingvistikasi. –T: TDPI., 1989, 15-bet.
6. Xolbekova M.Q. “Badiiy matnning lisoniy tahlili” fanidan o‘quv-uslubiy majmua. (O‘quv qo‘llanma). – Guliston, 2012. – B.220.
7. O‘tkir Hoshimovdan keltirilgan misollar adibning “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” deb nomlangan kitobidan olindi. –T., “Sharq”, 2005.
8. Qilichev E. Matnning lingvistik tahlili. “Buxoro universiteti”, 2000, 6-7-betlar.
9. Y. D. Maxamadaliyevna, M Matmusayeva. On Lingvofolcloristic Units. International Journal of Culture and Modernity 11, 169-171.
10. Y.D.Muhamadaliyevna, M.A.Ermatova. Professor A.Mamajonov – uslubshunos olim. Educational Research in Universal Sciences ISSN: 2181-3515 VOLUME 2 SPECIAL USSUE 8 2023 Avgust. 20-23-betlar.
11. Y.D.Muhamadaliyevna, M.A.Ermatova, N.A.Abdumalikova. Professor A.Mamajonovning O‘zbek xalq maqollaridan foydalanish mahorati. FarDU ilmiy xabarlari jurnali 2023-yil 5-sonining 1-seriyasi “IJTIMOIY GUMANITAR FANLAR” 124–128-betlar.

ANNOTATSIYA

JINOYAT PROTSESSI ISHTIROKCHISI SIFATIDA MUTAXASSISNING HUQUQIY MAQOMI

RASHIDOV,

Bexzod Nurboyevich

O'zbekiston Respublikasi

IIV Akademiyasi Jinoyat-protsessual

huquq kafedrası boshlig'i,

yuridik fanlar doktori (DSc),

professor.

ABDUVAHOBOV,

Sherzodbek Abduvahobovich

O'zbekiston Respublikasi

IIV Akademiyasi Jinoyat-protsessual

huquq kafedrası o'qituvchisi.

Ushbu maqolada jinoyat protsessida huquqiy maqom, shaxslarning huquqiy holati, muomala layoqati, huquqiy layoqati, jinoyat protsessi ishtirokchisi sifatida mutaxassis huquqiy maqomi tushunchasi hamda jinoyat protsessida mutaxassisning dalillarni aniqlash, topish, qayd etish, olib qo'yish, to'plangan dalillarni tekshirish jarayonida huquqiy holati, mutaxassis va ekspertning huquqiy maqomidagi farqlar ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, odil sudlovga erishish uchun maxsus bilimlardan foydalanish, isbot qilish jarayonida ularning tutgan o'rni, jinoyatchilikka qarshi kurashishda unumli foydalanish usullari, bu borada huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish zaruriyati, mutaxassislarga topshirilishi mumkin bo'lgan tergov harakatlari, jinoyat protsessida huquqiy layoqat va muomala layoqati o'zaro mos keluvchi subyektlar, jinoyat-protsessual munosabatlarda mutaxassisning huquqiy maqomining qanday tartibda amalga oshirilishi, jalb qilish tartiblari, mutaxassislar o'z vazifalarini amalga oshirishda yuzaga kelayotgan muammolar, ularning yechimi, tartibga solish mexanizmlari yoritilgan.

Shuningdek, mutaxassis huquqiy maqomi yuzasidan dalillarni to'plash, qayd etish va tadqiq qilish bilan bog'liq ayrim nazariy va amaliy muammolar, jinoyat protsessida mutaxassis huquqiy maqomi yuzasidan ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalar berib o'tilgan va nazariy ta'riflari bo'yicha ham takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: maqom, shaxs maqomi, huquqiy maqom, huquqiy holat, muomala layoqati, huquqiy layoqat, mutaxassis huquqiy maqomi, jinoyat protsessi.

АННОТАЦИЯ

В статье раскрыты понятия правового положения, физических лиц, дееспособности, правового статуса специалиста как участника уголовного судопроизводства, а также в процессе выявления, обнаружения, фиксации доказательств. Научно проанализированы различия в правовом статусе, изъятии и исследовании доказательств по уголовному процессу, собранных специалистом и экспертом. Также рассмотрены использование специальных

знаний для достижения справедливости, их роль в процессе доказывания, методы эффективного использования в борьбе с преступностью, необходимость совершенствования правовых механизмов в этой связи, следственные действия, которые можно поручить специалистам. Освещены совместимые правоспособность и дееспособность субъектов в уголовном судопроизводстве, в уголовно-процессуальных отношениях, как реализуется правовой статус эксперта, порядок его привлечения; проблемы, возникающие при исполнении экспертами своих обязанностей, их решения, механизмы регулирования.

Также приведены некоторые теоретические и практические проблемы сбора, фиксации и исследования доказательств, касающихся правового статуса специалиста, научно-теоретические и практические рекомендации и теоретические определения относительно правового статуса специалиста в уголовном процессе.

Ключевые слова: статус, личный статус, правовой статус, правовое положение, правоспособность, дееспособность, правовой статус специалиста, уголовный процесс.

ANNOTATION

This article reveals the concepts of legal status, legal status of individuals, legal capacity, capacity, legal status of a specialist as a participant in criminal proceedings, as well as the legal status of a specialist in the process of identification, detection, recording. Differences in legal status, seizure of evidence, and examination of collected evidence by a specialist and an expert in criminal proceedings are scientifically analyzed. The use of special knowledge to achieve justice, their role in the process of proof, methods of effective use in the fight against crime, the need to improve legal mechanisms in this regard, investigative actions that can be entrusted to specialists, subjects with compatible legal capacity and capacity in criminal proceedings are also considered, in criminal procedural relations, how the legal status of an expert is realized, the procedure for attracting, problems that arise when experts perform their duties, their solutions, regulatory mechanisms.

Some theoretical and practical problems of

collecting, recording and researching evidence relating to the legal status of a specialist were also given, scientific, theoretical and practical recommendations and theoretical definitions were given regarding the legal status of a specialist in criminal proceedings.

Key words: status, personal status, legal status, legal status, legal capacity, legal capacity, legal status of a specialist, criminal procedure.

Kirish. Jinoyat protsessining asosiy maqsadi bo'lgan odil sudlovga erishish uchun maxsus bilimlardan foydalanish samaradorlik garovidir. Shunday ekan bu borada ilm-fandagi so'nggi yangiliklar va ulardan jinoyatchilikka qarshi kurashishda unumli foydalanish huquqiy mexanizmlarni takomillashtirishni ham taqozo etadi. Jinoyat ishlarini yuritishda isbot qilish samaradorligi dalillarni to'plash va tekshirish jarayonida maxsus bilimlardan qanchalik o'rinli foydalanilishiga bevosita bog'liq. Jinoyat protsessida maxsus bilimlardan foydalanish bunday bilimlarga ega shaxslar, ya'ni mutaxassislarining ishda ishtirok etishida ko'zga tashlanadi.

Muayyan jarayonlarda ishtirok etayotgan subyektning huquqiy maqomi ushbu tizimdagi munosabatlarning mazmuniga ta'sir qiladi. Huquqshunoslik fanidagi asosiy masalalardan biri bu munosabatlar subyektining huquq va majburiyatlari tizimi hisoblanadi. Jinoyat protsessining ishtirokchisi sifatida mutaxassis, uning huquqiy maqomi, isbot qilishdagi o'rnini chuqurroq o'rganishda "shaxs maqomi" tushunchasi, uning tarkibiy jihatlariga e'tibor berish lozim bo'ladi.

Tadqiqotning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi qonunlarida va nazariyada huquq subyektining huquqlari, majburiyatlarini ifodalash hamda uning huquqda tutgan o'rnini belgilashda "huquqiy maqom", shuningdek, "huquqiy holat" atamaları qo'llanishini ko'rishimiz mumkin. Mazkur tushunchalar ma'lum bir subyektning ijtimoiy munosabatlarda tutgan o'rnini hamda uning huquq va majburiyatlarining yig'indisini ko'rsatib beradi.

"Huquqiy maqom"ni tahlil qilish orqali huquqda subyekt kim sifatida ishtirok etishi, uning huquq va majburiyatlari bo'yicha tushunchalar shakllanishiga olib keladi.

Material va metodlar. *Tadqiqotda jinoyat protsessida shaxs maqomi, mutaxassis huquqiy maqomi bo'yicha qonunchilik normalari va huquqshunos olimlarning ilmiy-nazariy*

qarashlaridan foydalanildi hamda qiyosiy-huquqiy usul, tahlil, sintez, kuzatish, umumlashtirish, induksiya va deduksiya metodlari qo'llanildi.

Tadqiqot natijalari. Izlanish jarayonida "maqom" va "huquqiy maqom" tushunchalariga turli xil ta'riflar berilganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, **maqom bu** (huquqda) – saylab qo'yiladigan shaxslar, fuqarolar, **davlat** idoralari, tashkilot, muassasa, xalqaro tashkilotlarning normativ **akt** bilan rasmiylashtirilgan huquqiy holati, ularning huquq va majburiyatlarining yig'indisidir [13].

Shaxsning huquqiy maqomi bu – o'zida shaxsning jamiyatdagi o'rnini va rolini ko'rsatib beruvchi huquq me'yorlarida aniq huquqiy mustahkamlab qo'yilgan huquqlar, erkinliklar va majburiyatlarining tizimini aks ettiradi [14].

Jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilari kabi mutaxassisning huquqiy holati ham jamiyat va davlatda yuz berayotgan turli jarayonlar ta'sirida doimiy ravishda o'zgarib turadi.

Jinoyat protsessiga oid turli adabiyotlarda huquqshunos olimlar protsess subyektlarining huquqiy maqomiga e'tibor qaratib o'z fikrlarini bildirib o'tganlar. Xususan, M.S.Strogovich shaxs huquqiy holatining mazmunini to'rtta tarkibiy qismga ajratgan: 1) shaxsning huquqlari; 2) shaxsning majburiyatlari; 3) shaxs huquqlarining kafolatlari; 4) shaxsning o'z majburiyatlarini bajarmaganligi uchun qonuniy javobgarligi [1, B.257]. M.S.Strogovich shaxs huquqiy holati mazmuniga "huquqiy va muomala layoqati"ni kiritmaganligi bois, uning ushbu fikrlarini to'liq deyish mushkul. Chunki, ishda ishtirok etishga jalb qilingan shaxsning "huquqiy va muomala layoqati" mavjud emasligi sababli, uning majburiyati va javobgarligi yuzaga kelmaydi hamda ayrim huquqlardan foydalana olmaydi.

Olim L.D.Kokorev jinoyat protsessi subyektlarining jinoyat-protsessual maqomi tarkibiga shaxsning huquq va majburiyatlari, qonuniy manfaatlarini, protsessual huquqiy va muomala layoqatini, subyektiv jinoyat-protsessual huquqlarning turli kafolatlari tizimini kiritgan [2, B.7-8].

S.P.Bekeshko jinoyat protsessi ishtirokchisining protsessual holati deganda, jinoyat protsessining vazifalaridan kelib chiqadigan

hamda ushbu ishtirokchining huquq va majburiyatlari, ularning kafolatlari bilan belgilanadigan jinoyat ishini yuritishdagi maqomini tushunadi [3, B.120-121].

O.A.Zeleninaning fikricha, protsessual maqom jinoyat protsessi ishtirokchilari va davlat o'rtasida mavjud bo'lgan, jinoyat-protsessual qonun normalari vositasida amalga oshiriladigan hamda davlat tomonidan kafolatlangan barcha mumkin bo'lgan aloqa va munosabatlar ifodasidir [4, B.23].

L.D.Kokorev, S.P.Bekeshko, O.A.Zeleninalarning bu borada bildirgan fikrlariga qo'shilish mumkin. Chunki, ular "shaxsning huquqiy maqomi"ni, huquqiy va muomala layoqatini qamrab olgan, davlat tomonidan kafolatlanadigan hamda jinoyat protsessining vazifalaridan kelib chiqadigan, munosabatlar tizimi sifatida ta'rif berishgan.

E.A.Semenov, V.F.Vasyukov, A.G.Volevodzlarning fikricha, jinoyat protsessi ishtirokchisining huquqiy maqomini aniqlashda, jinoyat protsessi muayyan ishtirokchisining u yoki bu guruhga mansubligini tavsiflovchi hamda jinoyat protsessi subyektlarining ma'lum bir davrda, muayyan huquqiy munosabatlarda bo'lib, huquqiy layoqati, muomala layoqati, majburiyati va javobgarligi belgilarida namoyon bo'ladigan elementlar majmuyidan kelib chiqish kerak [5, B. 9].

Bu borada huquqshunos olim I.L.Petruxin ham masalaga shu tariqa yondashgan: "Jinoyat protsessida ishtirok etuvchi har bir shaxs o'zining alohida maqomiga ega bo'ladi, biroq ko'pchilik protsess ishtirokchilari uchun ayrim elementlarga umumiy hisoblanadi. Ba'zi protsess ishtirokchilarining maqomi bir-biriga o'xshash, lekin bu jinoyat protsessida shaxsning yagona maqomi mavjud deyish uchun maqbul bo'lmaydi, ya'ni har bir protsess ishtirokchisi o'ziga xos huquqlaridan foydalanadi va o'ziga xos majburiyatlarni zimmasiga oladi" [6, B.13]. Bizningcha, I.L.Petruxinning bu borada aytgan fikrlariga qo'shilish mumkin. Chunki, jinoyat-protsessual munosabatlarda ishtirok etuvchi subyektlar o'ziga xos huquqiy maqomga ega bo'lib, ayrim subyektlarning huquqiy maqomi bir-biriga o'xshash bo'lishi mumkin. Jumladan, mutaxassis va ekspertning belgilari bir-biriga o'xshash bo'lsa-da, ularning huquqiy maqomi turlicha hisoblanadi.

Dotsent G.S.Ismailova, "maqom" (lotinchada status – mavqe, mansab)ni mazmuniga ko'ra beshta tarkibiy qismga bo'lgan: 1) shaxsning, davlat organlari yoki tashkilotlarning huquqiy holatini belgilaydigan huquq va majburiyatlarning majmuyi; 2) insonning davlat va jamiyat tomonidan o'rnatilgan majburiy va mumkin qadar odob-axloq me'yorlari; 3) insonning jamiyatda belgilangan huquq va majburiyatlariga nuqtayi nazari; 4) ijtimoiy odob-axloq shakli va 5) ijtimoiy o'rni. "Huquqiy maqom"– bu Konstitutsiya va qonunlar bilan o'rnatilgan, insonning huquq va majburiyatlari, shuningdek, davlat organlari va mansabdor shaxslar vakolatining tan olinishidir [7, B, 43-44].

Professor Sh.A.Qulmatov fikricha, "Jinoyat protsessida protsessual huquq va majburiyatlar protsess ishtirokchilarining "huquqiy maqomi"ni, ishdagi ishtirokini belgilab beradi, protsessual huquqlar ishtirokchilarning ixtiyoriga havola etilsa, protsessual majburiyatlar bajarilishi shartdir" [16, B. 25].

Professor H.T.Odilqoriyev qayd etishicha: "Huquq to'g'risida so'z yuritilganida majburiyatlar to'g'risida gapirilmasa, bu mantiqan noto'g'ridir. Qonunda mustahkamlangan konkret huquqlarni amalga oshirish bevosita ma'lum bir belgilangan yuridik majburiyatlarni bajarish bilan bog'liqdir" [8, B.157–163].

G.S.Ismailova, Sh.A.Qulmatov, H.T.Odilqoriyevlarning fikrlariga qo'shilgan holda, shaxs huquqiy maqomi, Konstitutsiya yoki qonunlar bilan o'rnatilishi, jinoyat protsessida huquq va majburiyatlar protsess ishtirokchisining huquqiy maqomini belgilab berishini hamda huquqlarni amalga oshirishda ma'lum bir majburiyatlarni yuklash orqali, huquqiy kafolatlar berilishini qayd etish o'rinli.

M.X.Kadirova ham protsess ishtirokchilari jinoyat-protsessual qonunda belgilangan tegishli protsessual huquq va majburiyatlarga ega bo'lishi, belgilangan protsessual muddatlarda huquq va majburiyatlarini amalga oshirishi yoki bajarishdan o'zlarini tiyishlari kerakligini ta'kidlagan [17, B.15]. M.X.Kadirova, protsess ishtirokchilari huquq va majburiyatlarga ega bo'lishini hisobga olib, ularning mazmunini qisqacha ta'riflashga harakat qilgan.

Bizning fikrimizcha, "huquqiy maqom" – bu huquq va muomala layoqatiga ega bo'lgan, huquq-

majburiyatlari chegaralari belgilab qo'yilgan, huquqlari qonun bilan kafolatlanadigan hamda jinoyat-protsessida ishtiroki orqali ma'lum bir vakolatlarga ega bo'lishga aytiladi.

Tadqiqot natijalari tahlili. Mutaxassisning jinoyat protsessi ishtirokchilari tizimidagi o'rnini O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi (keyingi o'rinlarda – JPK deb yuritiladi) ning “Jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilari” deb nomlangan 6-bobi 69-70-moddalarida belgilangan. Ushbu moddalarda mutaxassisning huquqiy maqomi aks etgan.

JPK 69-moddasiga ko'ra “tergov va sud muhokamasini o'tkazishda dalillarni topish va mustahkamlashda surishtiruvchiga, tergovchiga, prokurorga va sudga yordam berish uchun mutaxassis chaqiriladi”. Ushbu norma mazmuni kengroq ta'riflansa “mutaxassis – maxsus bilimga ega bo'lgan, ishga oid dalillarni aniqlash, topish, qayd etish va olib qo'yish, to'plangan dalillarni tekshirishda, shuningdek texnika vositalarini qo'llashda ko'maklashish maqsadida belgilangan tartibda protsessual harakatlarga jalb etiladigan shaxs” ekanligini e'tirof etish mumkin.

Mutaxassis va ekspertning faoliyat yo'nalishlari bir-biriga yaqin bo'lganligi, ularning har ikkisi ham maxsus bilimlardan foydalanishi bois ularning protsessual faoliyatini farqlash zarur [18, B. 75]. Maxsus bilimlarga ega bo'lish mutaxassisni ayblov va himoya tomonidan qatnashayotgan jinoyat protsessi ishtirokchilaridan, suddan, shuningdek, huquqiy ta'rifi ekspertdan boshqa barcha “protsessning ishtirokchilari” dan ajratib turadi.

Mutaxassis va ekspertning huquqiy maqomidagi farqlar shundaki, mutaxassis “maxsus bilimga ega bo'lib, protsessual harakatlarda ko'maklashish uchun ishtirok etishga jalb qilinadi”, ekspert esa “maxsus bilimga ega bo'lgan, ekspertiza tadqiqotini o'tkazish va xulosa berish uchun tayinlangan” shaxsdir. Shuning uchun ham mutaxassis va ekspertning huquqiy maqomlarini jinoyat protsessida maqsadiga ko'ra farqlash zarur.

Bu borada A.V.Kudryavseva “jinoyat ishi yuritishning mazkur ishtirokchilarini protsessual holati, ya'ni ekspert va mutaxassis oldida turgan vazifalarni hal qilish darajasi bo'yicha bir-biridan farqlash lozim”ligini ma'lum qilgan [9, B.56]. Mutaxassis ishga masalalarni tajriba asosida

yechish lozim bo'lganda hamda buning natijasi yetarli bo'lganda, ularni hal etishda laboratoriya uskunalaridan foydalanish, murakkab hisob-kitoblar, uzoq muddat talab qilinmaganda jalb etilishi lozim [9, B.55].

Bizningcha, A.V.Kudryavsevaning ushbu fikrlari o'rinli. Jinoyat-protsessual munosabatlarda ekspert va mutaxassisning huquqiy maqomi bir-birlariga yaqin bo'lsada, ularga huquq va majburiyatlarini tahlil qilish orqali, ularning ishtirokiga oid farqlar va huquqiy munosabatlardagi o'rnini anglash imkonini beradi.

Professor I.R.Astanov o'z tadqiqotlarida, mutaxassis va ekspertning jinoyat protsessidagi ishtirokidagi farqlarni sanab bergan. Jumladan, “Birinchidan, mutaxassis fikri maslahat tusida bo'ladi va tajribali tergovchining yana bir bor o'z harakatlariga ishonchini kuchaytiradi. Ayrim hollarda tergovchilar ham bunday bilimga ega bo'ladi; ekspertiza esa ba'zida ko'pchilik ilg'ay olmaydigan, allaqachon yo'qolib ketgan dalillarni qayta tiklashga yordam beradi; ikkinchidan, mutaxassis ekspertdan farqli ravishda tadqiqot olib bormaydi, balki faqatgina dalillarni aniqlashga, olishga va mustahkamlashga yordam beradi xolos; ekspert esa tadqiqot natijasi bo'yicha xulosa beradi va uning to'g'riligi uchun javobgar hisoblanadi; uchinchidan, ekspert xulosasi natijasida jinoyat ishi qo'zg'atiladigan bo'lsa, bunday harakatlari uchun ekspert shaxsan javob beradi; mutaxassisning jinoyat ishini qo'zg'atishga sabab bo'luvchi harakati uchun esa tergovchi javobgar hisoblanadi, chunki uning fikri maslahat ko'rinishiga ega” ekanligini aytib o'tgan [18, B. 77-78]. Bu borada professor I.R.Astanovning fikrlariga qo'shilamiz.

Mutaxassis va ekspert aslida bitta shaxs bo'lishi mumkin, lekin ular jinoyat protsessidagi ishtirokiga, ya'ni bajaradigan vazifasiga ko'ra o'zaro farqlanadi. Jinoyat protsessida ekspertning vazifasi (maqsadi, vazifalari) ekspertiza o'tkazish va o'tkazilgan tadqiqot natijalariga asosan xulosa berishdir, shuningdek, ekspert so'roq qilinishi va undan ko'rsatuv olinishi mumkin. Mutaxassisning vazifasini uning faoliyat sohalari orqali anglash mumkin. Mutaxassis protsessda quyidagi maqsadlarda ishtirok etadi: 1) tergov va sud muhokamasini o'tkazishda dalillarni topish va mustahkamlashda surishtiruvchiga, tergovchiga,

prokurorga va sudga yordam berish; 2) tergov va sud muhokamasini o'tkazishda ilmiy-texnika vositalarini (magnitofon, videomagnitofon, kinoga olish apparatlari va boshqa apparatlarni) qo'llash uchun.

Bundan tashqari, ayrim tergov harakatlarini o'tkazish mutaxassisga topshirilishi mumkin. Masalan, shaxsni yechintirib yalang'ochlash yoki uning badanidagi tirnalgan, shilingan, qontalash joylarni aniqlash bilan bog'liq bo'lgan, shuningdek, ekspertiza o'tkazishni talab qilmaydigan usullarni qo'llash yo'li bilan shaxsning mastlik va boshqa fiziologik holatini aniqlash zarurati tug'ilgan hollarda guvohlantirish surishtiruvchi, tergovchi yoki sudning topshirig'iga binoan shifokor yoxud boshqa mutaxassis tibbiy xodim tomonidan o'tkaziladi [10, B-103]. Taftish o'tkazish uchun tayinlanadigan shaxslar sifatida mutaxassislar ishtirok etishi mumkin [10, B-137].

Ko'zdan kechirish chog'ida o'lchov o'tkazish, fotosuratga, kintotasvirga, videoyozuvga tushirish, rejalar, sxemalar, chizmalar tuzish, izlardan qoliplar va nusxalar olish ishlarini bajarishga yordam berish uchun mutaxassislar jalb qilinishi mumkin [10, B-98].

Mutaxassisning huquqiy maqomini, uning jinoyat protsessida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlardagi o'rni belgilovchi protsessual qoidalar yig'indisini o'rganish asosida, mutaxassisning muomala layoqati, huquqiy layoqat, huquq va majburiyatlari, vazifalari singari huquqiy belgilarini alohida ifodalash orqali bilib olish mumkin.

Huquqiy adabiyotlarda ko'rsatib o'tilganidek, "jinoyat protsessi ishtirokchisi o'z jinoyat-protsessual maqomini amalga oshirishning sharti huquqiy layoqat va muomala layoqatidir" [4, B.25].

Huquqiy layoqat – huquq layoqati va muomala layoqati kabi ikki tarkibiy qismdan tashkil topadi. Shaxs huquq layoqatining ana shu ikki tarkibiy qismiga bir vaqtning o'zida ega bo'lishidan kelib chiqib, uning to'laonli huquq subyektiligi anglashiladi. Fuqarolarning huquq layoqati u tug'ilishi bilan, to'la muomala layoqati esa, 18 yoshga to'lgach vujudga keladi [12, B.35].

Muomala layoqati (huquqda) – fuqaro yoki yuridik shaxsning o'z harakatlari bilan huquqqa ega bo'lish va o'zi uchun **majburiyat** yaratish qobiliyati. Fuqaroning muomala layoqati to'la

yoki to'la bo'lmagan hajmda bo'lishi mumkin. To'la hajmda muomala layoqatiga **shaxs** 18 yoshga to'lgach ega bo'ladi. 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan va 14 yoshga to'lmagan voyaga yetmaganlarning muomala layoqati to'la hajmda bo'lmaydi. Ushbu yoshdagi **voyaga yetmaganlar** qonunda nazarda tutilgan harakatlarni qonuniy vakillarining roziligi yoki mustaqil ravishda bajarishlariga yo'l qo'yiladi [15].

Huquqiy layoqat – shaxsning subyektiv huquq va majburiyatlar sohibi (egasi) sifatida harakat qilish qobiliyati (imkoniyati)dir. **Muomala layoqati** – shaxsning o'z ongli, ixtiyoriy (irodaviy) harakatlari bilan subyektiv huquqlari va yuridik majburiyatlarini amalga oshirish, shuningdek, sodir etgan huquqbuzarliklari uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olish (javobgar bo'lish) qobiliyatidir [11, B. 310-311].

Hech bir omilga bog'liq bo'lmagan holda barcha fuqarolarda bir vaqtning o'zida paydo bo'ladigan huquqiy layoqatdan farqli o'laroq, muomala layoqatining amalga oshirilishi to'lig'icha ba'zi holatlarga bog'liq. Birinchidan, huquqiy munosabatlar subyekti aqli raso bo'lishi, ya'ni o'z qilmishlari qanday oqibatga olib kelishini fahmlashi, xatti-harakatlarini nazorat qilishi lozim; ikkinchidan, balog'at yoshiga yetgan, ya'ni 18 yoshga to'lgan bo'lishi kerak. Huquqiy layoqat insonga butun umri davomida hamroh bo'ladi, muomala layoqati esa ma'lum yoshdan boshlab yuzaga keladi [5, B.12].

Dotsent E.T.Xojiyevning fikricha, huquq layoqati – bu subyekt tomonidan u uchun o'rnatilgan huquqlar, erkinliklardan foydalanish, shuningdek, majburiyatlarni bajarish, vakolatlarni amalga oshirish qobiliyatidir. Muomala layoqati – bu shaxslarning o'z qarorlari va harakatlari (harakatsizligi) bilan huquqlarga ega bo'lishi va amalga oshirishi, o'zlariga va boshqa shaxslarga majburiyatlarni vujudga keltirishi, ularni bajarishi hamda huquq va erkinliklarni ta'minlash qobiliyatiga ega bo'lishidir [7, B. 40-41].

Jinoyat protsessida ko'pgina subyektlar uchun huquqiy layoqat va muomala layoqati o'zaro mos keladi. Ular ayni vaqtning o'zida huquqiy layoqat va muomala layoqatiga ega, ya'ni huquq subyektidir. Subyekt, masalan, ekspert yoki mutaxassis bo'lgani holda, protsessual huquqiy layoqatga ega bo'lib, ayni vaqtda tegishli

muomala layoqatiga ega bo'lmashligi mantiqqa zid holat hisoblanadi [5, B.13].

Bizning fikrimizcha, huquqiy layoqat – bu ma'lum bir huquqiy munosabatlarni amalga oshirishda subyektga berilgan erkinliklar, huquqlardan foydalanish bilan birgalikda, subyektga yuklatilgan vakolatlarni amalga oshirishda majburiyatlar chegarasidan chetga chiqmaslikdir. Muomala layoqati – boshaxslarning o'z xatti-harakatlari (harakatsizligi)ga mustaqil javob bera olishi natijasida yuzaga keladigan huquqlar hamda majburiyatlar tizimidir.

Xulosalar. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, jinoyat protsessida isbot qilish jarayonida ishga jalb qilinishi mumkin bo'lgan shaxslar, avvalambor, muomala layoqatiga ega bo'lishlari zarurligi asosiy ahamiyat kasb etadi. Chunki shaxsning muomala layoqatiga ega bo'lmashligi uning huquqiy munosabatlarga kirisha olmasligini ko'rsatadi. Shuningdek, muomala layoqatiga ega bo'lgan shaxslar bevosita qonunda belgilangan tartibda huquqiy

munosabatlarga kirisha oladi. Bu esa, isbotlash jarayonida mutaxassis sifatida ishga jalb qilinishi mumkin bo'lgan subyektning huquqiy layoqatiga ega bo'lishini anglatadi. O'z navbatida, huquqiy layoqatga ega bo'lgan shaxslar belgilangan tartibda ishga jalb qilinganlaridan so'ng jinoyat protsessida huquqiy maqomga ega bo'ladilar. Jinoyat protsessual jarayonlarda mutaxassis o'zining huquqiy maqomidan foydalanib, o'zi ega bo'lgan maxsus bilimlar doirasida ishga oid dalillarni aniqlash, topish, qayd etish va olib qo'yishda, to'plangan dalillarni tekshirishda, shuningdek, texnika vositalarini qo'llashda ko'maklashish maqsadida belgilangan tartibda ishtirok etishini ko'rishimiz mumkin.

Demak, jinoyat-protsessual munosabatlarda ishga jalb qilingan mutaxassislar bevosita muomala layoqati va huquqiy layoqatga ega bo'lishlari zarur. Mazkur asosiy belgilar bilan birgalikda maxsus bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan shaxslar isbot qilishi jarayonida ishga mutaxassis sifatida jalb qilinishlari lozim.

ADABIYOTLAR

1. Строгович М.С. Избранные труды. Проблемы общей теории права [Selected works. Problems of the general theory of law]. – Т. 1. — М., 1990. S. 257.
2. Кокорев Л.Д. Положение личности в советском уголовном судопроизводстве [The position of the individual in Soviet criminal proceedings]: Автореф. дис...д-ра юрид. наук. — Воронеж, 1974. – С. 7–8.
3. Бекешко С.П. Процессуальное положение обвиняемого в советском уголовном процессе (общая характеристика) [The procedural position of the accused in Soviet criminal proceedings (general characteristics)] // Тезисы докладов на научной конференции юридического факультета БГУ. — Минск, 1966. — С. 120-121.
4. Зеленина О.А. Процессуальный статус участника уголовного судопроизводства: системно-правовой анализ [Tekst] [Procedural status of a participant in criminal proceedings: systemic legal analysis [Text]]: монография. — Екатеринбург, 2014. — С. 23, 25.
5. Правовой статус и правовая регламентация участия специалиста в уголовном процессе: теоретические, процессуальные и организационные аспекты [Legal status and legal regulation of the participation of a specialist in criminal proceedings: theoretical, procedural and organizational aspects]: монография / Э.А.Семенов, В.Ф.Васюков, А.Г.Волеводз; под редакцией А.Г.Волеводза. — Москва: МГИМО-Университет, 2020. — С. 9, 12-13
6. Петрухин И. Л. Свобода личности и уголовно-процессуальное принуждение [Personal freedom and criminal procedural coercion]. – М., 1985. – С. 13.
7. Davlat xizmati: o'quv qo'llanma [State service: study guide] / E. T. Xojiyev, G. S. Ismailova, M. A. Raximova. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi, 2015. – B.40-41, 43-44.
8. Odilqoriyev H.T. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati [Constitution and civil society]. – Т., 2002. – B. 157–163.

9. Кудрявцева А.В. Заключение и показания специалиста как вид доказательств в уголовном процессе России [Conclusion and testimony of a specialist as a type of evidence in criminal proceedings in Russia] // Актуальные проблемы теории и практики уголовного судопроизводства и криминалистики: Сб. статей конф. – М.: Академия управления МВД России, 2004. – С. 55-56.

10. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi [Criminal Procedure Code of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent.1994 yil. 146, 1873, 136-moddalar. B. 98, 103, 137. URL:<https://lex.uz/docs/111460111460>

11. Теория государства и права: учебник [Theory of State and Law: textbook] / pod red. A.S.Mordovsa, V.N. Sinyukova. — М., 2005. — S. 310–311.

Davriy jurnallar

12. В.Ахраров. O‘zbekiston Respublikasida yuridik shaxslar javobgarligining ayrim jihatlari [Some aspects of the responsibility of legal entities in the Republic of Uzbekistan]: Odil sudlov huquqiy, ilmiy-amaliy nashr.-Toshkent,2020. 5-son. B. 35

Internet manbalar

13. Qomus.info.URL:<https://qomus.info/>

14. Shaxsning huquqiy maqomi tushunchasi: tarkibi va turlari.

URL: <http://fayllar.org/>

15. Qarang: Qomus.info onlayn ensiklopediya.

URL:<https://qomus.info/encyclopedia/cat-b/bolish-uz/>

Dissertatsiya yoki avtoreferatlar:

16. Qulmatov Sh.A. Jinoyat-protsessual majburiyatlar va ularni bajarmaganlik uchun javobgarlikning nazariy, huquqiy va amaliy jihatlari [Theoretical, legal and practical aspects of criminal-procedural obligations and liability for their non-fulfilment]: Yurid.fan. dokt.(DSc) ilmiy dar. olish uchun yozilgan dissertatsiya – T., 2019. – B. 25.

17. Kadirova M.X. Jinoyat protsessual mud-datlarni takomillashtirish: zaruriyat va imkoniyat [Improvement of criminal procedural terms: necessity and possibility]: Yurid. fan. nomz. ... dis. avtoref. – T., 2011. – B. 15.

18. Astanov I.R. Jinoyat ishlari bo‘yicha maxsus bilimlardan foydalanishning protsessual va kriminalistik jihatlari [Procedural and criminological aspects of the use of special knowledge in criminal cases]: Yurid.fan. dokt. (DSc) ilmiy dar. olish uchun yozilgan dissertatsiya – T., 2018. B. 75, 77-78.

XALQARO ORGANLARGA MUROJAAT QILISH HUQUQINING XALQARO-HUQUQIY MEXANIZMLARI VA TARTIB-TAOMILLARI

YUNUSOV

*Xaydarali Muratovich,
yuridik fanlar nomzodi,
O'zbekiston xalqaro islom
akademiyasi dotsenti*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola insonning murojaat qilish huquqi masalasiga bag'ishlangan. Unda murojaat qilish huquqining ahamiyati, obyektlari va subyektlari, uni amalga oshirish shakllari, usullari, kafolatlari va tartib-taomillariga oid konstitutsiyaviy holatlar yoritilgan. Shuningdek, muallif tomonidan xalqaro tashkilotlar organlariga murojaat qilishning konstitutsiyaviy asoslari ko'rsatilgan hamda uning O'zbekiston uchun ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: inson huquqlari, konstitutsiya, murojaat qilish huquqi, petitsiya, davlat organi, mansabdor shaxs, ombudsman, kafolat, xalqaro tashkilot, xalqaro organ.

АННОТАЦИЯ

Статья посвящена вопросу о праве на обращение. Описаны значение, объекты и субъекты права на обращение, формы, методы, гарантии и порядок его реализации. Также автор описывает конституционные основы обращения в международные организации и раскрывает их значение для Узбекистана.

Ключевые слова: права человека, Конституция, право на обращение, петиция, государственный орган, должностное лицо, омбудсман, международная организация, международный орган.

ANNOTATION

This article is devoted to the issue of a human right to petition. It describes the importance, objects and subjects of the right to petition, the forms, methods, guarantees and procedures for its realization. Also, the author describes the constitutional basis of applying to the bodies of international organizations and reveals its importance for Uzbekistan.

Key words: human rights, constitution, right of petition, application, state body, official, ombudsman, guarantee, international organization, international body.

Inson huquqlari orasida shunday huquqlar mavjudki, ularning ta'minlanishi har qanday huquqiy tizimning ishlash darajasi va samaradorligini belgilab beradi. Bu kabi huquqlarga misol sifatida murojaat qilish huquqini keltirish mumkin. Mazkur huquq, o'z tabiatiga ko'ra, birinchi avlod huquqlari – siyosiy va fuqarolik huquqlari turkumiga kiradi. Murojaat qilish huquqining o'ziga xos xususiyati shundaki, uning o'zi shaxs va davlat munosabatlarida insonning asosiy huquq va erkinliklarini ifoda etish bilan birga, ayni paytda, insonning boshqa huquqlarini himoya qilish vositasi sifatida ham namoyon bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, murojaat qilish huquqi inson huquqlarini himoya qiluvchi huquqdir.

Murojaat qilish huquqi asosida davlat idoralari va fuqarolik jamiyati tuzilmalarining e'tibori muayyan bir ijtimoiy ahamiyatga molik masalaga qaratiladi yoki shu yo'sinda inson huquqlarining himoyasi talab qilinadi. Murojaatlarni ko'rib chiqish kafolatini ta'minlash maqsadida qonunchilik hujjatlarida muayyan tartib va qonuniy muddatlar belgilangan bo'lib, barcha davlat idoralari va mansabdor shaxslarning ularga rioya etishi majburiydir.

Huquqiy amaliyotda murojaat qilish huquqi ikki xil ma'noga ega: birinchidan, u shaxsning davlat va jamiyat ishlaridagi ishtirokini ifoda etadi. Bunda istalgan shaxs davlat va jamiyat hayotiga oid ma'lum bir taklif va tavsiyani ko'rib chiqish uchun davlat organlariga murojaat qiladi;

ikkinchidan, u qonun tomonidan belgilangan huquq va erkinliklarni himoya qilish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Bu kabi murojaatlar asosida insonlar o'z huquqlarini himoya qilish yoki buzilgan huquqlarini tiklash maqsadida sudlov va nosudlov organlariga yuzlanadilar.

Murojaat qilish huquqi davlat va shaxs o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlaydi hamda insonning asosiy huquq va erkinliklarini himoya qilish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Uning asosida davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati o'rnatiladi.

Inson huquqlari sohasidagi xalqaro standartlarga muvofiq, har bir inson o'z huquqini himoya qilish yoki buzilgan huquqlarini tiklash uchun nafaqat davlat idoralari va mansabdor shaxslarga, balki xalqaro tashkilotlarning organlariga ham murojaat qilish huquqiga ega. Shu maqsadda insonlarning xalqaro organlarga murojaat qilish huquqining universal va mintaqaviy xalqaro-huquqiy mexanizmlari ishlab chiqilgan bo'lib, universal mexanizmlarni BMT va uning ixtisoslashgan muassasalari doirasida qabul qilingan xalqaro huquqiy hujjatlar, ta'sis etilgan institutlar va o'rnatilgan tartib-taomillar tashkil etadi.

Har kimning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro organlarga murojaat qilish huquqi inson huquqlari sohasidagi nufuzli universal tabiatdagi xalqaro hujjatlarda darj qilingan va xalqaro standartga aylangan. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948), Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt va uning I Fakultativ protokoli (1966), Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (1966), Irqiy kamsitishning barcha shakllarini tugatish to'g'risidagi xalqaro konvensiya (1965), Ayollarga nisbatan barcha shakldagi kamsitishlarga barham berish to'g'risidagi konvensiya (1979), Qiynoq hamda muomala va jazolashning shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi konvensiya (1984), Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya (1989), Mehnatkash-migrantlar va ular oilalari a'zolarining huquqlarini himoya qilish bo'yicha konvensiya (1990), Nogironligi bor shaxslarning huquqlari to'g'risidagi konvensiya va uning Fakultativ protokoli (2006), Barcha insonlarni o'z erkiga zid tarzda bedarak yo'qolishdan himoya qilish to'g'risidagi xalqaro konvensiya (2006) shular jumlasidandir.

Mazkur hujjatlarda nafaqat insonlarning murojaat qilish huquqi e'tirof etilgan, balki murojaatlarni ko'rib chiqishning aniq mexanizmlari va tartib-taomillari ham belgilangan. Xususan, 1966-yilda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 28-moddasiga muvofiq 18 kishidan iborat Inson huquqlari bo'yicha qo'mita ta'sis etilgan. Paktning IV qismi (28–45-moddalar) va uning I Fakultativ protokoli mazkur qo'mitaning maqomi, tashkiliy

tuzilmasi, vakolatlari va faoliyatining asosiy qoidalarini bayon qiladi¹. Fakultativ protokolning birinchi moddasiga binoan Paktda ishtirok etuvchi davlatlar Protokol qatnashchilari bo'lib, ular Inson huquqlari bo'yicha qo'mita vakolatini tan oladi². Protokolga muvofiq o'z huquqlari buzilgan hollarda alohida shaxslar, o'z davlatlari ustidan Qo'mitaga murojaat qilishlari mumkin. Qo'mita o'zining yopiq majlislarida alohida shaxslardan hamda manfaatdor davlatlardan kelgan yozma axborotlarni o'rganib chiqib, o'z xulosasini ishlab chiqadi hamda uni alohida shaxslarga va davlatlarga yo'llaydi. Bu sohada qilingan ishlar bo'yicha qisqacha axborot har yili Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash ma'ruzasi orqali Bosh Assambleyaga taqdim etiladi.

Fuqarolik va siyosiy huquqlar bo'yicha xalqaro paktning I Fakultativ protokoli 14 moddadan iborat bo'lib, ularda shikoyatni taqdim etish tartibi (1-3-moddalar), qo'mitaning shikoyatlarni ko'rib chiqishi tartibi (4-5-moddalar), Protokolga qo'shilish (8-modda) yoki uni denonsatsiya qilish tartibi (12-modda), Protokolning kuchga kirishi (9-10-moddalar), unga o'zgartirishlar kiritish tartibi (11-modda), imzolash, ratifikatsiya, denonsatsiya qilish, protokolning kuchga kirishi masalalari bo'yicha BMT Bosh kotibi tomonidan a'zo-davlatlarga xabar berish tartiblari (13-modda) belgilangan.

Inson huquqlari sohasida asosiy konvensiyalarning barchasida murojaat qilish huquqining tartib-taomillari o'rnatilgan. Hozirgi kunda yuqorida nomlari zikr qilingan konvensiyalar doirasida Inson huquqlari bo'yicha qo'mita, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bo'yicha qo'mita, Irqiy kamsitishlarning barcha shakllariga barham berish bo'yicha qo'mita, Ayollarga nisbatan barcha shakldagi kamsitishlarga barham berish bo'yicha qo'mita, Qiynoqlarga qarshi qo'mita, Bola huquqlari bo'yicha qo'mita,

¹ International Covenant on Civil and Political Rights adopted by General Assembly resolution 2200A (XXI) of 16 December 1966: <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/international-covenant-civil-and-political-rights>

² Optional Protocol to the International Covenant on Civil and Political Rights adopted by General Assembly resolution 2200A (XXI) of 16 December 1966: <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/optional-protocol-international-covenant-civil-and-political>

Mehnatkash-migrantlar huquqlarini himoya qilish bo'yicha qo'mita, Nogironligi bor shaxslarning huquqlari bo'yicha qo'mita, O'z erkiga zid tarzda bedarak yo'qolishdan himoya qilish qo'mitasi, Qiynoqlarga qarshi kichik qo'mita insonlarning murojaatlarini ko'rib chiquvchi konvensial organ sifatida faoliyat olib bormoqda.

O'rnatilgan tartib-taomilga ko'ra, inson huquqlari sohasidagi asosiy konvensiyalarga qo'shilgan davlat yurisdiksiyasi ostida bo'lgan shaxs inson huquqlari buzilishlaridan jabr ko'rgan va buzilgan huquqlarni tiklash yuzasidan davlat miqyosida yo'lga qo'yilgan barcha amaldagi vositalardan foydalanib bo'lgan-u, biroq chiqarilgan qarordan qanoat hosil qilmagan bo'lsa yoki davlat organlari tomonidan uning murojaati rad etilgan bo'lsa, vakolatli shartnomaviy qo'mitaga ariza va shikoyat bilan murojaat qilish huquqiga egadir. Qo'mitalar bunday shikoyatlarni yarim-sudlov va maxfiy taomillar doirasida ko'rib chiqib, yakunlovchi, majburiy xarakterda bo'lmagan qarorlar qabul qiladi. Bunday yakunlovchi qarorlar, odatda, "so'nggi fikr, taklif va tavsiya" deb ataladi. Yakunlovchi qarorlarda shikoyatlarning taalluqli emasligi (agarda rasmiy talablarga rioya qilinmagan bo'lsa) yoxud taalluqliligi masalasi, shuningdek, taalluqli bo'lsa, uning mazmuni (shikoyatchining inson huquqlari buzilganligi yoki buzilmaganligi yuzasidan to'xtamga kelish) bo'yicha fikr bildiriladi. Bu fikrlar keyinchalik ommaga oshkor etiladi.

Qo'mitalar orasida o'z erkiga zid tarzda bedarak yo'qolishdan himoya qilish qo'mitasi favqulodda tezkor vakolatga ega. Barcha insonlarni o'z erkiga zid tarzda bedarak yo'qolishdan himoya qilish to'g'risidagi xalqaro konvensiyaning 30-moddasiga binoan Qo'mita yo'qolgan shaxsni zudlik bilan izlash kerakligi haqidagi arizalarni qabul qilish va ko'rib chiqish vakolatiga ega. Zudlik bilan harakat qilish lozimligi to'g'risidagi bunday arizalar konvensiyaning ishtirokchi davlatida inson o'z erkiga zid tarzda bedarak yo'qolgan taqdirdagina qabul qilinadi³.

³ International Convention for the Protection of All Persons from Enforced Disappearance adopted by General Assembly of the United Nations in its resolution 47/133 of 23 December 2010: <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/international-convention-protection-all-persons-enforced>

BMTning shartnomaviy organlaridan tashqari, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining Uchinchi qo'mitasi (Third Committee of the UN General Assembly)⁴ va Bosh Assambleya huzuridagi Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo'yicha kengashi (UN Human Rights Council)⁵ ga ham murojaat qilish tartib-taomillari ishlab chiqilgan.

Ma'lumki, BMT Nizomining 68-moddasida Iqtisodiy va ijtimoiy kengash (The Economic and Social Council (ECOSOC)) vakolati ostida 1946-yilda Inson huquqlari komissiyasi tashkil etilib, u 2006-yilda Inson huquqlari bo'yicha kengash ta'xis etilgunga qadar BMTning inson huquqlari bo'yicha asosiy organi sifatida faoliyat ko'rsatib kelgan edi. Shu bilan birga, ECOSOCning 1970-yil 27-maydagi 1503 (XLVIII)-rezolyutsiyasi asosida mazkur komissiya tomonidan maxfiy tartibda shaxsiy shikoyatlarni ko'rib chiquvchi "1503 taomil"i ham joriy etilgan edi. 2006-yil 15-martda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan BMTning Inson huquqlari bo'yicha komissiyasi o'rniga Inson huquqlari bo'yicha kengashi ta'xis etilgach, ushbu taomil isloh qilindi, biroq o'z ahamiyatini saqlab qoldi.

Inson huquqlari kengashi tomonidan shikoyatlar bo'yicha maxfiy "1503 taomil"ga o'xshash bo'lgan shaxsiy murojaatlarni ko'rib chiqishga oid yangi taomil yaratildi. Ushbu taomil, shuningdek, "dunyodagi har qanday mintaqada va har qanday sharoitda yuz beradigan barcha inson huquqlari va asosiy erkinliklarining yalpi,

⁴ BMT Bosh Assambleyasining 6 ta qo'mitasidan bittasi bo'lib, to'liq nomi "Ijtimoiy, gumanitar va madaniy ishlar qo'mitasi (Social, Humanitarian and Cultural Committee or SOCHUM or C3)". Asosan inson huquqlari, gumanitar va ijtimoiy masalalar bilan shug'ullanadi. Ayollar, bolalar, nogironlar, tub aholi, qochoqlar, yoshlar, keksalar huquqlari, asosiy erkinliklar, adolatli sudlovni ta'minlash sohasida faoliyat ko'rsatadi. Ko'proq ma'lumot uchun qarang: The GA Handbook: A Practical Guide to the United Nations General Assembly (PDF) (2nd ed.). New York: Permanent Mission of Switzerland to the United Nations, 2017.

⁵ BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashi 2006-yil 15-martda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan BMTning Inson huquqlari bo'yicha komissiyasi o'rniga ta'xis etilgan. Kengash BMTning boshqa ixtisoslashgan organlari va Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari ofisi bilan yaqin hamkorlik qiladi.

izchil va ishonchli tarzda tasdiqlangan buzilishi hollarini muhokama qilishga qaratilgan"⁶.

Shu maqsadda ikkita ishchi guruhi – Shikoyatlar bo'yicha ishchi guruh va Vaziyatlar bo'yicha ishchi guruh tashkil etilgan bo'lib, ular yuz berayotgan barcha inson huquqlari va asosiy erkinliklarining yalpi, izchil va ishonchli tarzda tasdiqlangan buzilishi hollariga Inson huquqlari bo'yicha kengashning e'tiborini tortish va tegishli davlatlarga murojaatlarda iddao qilingan mavjud inson huquqlari buzilishlari yuzasidan o'z fikrlarini bildirishlari uchun yetkazadi. Keyinchalik Maslahat qo'mitasi tomonidan tayinlangan beshta ekspertdan iborat bo'lgan Shikoyatlar bo'yicha ishchi guruh murojaatning maqbulligi va tegishliligini baholaydi.

Ishchi guruh murojaatni ko'rib chiqishi va tegishli davlatdan muayyan vaqt mobaynida qo'shimcha ma'lumotlarni taqdim etishni so'rashi, murojaatni ko'rib chiqishni bekor qilishi mumkin yoki murojaatni muhokama qilish vazifasini Vaziyatlar bo'yicha ishchi guruhga taklif qiladi. Shikoyatlar bo'yicha ishchi guruhning ma'ruzasi mustaqil ravishda faoliyat yurituvchi Inson huquqlari bo'yicha kengashning besh nafar a'zosi iborat bo'lgan Vaziyatlar bo'yicha ishchi guruhga taqdim etiladi. Shikoyatlar bo'yicha ishchi guruh tomonidan taqdim etilgan ma'lumot va tavsiyalar asosida Vaziyatlar bo'yicha ishchi guruhning Inson huquqlari bo'yicha kengashga inson huquqlari va asosiy erkinliklarining yalpi, izchil va ishonchli tarzda tasdiqlangan buzilishi holatlari to'g'risida axborot berishi talab etiladi. Axborotga keyingi bosqichda qay tarzda ish yuritish bo'yicha tavsiyalar ham ilova qilinadi. Vaziyatlar bo'yicha ishchi guruh murojaatni ko'rib chiqishda davom etishi, murojaatni kelgusida muhokama qilish yoki bekor qilish (tugatish) uchun Inson huquqlari bo'yicha kengashga yuborish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin. Keyingi bosqichda Inson huquqlari bo'yicha kengash hisobot va tavsiyalar

⁶ Inson huquqlari: Parlament a'zolari uchun qo'llanma. – Toshkent: Baktria press, 2019. – 284 b. – B.83.

asosida quyidagi qarorlarning biriga to‘xtalishi mumkin:

- vaziyatni kelgusida ko‘rib chiqish yoxud u yuzasidan harakat qilish shart bo‘lmagan holatlarda ko‘rib chiqishni to‘xtatish;

- vaziyatni ko‘rib chiqishda davom etish va tegishli davlatdan muayyan vaqt ichida qo‘shimcha ma‘lumot taqdim etishni so‘rash;

- vaziyatni ko‘rib chiqishda davom etish va holat yuzasidan monitoring olib borishi hamda bu borada Inson huquqlari bo‘yicha kengashga hisobot berishi uchun mustaqil va yuqori malakali mutaxassis tayinlash (Komissiyaning 1503 taomili bo‘yicha Liberiya bilan bog‘liq vaziyatda xuddi shunday yo‘l tutilgan);

- ishning ommaviy tarzda ko‘rib chiqilishi maqsadida murojaatni maxfiy ko‘rib chiqish taomili orqali muhokama qilishni davom ettirmaslik (1503 taomili bo‘yicha ko‘rib chiqilganidan keyin 2006-yili Qirg‘iziston bilan bog‘liq bo‘lgan ikki holatda va 2012-yilda Eritreya bilan bog‘liq holatda shunday yo‘l tutilgan);

- BMT Inson huquqlari bo‘yicha Oliy komissari boshqarmasiga tegishli davlatga texnik hamkorlik, salohiyatni oshirish yoki maslahat xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tavsiya berish (masalan, 2011-yil Kongo Demokratik Respublikasi va 2012-yil Iroq bilan bo‘lgan holatlarda shunday yo‘l tutilgan)⁷.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, BMT tizimida murojaatlar bilan ishlashning izchil tizimi yaratilgan. Biroq mazkur tizim sudlov yurisdiksiyasiga ega emas. Shu bois uning natijalari faqatgina siyosiy oqibatlarni keltirib chiqaradi, xolos. Shunga qaramay insonlarning xalqaro organlarga murojaat qilish huquqining universal xalqaro-huquqiy mexanizmlarining inson huquqlarini himoya qilishdagi ahamiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

birinchidan, insonlar o‘z huquqlarini himoya qilish yoki buzilgan huquqlarini tiklash sohasida o‘zlarida yanada ko‘proq ishonch hosil qiladilar, ular oldingidan ham ko‘proq va yaxshiroq himoyalanganligini his qila boshlaydilar. Bunday ishonch ularda har qanday jamiyatda siyosiy tizim va boshqaruv shakli qanday bo‘lishidan qat’i

⁷ Inson huquqlari: Parlament a‘zolari uchun qo‘llanma. – Toshkent: Baktria press, 2019. – 284 b. – B. 84.

nazar, yanada erkin yashash hissini shakllantiradi. U yoki bu sabablarga ko‘ra milliy mexanizmlar tomonidan himoya qilinmagan yoki yetarli darajada qanoatlantirilmagan huquqlarni xalqaro organlar yordamida himoya qilish imkoniyati yuzaga chiqadi, majoziy ma‘noda aytganda “oxirgi umid”ning yangi chegarasi paydo bo‘ladi;

ikkinchidan, har kimning xalqaro organlarga murojaat qilish huquqining amalga tatbiq etilishi milliy davlat boshqaruv organlari mas‘uliyatini yanada oshiradi. Endilikda milliy instansiyalar inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi oxirgi “bekat” emas. Jismoniy va yuridik shaxslarning davlat organlari tomonidan qondirilmagan murojaatlarining xalqaro instansiyalar tomonidan qayta ko‘rib chiqilishi ularning faoliyati samaradorligi hamda mansabdor shaxslarning – shaxsiy, davlat tashkilotlari va o‘zini o‘zi boshqarish organlarining esa – institutsional mas‘uliyatini savol ostiga qo‘yadi. Ular xalqaro organlarning ehtimoliy bosimi ostida o‘z vazifalariga yanada mas‘uliyat bilan yondashishga majbur bo‘ladilar;

uchinchidan, ushbu huquqning joriy etilishi ortidan inson huquqlari sohasida milliy va xalqaro qonunchilikning o‘zaro yaqinlashuvi, milliy va xalqaro mexanizmlarning o‘zaro uzviyligi yuzaga keladi. Natijada, inson huquqlari bo‘yicha asosiy xalqaro shartnomalarga qo‘shilgan davlatning milliy huquq tizimining xalqaro-huquqiy tartibotga yanada integratsiyalashuvi sodir bo‘ladi va alal oqibat, inson huquqlari sohasida yaxlit huquqiy makon shakllanadi. Shu yo‘sinda ishtirokchi-davlat hududida inson huquqlarining “ikki qalqonli” himoya tizimi paydo bo‘ladi. Ularning birinchisi – milliy huquqiy qalqon bo‘lsa, ikkinchisi esa – xalqaro himoya qalqonidir. Inson huquqlarini himoya qilishning milliy va xalqaro mexanizmlari bir-birini o‘zaro to‘ldiradi hamda mustahkam himoya tizimini yaratadi.

Ilg‘or xorijiy tajriba va xalqaro standartlardan kelib chiqib, 2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilinib, 2023-yil 1-mayda kuchga kirgan O‘zbekistonning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida fuqarolarning inson huquqlari sohasidagi xalqaro organlarga murojaat qilish huquqi e‘tirof etildi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 55-moddasiga muvofiq “Har kim O‘zbekiston Respublikasining

qonunchiligiga va xalqaro shartnomalariga muvofiq, agar davlatning huquqiy himoyaga doir barcha ichki vositalaridan foydalanib bo‘lingan bo‘lsa, insonning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro organlarga murojaat etishga haqli”.

Buning ma‘nosi shuki, mamlakatimizda doimiy istiqomat qilayotgan yoki vaqtincha bo‘lib turgan har bir shaxs O‘zbekiston ratifikatsiya qilgan inson huquqlari sohasidagi asosiy shartnomalarda belgilab qo‘yilgan huquq va erkinliklarini himoya qilish yoki buzilgan huquqlarini tiklash

maqsadida xalqaro tashkilotlarning inson huquqlariga ixtisoslashgan organlariga, xususan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining shartnomaviy qo‘mitalariga yoki maxsus protseduralar orqali BMT Bosh Assambleyasining Uchinchi qo‘mitasi (Third Committee of the UN General Assembly) va Bosh Assambleya huzuridagi Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo‘yicha kengashi (UN Human Rights Council)ga ham murojaat qilishi mumkin. Bu, albatta, respublikamizda inson huquqlari himoyasini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. International Covenant on Civil and Political Rights adopted by General Assembly resolution 2200A (XXI) of 16 December 1966: <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/international-covenant-civil-and-political-rights>
2. Optional Protocol to the International Covenant on Civil and Political Rights adopted by General Assembly resolution 2200A (XXI) of 16 December 1966: <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/optional-protocol-international-covenant-civil-and-political>
3. International Convention for the Protection of All Persons from Enforced Disappearance adopted by General Assembly of the United Nations in its resolution 47/133 of 23 December 2010: <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/international-convention-protection-all-persons-enforced>
4. The GA Handbook: A Practical Guide to the United Nations General Assembly (PDF) (2nd ed.). New York: Permanent Mission of Switzerland to the United Nations, 2017.
5. Inson huquqlari: Parlament a‘zolari uchun qo‘llanma. – Toshkent: Baktria press, 2019. – 284 b.
6. Khaydarali Yunusov. (2023). The Constitutional and International-Legal Foundations of the Right to Petition (Case of Uzbekistan). *The American Journal of Political Science Law and Criminology*, 5(06), 20–26. <https://doi.org/10.37547/tajpslc/Volume05Issue06-05>

DAVLAT BILAN JAMIYAT O'RTASIDAGI MULOQOTDA SIYOSIY PR TEXNOLOGIYALARI

BABAYEV

*Tolibjon Abdusalilovich,
O'zbekiston davlat jahon tillari
universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada jamoatchilik bilan aloqalar – PR tizimining mohiyati, shakllari va rivojlanish tendensiyalari ilmiy tahlil etilgan. Davlatning axborot siyosati, boshqaruv organlarining ochiqligi va so'z erkinligini ta'minlash masalalariga e'tibor qaratilgan. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar negizida siyosiy PR va uning ahamiyati borasida ayrim ilmiy xulosalar chiqarilgan.

Kalit so'zlar: jamoatchilik bilan aloqalar, axborot siyosati, xalq bilan muloqot, saylov kampaniyasi, siyosiy texnologiyalar, OAV.

АННОТАЦИЯ

В статье научно анализируются сущность, формы и направления развития системы связей с общественностью – PR. Акцентировано внимание на вопросах государственной информационной политики, открытости органов управления и обеспечении свободы слова. На основе проведенных в Узбекистане реформ сделаны некоторые научные выводы о политическом PR и его значении.

Ключевые слова: связи с общественностью, информационная политика, общение с народом, предвыборная кампания, политические технологии, СМИ.

ANNOTATION

This article scientifically analyzes the essence, forms and directions of development of the system of public relations - PR. Attention is focused on issues of state information policy, openness of government bodies and ensuring freedom of speech. Based on the reforms carried out in Uzbekistan, some scientific conclusions about political PR and its significance have been made.

Key words: public relations, information policy, communication with the people, election campaign, political technologies, mass media.

Jamoatchilik bilan aloqalar tizimi – ko'pchilik holatda PR deb yuritiladigan soha bugungi ijtimoiy hayotimizning ajralmas qismiga aylanib bormoqda.

PR siyosat maydonidagi nomzodlarga juda kerakli ma'lumotlarni olishda yordam beradi. Siyosiy boshqaruvda rahbar doimo katta hajmdagi axborotlarni qabul qilishga ehtiyoj sezadi. Ayrim manbalarda keltirilishicha, bu kabi vaziyatlarda ma'lumot olishda PR taktikalaridan foydalanishdan ko'ra samaraliroq vosita mavjud emas. Siyosiy tashkilot foydalanadigan jamoatchilik bilan aloqalar guruhi konferensiyalar, siyosiy munozaralar va tegishli tashkiliy konvensiyalarni tashkil etish bo'yicha mutaxassis hisoblanadi[1].

Agar siz siyosiy nomzod bo'lsangiz, chiqishlaringizda foydalanadigan nutqlaringizni yozadigan mutaxassis kerak bo'ladi, albatta. Bundan tashqari, tegishli manbalar bilan yetarli darajada ishlay oladigan ommaviy axborot vositalari xodimi ham zarur bo'lib, bularning barchasi kerakli ma'lumotni olish uchun juda muhimdir.

Siyosatda PRni faqat brend yoki taniqli insonlarning jamoatchilikka ko'rinish berishi bilangina izohlash noto'g'ri. Jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha mutaxassislar o'ziga xos malaka va ko'nikmalarga ega, doimiy ravishda ijtimoiy-siyosiy jarayonlardan xabardor va ijtimoiy mas'uliyatli kasb hisoblanadi. Aks holda ular o'zlari vakillik qilayotgan korxonaga yoki tashkilotni (yoki siyosiy yetakchini) noqulay ahvolga solib qo'yishlari mumkin. Dunyo tajribasidan ma'lumki, agar siyosiy boshqaruv subyekti inqirozga uchragan bo'lsa, eng to'g'ri yo'l bu samarali PR taktikasidan foydalanishdir.

PR taktikasi, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda samarali ishlaydi. Ijtimoiy tarmoqlar siyosiy partiya yoki lider bilan muloqot va suhbatlar yaratish uchun ideal vositadir. Siyosiy partiya o'z memorandumlari va matbuot bayonotlarini YouTube kabi platformalarda to'g'ridan-to'g'ri e'fira uzatishi mumkin. Lekin haddan

tashqari ko'p media ma'lumotlarini ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatish o'zining aks ta'sirini ko'rsatishi ham mumkin[2]. Nomzod yoki partiya tashkiloti uchun ishlaydigan jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha mutaxassislar ijtimoiy media platformalarida nashr etilgan kontentlarni diqqat bilan kuzatib borishlari va tegishli paytda munosib javob berishi talab etiladi.

Siyosatda PRning maqsadi jamiyatdagi boshqa kichik tizimlarga nisbatan funksiyalar, mavzular va dasturlarni taqdim etishdir. Aslida, bu e'tibor va qiziqishni jalb qilish, shuningdek, o'z pozitsiyalari, manfaatlari va asosiy o'yinchilarining xabardorlik darajasini va tasvir profilini oshirishni o'z ichiga oladi. Siyosatda PR axborotni yetkazish va siyosiy fikrni shakllantirish uchun ishlatiladi. PR mutaxassislari asosiy maqsadli guruhlar bilan o'zaro tushunish va manfaatlar kelishuvi uchun qulay muhit yaratish hamda targ'ib qilish uchun doimiy muloqot qilishlari lozim.

So'nggi yillarda **O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar negizida mazkur sohaga ham e'tibor oshib bormoqda. Mamlakatimizda siyosiy boshqaruv jarayonlarida jamoatchilik bilan aloqalarning rivojlanish istiqbollari yuksalmoqda.**

Aytish joizki, O'zbekistonda jamoatchilik bilan aloqalarni yo'lga qo'yish va shu maqsadda tashkilotlarda axborot xizmatlarini tashkil etishda dastlab O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 22-sentabrda qabul qilingan **“Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining jamoatchilik bilan aloqalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”**gi 203-son qarori muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilgandi. Qarorda “Vazirliklar, davlat qo'mitalari, agentliklar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, xo'jalik boshqaruvi organlari (keyingi o'rinlarida idoralar deb yuritiladi) tarkibida xodimlarning umumiy soni doirasida axborot xizmatlari tashkil etilishi” belgilab qo'yilgan.

Shuningdek, unda axborot xizmatlarining asosiy vazifalaridan biri sifatida idora rahbariyati tomonidan belgilanadigan axborot siyosatini shakllantirish va amalga oshirishda, milliy va xorijiy ommaviy axborot vositalarida idora faoliyatining dolzarb jihatlarini, tegishli sohadagi

yagona davlat siyosatini amalga oshirish masalalarini yoritish shuningdek, idora faoliyatiga nisbatan ijtimoiy fikrning ahvolini hamda milliy va xorijiy ommaviy axborot vositalari pozitsiyasini tahlil qilish va ular to‘g‘risida idora rahbariyatini xabardor qilish belgilangan edi.

Ushbu qarorning qabul qilinishi mohiyatan siyosiy boshqaruvning yangi bosqichga ko‘tarilganini, ya‘ni boshqaruvda samarali muloqotni shakllantirish, axborot maydonini tahlil qilib borish orqali ijobiy imijni yaratishga hukumat darajasida e‘tibor berila boshlanganini anglatadi.

O‘tgan yillar mobaynida mazkur qarorda belgilangan qator vazifalar ijrosi ta‘minlandi. Chunonchi, barcha vazirlik, tashkilot, muassasa va boshqa idoralarda axborot xizmatlari tashkil etildi va ular faoliyati yo‘lga qo‘yildi, internet tarmog‘ida veb-resurslari tashkil etildi. Shu tariqa bugungi kunga qadar axborot xizmatlari muayyan vazifalarni amalga oshirib kelayotir. Biror huquqiy asosga ega bo‘lmasdan bunday muhim vazifalarni amalga oshirish mushkul edi, albatta. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 15-fevral kuni e‘lon qilingan **“O‘zbekiston Respublikasi davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining axborot xizmatlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi 125-sonli qarori sohani yanada takomillashtirishda muhim qadam bo‘ldi. Qaror bilan “Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining axborot xizmati to‘g‘risida”gi nizom ham tasdiqlandi[3].

2019-yil 28-iyunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta‘minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-4366-son qarori qabul qilindi. Shuningdek, axborot xizmatlari tomonida OAV vakillari bilan, shu jumladan, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining rahbarlari ishtirokida muntazam ravishda (bir oyda kamida bir marta) matbuot anjumanlari, brifinglar o‘tkazilishini hamda ommaviy axborot vositalari va jamoatchilik bilan ishlashning boshqa zamonaviy shakllarini amaliyotga joriy etish majburiy etib belgilandi.

Tanqidiy mazmundagi chiqishlarga tezkorlik bilan davlat organlari va tashkilotlari, mahalliy

davlat hokimiyati organlari axborot xizmatlari rasmiy axborot resurslari orqali munosabat bildirib borishi mexanizmi yo‘lga qo‘yildi. Buning natijasida tanqidiy materiallarga tashkilotlar tomonidan rasmiy munosabat bildirish holati respublika miqyosida 10–15 foizdan qariyb 70–80 foizga yaqinlashdi.

Siyosiy PR haqida gapirganda shuni ta‘kidlash lozimki, noto‘g‘ri so‘z tanlash, axloqiy tuzoqlar, muhim ma‘lumotlarning sizib chiqishi – barchasi siyosiy PR bilan bevosita bog‘liq holatlardir.

Bular butun dunyodagi siyosatchilar doimo diqqat markazida. Har hafta agentliklar va PR menejerlari o‘zlarining so‘nggi loyihalari, kampaniyalari va tashabbuslari haqida barcha kerakli ma‘lumotlarni yetkazish uchun o‘z mijozlari nomidan press-relizlar tayyorlaydilar hamda jamiyatni xabardor qilib borishadi. Jamoatchilik bilan aloqalar siyosiy hayotning muhim qismidir. PR menejerlarining vazifasi axborotni nazorat qilish va biror narsa nazoratdan chiqib ketishi bilan tezda javob berishdir. Aynan ular ijobiy e‘tiborni uyg‘otadi va siyosatchilarning imijiga g‘amxo‘rlik qiladi.

Nima uchun PR siyosatda muhim? Siyosatda jamoatchilik bilan aloqalar siyosatchilar tomonidan jamoatchilik bilan o‘zaro manfaatli munosabatlar o‘rnatish uchun foydalaniladigan **strategik aloqa jarayonidir**. Insonlar siyosatdagi jamoatchilik bilan aloqalarni sodda ko‘rishga moyil bo‘lib, u faqat yangiliklarni boshqarish va ommaviy axborot vositalari bilan aloqalarni o‘z ichiga oladi, deb hisoblaydi. Shunga qaramay, bu yondashuv inqirozli muloqot, ko‘ngillilar bilan aloqalar, muammolarni boshqarish va mablag‘ yig‘ish kabi boshqa muhim sohalarni ham qamrab oladi[4].

Biroq, aniqlik uchun, nega PR siyosatchilar faoliyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi, degan savolga – PR hayotiy ta‘sir ko‘rsatishga yordam beradi va ijobiy imij yaratishda bir lamchi vositadir, deya javob berish mumkin. Siyosatchilar o‘zlarining imiji ustida doimo ishlashga majbur. Jamoatchilik ularni qanday qabul qilishi bo‘lajak saylovlar natijalariga ta‘sir qilishi mumkin. Shuning uchun ular doimo o‘zlarining eng yaxshi tomonlarini ko‘rsatishga va omma e‘tiborida qolishga harakat qilishadi.

Turli konferensiyalar, siyosiy munozaralar va boshqa tegishli tadbirlarni tashkil etish siyo-

siy tashkilotlar tomonidan yollangan PR guruhi-ning zimmasida bo'ladi. Ular ogohlugini oshirish uchun siyosatchi qatnashishi mumkin bo'lgan imkoniyatlar va tadbirlarni izlaydilar. Kerakli (ijobiy) ta'sirga erishish qiyin bo'lishi mumkin, albatta. Agar siz siyosiy nomzod bo'lsangiz, masalan, sizning kampaniyangiz uchun nutqlar yozish uchun kimdir kerak. Barcha tinglovchilar uni to'g'ri tushinishlari uchun xabaringizni yetkazishda ommaviy axborot vositalari va malakali notiqalar bilan yaxshi munosabatda bo'lish juda muhim.

PR menejeri bo'lish oson emas, bunda kuchli, barqaror va ehtiyotkor bo'lish talab etiladi. Agar ular yo'q bo'lsa, partiya yoki shaxs faqatgina nomaqbul reklamaga ega bo'lib qolishi mumkin.

PR siyosiy inqirozni yengillashtirishga yordam beradi. Siyosatchilar doimo e'tibor markazida bo'lganligi sababli, ular ko'proq tushkunlikka va kutilmagan inqirozlarga moyildir. Ushbu yuqori xavfqa qo'shimcha ravishda, ular har doim bir-oz axloqsizlik va qarama-qarshilikka ham tushub qolishlari mumkin. Bunday holatda siyosatchilar doimo pulsni ushlab turishlari va *"har qanday yong'inni zarar yetkazishdan oldin o'chirishlari zarur"*.

Siyosiy jamoatchilik bilan aloqalar va umuman siyosiy PR sohasi bir qancha muhim yo'nalishlardan iborat bo'ladi. Jumladan:

Yangiliklarni boshqarish. Aksariyat shaxslar PRning yangiliklarni boshqarish va OAV bilan aloqalaridagi ta'siridan xabardor. Ular biladiki, samarali siyosiy jamoatchilik aloqalari maxsus matbuot anjumanlarini o'tkazish yoki press-revizlar yaratish orqali muhim mavzularni yoritish uchun jurnalistlar va axborot manbalarini jalb qilishni o'z ichiga oladi. Ammo, odatda, ko'pchilik, ehtimol, PR boshqaruvi shu bilan tugaydi, deb hisoblashadi. Aslida PR sohasi butun bir siyosiy jarayonlarning boshlanishidan toki uning jamiyatda samarali tatbiq etilishigacha bo'lgan yo'lni qamrab olgani holda, turli xil instrument va mexanizmlarni qo'llaydi[5].

Muammolarni boshqarish. Muammolarni boshqarish siyosiy PRning yana bir muhim sohasidir. Bu siyosatchilar va ularning partiyalari muhim masalalarni qanday aniqlashi,

ustuvorlik qilish, ishlab chiqish va yetkazishni o'z ichiga oladi. PR-menejerlar ushbu asosiy sohalarni turli xil vositalardan foydalangan holda kuzatib boradilar, masalan, pozitsiyalar, platforma bayonotlari, nutqlar, bahslar va boshqalar.

Tadbirlarni boshqarish. Jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha menejerlar siyosatchilarning ta'sirini qo'llab-quvvatlaydigan siyosiy voqealarga ko'p vaqt va kuch sarflaydilar. Ular partiya konvensiyalari, onlayn vebinarlar va uchrashuvlar, pul yig'ish kechki ovqat yoki shahar hokimiyati yig'ilishlari kabi tadbirlarni rejalashtirish, boshqarish va amalga oshirish uchun javobgardir.

Baholashni boshqarish. PR faoliyati natijalarini o'lchash mumkinmi? Aynan buni amalga oshirish uchun bir nechta firma, shaxslar va guruhlar turli modellar, jadvallar va hisob-kitoblarni ishlab chiqadilar. Biroq, PR harakatlarida ularning muvaffaqiyatini o'lchash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan aniq analitik ko'rsatkichlar yo'q, shuning uchun ular shunchaki taxminlardir. Shunga qaramay, baholashni boshqarish jarayoni zarur[6]. Ushbu ish siyosatchilarning maqsadlariga erishish uchun PR faoliyati muhimligini ko'rsatadi va yaxshilash uchun yo'nalishlarni aniqlashga yordam beradi.

O'zbekistonda "Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyili asosida olib borilayotgan yangilanishlar sharoitida:

davlat hokimiyati, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining boshqaruv kadrlari salohiyatini baholashning yangi usullarini joriy qilish;

boshqaruv kadrlari zaxirasini shakllantirish tizimini takomillashtirish;

boshqaruv kadrlarini tanlash, tayinlash va lavozimini o'zgartirishda subyektiv omillarni keskin qisqartirish;

boshqaruv kadrlarini "Assessment-centre" uslubi asosida baholash amaliyotini joriy qilish;

davlat hokimiyati, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining boshqaruv kadrlarining innovatsion menejment yo'nalishida malakasini oshirish[7] kabi islohotlar negizida davlatning xalq bilan muloqoti, jamoat institutlarining hukumat organlari bilan ijtimoiy hamkorligi va albatta samarali jamoatchilik aloqalari (PR) tizimini yaratish masalalari diqqat markazida turadi.

ADABIYOTLAR

1. Воробьев Ю.Л., Говорина К.В., Доскальчук А.В. Проблемы политической коммуникации // Знание. Понимание. Умение. 2007. № 3. – С. 125.
2. Чумиков А.Н. Имидж – репутация – бренд: традиционные подходы и новые технологии: сборник статей. Москва, Берлин: Изд-во “Директ-Медиа”, 2015. – С. 17.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 15-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining axborot xizmatlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 125-sonli qarori // <https://lex.uz/uz/docs/-3561681>
4. Political PR: Strategies and Tools for Political & Election Campaigns // <https://medium.com/prowly/political-pr-strategies-and-tools-for-political-election-campaigns-2a0c997e7fe5>
5. Шейнов В.П. Пиар “белый” и “черный”: Технология скрытого управления людьми. Москва: Изд-во “АСТ”, 2001. – С. 200-201.
6. Trust Barometer Global Results | 2018 Edelman Trust Barometer // [http://cms.edelman.com/sites/default/files/2018-02/2018 Edelman_Trust_Barometer_Global_Report_FEB.pdf](http://cms.edelman.com/sites/default/files/2018-02/2018%20Edelman_Trust_Barometer_Global_Report_FEB.pdf)
7. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi // https://nrm.uz/contentf?doc=530377-2017-2021-yillarda_o%20%80%98zbekiston_respublikasini_rivojlantirishning_beshta_ustuvor_yo%20%80%98nalishi

SIYOSIY MANIPULYATSIYANING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI

QOLQANOV

*Nuriddin Tashpulatovich,
siyosiy fanlar bo'yicha
falsafa doktori, dotsent*

ESANOVA

*Kamola Ilxomjon qizi,
O'zbekiston xalqaro islom
akademiyasi talabasi*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada axborot tarqatishda inson ongini boshqarish va ongiga ta'sir qiluvchi siyosiy texnologiyalardan biri – manipulyatsiya haqida so'z boradi. Bugungi globallashuv sharoitida qabul qilinayotgan axborot kim tomonidan va nima maqsadda tarqatilayotgani masalasi siyosiy manipulyatsiyalarning asosi ekanligi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: axborot, manipulyatsiya, siyosiy manipulyatsiya, siyosiy boshqaruv, siyosiy madaniyat, siyosiy xulq-atvor, siyosiy ong, qadriyatlar, ta'sir o'tkazish, fikrni boshqarish, jamoatchilik ongiga ta'sir qilish.

АННОТАЦИЯ

В статье говорится о манипуляции, одной из политических технологий воздействия на сознание и контроля над сознанием человека при распространении информации. В современных условиях глобализации вопрос о том, кто и с какой целью получает информацию, оказывается основой политических манипуляций.

Ключевые слова: информация, манипуляция, политическая манипуляция, политический менеджмент, политическая культура, политическое поведение, политическое сознание, ценности, влияние, управление мнением, влияние на общественное сознание.

ANNOTATION

In today's globalization, information is as important to us as water and air. We live in a time where it is difficult to imagine our life without information. But it is extremely important to know by whom and for what purpose the received information is distributed. This article talks about manipulation, one of the political technologies that influence the mind and control of the human mind in the dissemination of information.

Key words: information, manipulation, political manipulation, political management, political culture, political behavior, political consciousness, values, influence, opinion management, influence on public consciousness.

Bugungi kunda siyosiy boshqaruv muammosi eng muhim masalalardan biridir. Shu sababli samarali va zamonaviy jamiyatning o'ziga xos xususiyatlariga mos keladigan standartlar va institutlarni yaratishga ehtiyoj bor. Ijtimoiy-siyosiy boshqaruv shakllaridan biri jamiyat ongini siyosiy manipulyatsiya qilishdir. Jamiyatning siyosiy tizimini modernizatsiya qilish boshqaruv va manipulyatsiya jarayonlarida tegishli o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Siyosiy ong va xulq-atvorga ta'sir ijtimoiy taraqqiyotning an'anaviy, zamonaviy va postmodern deb ataladigan bosqichlarida har xil bo'ladi. Siyosiy madaniyatning tarkibiy qismi bo'lgan siyosiy ong tarkibida qadriyat-dunyoqarash komponenti eng muhimlaridan biridir. Qadriyatlar siyosiy xulq-atvorning motivatsion asosini tashkil qiladi. Ta'kidlanishicha, qadriyatlar bashorat qilingan yo'nalishda o'zgaradi va siyosiy manipulyatsiya jamoat ongining qiymat yo'nalishlariga ta'sir qilishi mumkin. Siyosiy manipulyatsiya muammosining ilmiy rivojlanish holatini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, siyosiy ongning muhim tarkibiy qismi sifatida qadriyat-dunyoqarash komponenti kam o'rganilgan.

Manipulyatsiya – bu o'z manfaati yo'lida boshqalardan foydalanish, ularni boshqarish orqali ularga ta'sir ko'rsatish¹. Manipulyatsiya deganda jamoatchilik fikriga ta'sir o'tkazish, hokimiyatni qo'lga kiritish yoki muayyan siyosiy maqsadlarga erishish uchun xilma-xil taktikalardan foydalanish tushuniladi. Bu ma'lumot tarqatish, tashviqotdan foydalanish yoki odamlarning fikri va harakatlarini o'zgartirish uchun psixologik manipulyatsiyaning boshqa shakllarini o'z ichiga olishi mumkin. Bu, shuningdek, siyosiy manfaatlar uchun odamlarning qo'rquvi, noto'g'ri qarashlari yoki zaifliklaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Siyosiy manipulyatsiya demokratiyaga putur yetkazishi, ijtimoiy bo'linish va tartibsizliklarga olib kelishi mumkin bo'lgan jiddiy muammodir.

Manipulyatsiya siyosiy hamda kommuni-

katsion texnologiya sifatida o'z mavqeyi va o'rniga ega bo'lib bormoqda. Ayni paytda kimningdir manfaatini himoya qilmaydigan, auditoriyani u yoki bu faoliyatga (yoki faoliyatsizlikka) undamaydigan jurnalistni topish juda qiyin. Axborot olish va tarqatish imkoniyatlari kengaygan, raqobat kuchaygan bir sharoitda buni tabiiy hol deb qabul qilish kerak. Axborot siyosiy hayotning ajralmas bo'lagiga aylanib bo'ldi va u "davlat faoliyatida boshqaruvchilik kuchini sezilarli darajada namoyon qiladi. Bunda axborot ham demokratik hokimiyat manbayi, ham siyosiy tizim va jarayonlarni boshqarish omili bo'lib maydonga chiqadi"².

Shaxslararo manipulyatsiyalardan farqli o'laroq, siyosiy manipulyatsiyalar shaxsiy emas va keng ommaga ta'sir qilishni o'z ichiga oladi. O'zlikning (hatto bir shaxsning) yashirin shakldagi irodasi ko'pchilikka yuklanadi. Siyosiy manipulyatsiyaning asosiy vositalaridan biri tashviqotdir. Siyosiy manipulyatsiya texnologiyasi quyidagi fikrlarni o'z ichiga oladi:

a) onga yashirin, ammo ma'lum guruhlar uchun kerakli mazmundagi obyektiv ma'lumotlar niqobi ostida kiritish;

b) qo'rquv, tashvish, nafrat va boshqalarni qo'zg'atadigan jamoatchilik ongining og'riqli nuqtalariga ta'sir qilish;

c) muayyan rejalar va yashirin maqsadlarni amalga oshirish yoki ularga erishishda kommunikant o'z pozitsiyasini jamoatchilik fikrini qo'llab-quvvatlash bilan bog'laydi.

Umuman olganda, zamonaviy jamiyatni tartibga solish va integratsiyalashuv siyosiy hokimiyatning eng muhim funksiyalari bo'lib, ularning bajarilishi siyosiy organlarning siyosiy qarorlarni tasdiqlash va amalga oshirish uchun ommaning ongi va psixologiyasiga ta'sir qilish qobiliyatiga bog'liq. Bu esa fuqarolar ongi va psixologiyasining asosiy shakllari va darajalarini o'rganish, bilish asosida ommaviy onga g'oyaviy-psixologik ta'sir ko'rsatishni doimiy ravishda takomillashtirishni taqozo etadi.

Demak, manipulyatsiya deganda ijtimoiy psixologiyaga, inson ongi va instinktlariga maqsadli ta'sir ko'rsatish orqali xatti-harakatlarini boshqaradigan psixologik ta'sir turini tushunish mumkin.

² Karimov F. "Demokratiya va milliy axborot tizimi"/ "Tafakkur", 2010 yil, 2-son. – B.71.

¹ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Manipulyatsiya>

Manipulyatsiya qilingan shaxsning shakllanishini belgilovchi yana bir muhim omil mavjud – bu so'nggi asrlarga kelib jadal rivojlangan texnik taraqqiyot natijasida yuzaga kelgan yashash sharoitining yengillashganligi hisoblanadi. "Badavlat jamiyat" barcha odamlarga "xavfsiz" hayotni kafolatlaydi, lekin bu omil odamlarning "dangasa"likka moyilligini orttiradi. Odamlar mas'uliyat va tashabbusni yo'qotib, hukumat tomonidan in'om etilgan imtiyozlardan bahramand bo'lib yashaydilar. Bu jamiyatda farovonlik asosiy maqsadga aylanadi.

Manipulyatsiya uchun keng asoslar ommaviy ongda tanish, an'anaviy va g'ayrioddiy innovatsiyalarning kombinatsiyasi bilan ta'minlanadi. Shu tufayli ham an'analar, urf-odatlar, odatlarga murojaat qilish siyosiy hokimiyat barqarorligini saqlashga yordam beradi. Masalan, sobiq Sovet Ittifoqida hukumat kapitalizmning muqarrar yemirilishi va kommunistik mukammal, ideal jamiyat sifatida g'alaba qozonishi, xususiy mulk ijtimoiy yovuzlik manbai sifatida ko'rilishi yoki ishchilar sinfining yetakchi roli haqidagi afsonalardan keng foydalangan.

Siyosiy manipulyatsiya uchun odatda qo'llaniladigan bir nechta texnologiya va taktikalar mavjud:

1. Ijtimoiy media manipulyatsiyasi: siyosiy aktyorlar ko'pincha ijtimoiy media platformalaridan noto'g'ri ma'lumot tarqatish, jamoatchilik fikrini manipulyatsiya qilish va moslashtirilgan xabarlar bilan odamlarning muayyan guruhlarini nishonga olish uchun foydalanadilar. Bu soxta akkauntlar yaratish, ma'lum xabarlarni kuchaytirish uchun botlardan foydalanish va muvofiqlashtirilgan dezinformatsion kampaniyalarda qatnashishni o'z ichiga olishi mumkin.

2. Ma'lumotning manbasi va maqsadni aniqlash: siyosiy kampaniyalar va tashkilotlar odamlarning afzalliklari, xatti-harakatlari va e'tiqodlari haqida ma'lumot to'plash uchun ma'lumotlarni yig'ish usullaridan foydalanadilar. Keyinchalik bu ma'lumotlar saylovchilarning muayyan guruhlariga ularning fikri va xatti-harakatiga ta'sir qilish uchun mo'ljallangan shaxsiylashtirilgan xabarlar va reklamalar bilan nishonga olish uchun ishlatiladi.

3. Mikrotargeting – bu aholini demografik,

qiziqishlari va xatti-harakatlariga qarab kichik, aniq guruhlariga bo'lish uchun ishlatiladigan usul. Siyosiy ishtirokchilar o'z harakatlarining ta'sirini maksimal darajada oshirish uchun o'zlarining xabar almashish va muloqot strategiyalarini har bir guruhga moslashtirishlari mumkin.

4. Psixografik profillash – ularning munosabati va xatti-harakatlarini yaxshiroq tushunish uchun shaxslarning shaxsiy xususiyatlari, qadriyatlar va motivlarini tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Ushbu ma'lumotlardan aholining muayyan qatlamlari bilan rezonanslashadigan maqsadli xabarlarni yaratish uchun foydalanish mumkin.

5. Dipfeyk texnologiyasi – yolg'on ma'lumotlarni tarqatish yoki jamoatchilik fikrini manipulyatsiya qilish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan juda realistik soxta videolar yoki audioyozuvlarni yaratish imkonini beradi. Siyosiy aktyorlar opponentlarini obro'sizlantirish, noto'g'ri ma'lumot tarqatish yoki jamoatchilik o'rtasida chalkashlik yaratish uchun diffeykdan foydalanishi mumkin.

6. Targ'ibot texnikasi: takrorlash, emotsional murojaatlar va qo'rquvni uyg'otish kabi targ'ibot usullari odatda siyosiy manipulyatsiyada jamoatchilik fikrini shakllantirish va qaror qabul qilishga ta'sir etish uchun qo'llaniladi. Muammolarni ma'lum bir shaklda shakllantirish va hikoyani nazorat qilish orqali siyosiy aktyorlar jamoatchilik fikrini o'z foydasiga aylantirishi mumkin.

Umuman olganda, siyosiy manipulyatsiya texnologiyalari doimiy ravishda rivojlanib va murakkablashib bormoqda, bu esa raqamli asrda ushbu taktikalarni aniqlash va ularga qarshi kurashishni tobora qiyinlashtirmoqda.

Raqamli asrda texnologiya va ijtimoiy media platformalaridan keng foydalanish tufayli manipulyatsiya muhim muammoga aylandi. Raqamli asrda manipulyatsiya namoyon bo'lishining ba'zi usullari:

1. Noto'g'ri ma'lumot va dezinformatsiya: raqamli makon noto'g'ri yoki chalg'ituvchi ma'lumotlarning tez tarqalishiga imkon beradi, ulardan jamoatchilik fikrini manipulyatsiya qilish, saylovlarga ta'sir qilish yoki chalkashliklarni yaratish uchun foydalanish mumkin. Bu demokratiya va ommaviy nutq uchun jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

2. Maqsadli reklama va mikro-targeting:

raqamli platformalar foydalanuvchilar haqida katta hajmdagi ma'lumotlarni to'playdi, bu esa reklama beruvchilarga va siyosiy kampaniyalarga ularning afzalliklari va e'tiqodlariga moslashtirilgan maxsus xabarlar bilan shaxslarni nishonga olish imkonini beradi. Bu odamlarning fikri va xulq-atvorini o'zlari bilmagan holda manipulyatsiya qilish uchun ishlatilishi mumkin.

3. Soxta hisoblar va botlar: avtomatlashtirilgan hisoblar yoki botlardan ma'lum xabarlarni kuchaytirish, tendentsiyalarni manipulyatsiya qilish yoki dezinformatsiyani tarqatish uchun foydalanish mumkin. Ushbu soxta hisoblar ma'lum bir sabab yoki nomzod uchun keng tarqalgan qo'llab-quvvatlash yoki muxolifat xayolotini yaratishi mumkin.

4. Psixologik manipulyatsiya: raqamli platformalar foydalanuvchi xatti-harakati va qaror qabul qilishiga ta'sir qilish uchun ishonarli dizayn yoki xatti-harakatni o'zgartirish kabi psixologik usullardan foydalanishi mumkin. Bu xatti-harakatlar ijobiy o'zgarishini rag'batlantirish kabi axloqiy maqsadlarda yoki zaifliklardan foyda yoki siyosiy manfaatlar uchun foydalanish kabi g'ayrioddiy maqsadlarda ishlatilishi mumkin.

Shaxslar raqamli asrda manipulyatsiyaning ushbu shakllaridan xabardor bo'lishlari va onlayn duch keladigan ma'lumotlarni tanqidiy baholashlari muhimdir. Mediasavodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish, faktlarni tekshirish manbalari va turli nuqtai nazarlarni izlash manipulyatsiyadan saqlanishga yordam beradi hamda yanada xabardorlik va demokratik jamiyatni ta'minlaydi. Bundan tashqari, siyosatchilar va texnologiya kompaniyalari ushbu muammolarni tartibga solish, shaffoflik va axloqiy dizayn amaliyotlari orqali hal qilishlari kerak.

Manipulyatsiya turli shakllarda bo'lishi va qo'llaniladigan usullar va strategiyalarga qarab turli turlarga bo'linishi mumkin. Mana, bir necha keng tarqalgan manipulyatsiya turlari:

1. Hissiy manipulyatsiya: manipulyatsiyaning bu turi kimningdir his-tuyg'ulari yoki zaifliklaridan uning xatti-harakatlarini boshqarish yoki ta'sir qilish uchun foydalanishni o'z ichiga oladi.

2. Gazlayting³ – manipulyatsiyaning bir

³ Gazlayting – bu so'zlashuv tili bo'lib, u kimnidir o'z voqelikni idrok etishiga shubha qilish uchun manipulyatsiya qilish deb tushuniladi.

shakli bo'lib, manipulyator jabrlanuvchi o'z his-tuyg'ulari, xotiralari yoki aql-idrokiga shubha qilishga undaydi. Ular faktlarni inkor etishi, voqelikni buzib ko'rsatishi yoki jabrlanuvchining his-tuyg'ularini kuch va nazoratga olish uchun bekor qilishi mumkin.

3. Ishontiruvchi manipulyatsiya – kimningdir e'tiqodiga, qaroriga yoki harakatlariga ta'sir qilish uchun mantiqiy xatoliklar, hissiy murojaatlar yoki aldatchi taktikalar kabi ishontirish usullaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Buni reklama, savdo taktikasi yoki siyosiy tashviqotda ko'rish mumkin.

4. Yashirin manipulyatsiya – nozik va ko'pincha jabrlanuvchining e'tiboridan chetda qoladi. Bu passiv-tajovuzkor xatti-harakatlar, nozik belgilar yoki yashirin kun tartibi kabi bilvosita vositalar orqali kimnidir manipulyatsiya qilishni o'z ichiga oladi.

5. Ijtimoiy manipulyatsiya – istalgan natijaga erishish uchun ijtimoiy dinamikani yoki munosabatlarni manipulyatsiya qilishni o'z ichiga oladi. Bunga mish-mishlarni tarqatish, g'iybat qilish, ittifoq tuzish yoki boshqalarga ta'sir qilish uchun ijtimoiy bosimdan foydalanish kiradi.

6. Moliyaviy manipulyatsiya – kimningdir xatti-harakatlarini nazorat qilish yoki ta'sir qilish uchun pul yoki moliyaviy resurslardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Bunga moliyaviy suiiste'mollik, ekspluatatsiya, firibgarlik yoki moliyaviy foyda olish uchun majburlash kiradi.

7. Axborot manipulyatsiyasi – boshqalarni chalg'itish, aldash yoki manipulyatsiya qilish uchun axborotni boshqarish yoki buzib ko'rsatishni o'z ichiga oladi. Bunga noto'g'ri ma'lumot tarqatish, tashviqot, soxta yangiliklar yoki tushunchalar yoki fikrlarni shakllantirish uchun ma'lumotlarni tanlab taqdim etish kiradi.

Ushbu turdagi manipulyatsiyalardan xabardor bo'lish va manipulyatsiya qachon sodir bo'layotganini tan olish uchun tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish muhimdir. Chegaralarni belgilash, ishonchli muloqot qilish, ishonchli odamlardan yordam so'rash va o'z-o'zini parvarish qilish bilan shug'ullanish manipulyatsiyadan himoya qilish va sog'lom munosabatlarni saqlashga yordam beradi.

Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, manipulyatsiyadan xabardor bo'lish bir necha sabablarga ko'ra juda muhimdir:

1. Yolg'ondan himoya qilish: manipulyatsiya shaxsiy manfaatlar uchun kimningdir xatti-harakati, fikrlari yoki his-tuyg'ulariga ta'sir qilish yoki nazorat qilishni o'z ichiga oladi. Manipulyativ taktikalardan xabardor bo'lgan holda, odamlar o'zlarining boshqalar tomonidan aldanishi yoki ekspluatatsiya qilinishidan himoya qilishlari mumkin.

2. Sog'lom munosabatlarni saqlash: manipulyatsiya munosabatlardagi ishonch, muloqot va o'zaro hurmatni buzishi mumkin. Manipulyatsiyani erta anglab, odamlar muammolarni hal qilishlari, chegaralarni belgilashlari va boshqalar bilan yanada sog'lom va haqiqiy aloqalarni rivojlantirishlari mumkin.

3. Axloqiy xulq-atvorni targ'ib qilish: manipulyatsiyadan xabardorlik odamlarga axloqiy me'yorlarni qo'llab-quvvatlash, shaffoflikni ta'minlash va boshqalarga zarar yetkazadigan yoki jamiyatga ishonchni susaytiradigan manipulyativ xatti-harakatlardan qochish imkonini beradi.

4. Tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini oshirish: manipulyatsiya haqida xabardorlikni rivojlantirish tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini

oshiradi, odamlarga ma'lumotni baholash, motivlarni so'rash va turli kontekstlarda haqiqiy muloqot va manipulyatsiya taktikasini farqlash imkonini beradi.

5. Moslashuvchanlikni mustahkamlash: manipulyatsiyadan xabardorlik qat'iyatlilik va o'ziga ishonchni kuchaytiradi, odamlarga o'z chegaralarini tasdiqlash, o'z huquqlarini himoya qilish va qiyin vaziyatlarda yanada aniqroq va qat'iyatlilik bilan harakat qilish imkoniyatini beradi.

6. Sog'lom jamiyatni rivojlantirish: manipulyatsiya haqida xabardorlikni oshirish va axloqiy xulq-atvorni targ'ib qilish orqali shaxslar manipulyatsiya tan olinadigan va undan voz kehadigan adolatli va o'zaro hurmat ustuvor jamiyatni yaratishga hissa qo'shadilar.

Umuman olganda, manipulyatsiyadan xabardor bo'lish shaxsiy farovonlikni himoya qilish, sog'lom munosabatlarni rivojlantirish, axloqiy me'yorlarni qo'llab-quvvatlash va boshqalar bilan o'zaro munosabatlarimizda shaffoflik, ishonch va o'zaro hurmat madaniyatini rivojlantirish uchun juda muhimdir.

ADABIYOTLAR

1. Karimov F. Demokratiya va milliy axborot tizimi. – T.: Tafakkur jurn. 2010 yil, 2-son. – B.71.
2. Кара-Мурза С.Г. Манипуляция сознанием. – М.: Эксмо, 2003. – С.45
3. Djumaev R.Z. Siyosiy konfliktlarni boshqarishning zamonaviy texnologiyalari. Siyosiy texnologiyalarning rivojlanishi. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. – T.: Complex Print, 2022. – B. 64-68.
4. Islamov I.N., Maxmudov Sh.A. Siyosiy texnologiyalar tushunchasi va uning mohiyati. Siyosiy texnologiyalarning rivojlanishi. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. – T.: Complex Print, 2022. – B. 4-9.

DAVLAT XIZMATI VA DAVLAT FUQAROLIK XIZMATI: KONSEPTUAL VA INSTITUTSIONAL JIHATLARI

SHUKUROV

Elbek Xabibullayevich
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
huzuridagi Davlab boshqaruv
akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada davlat xizmati va davlat fuqarolik xizmatining umumiylik va xususiylik jihatlari, bu borada ishlab chiqilgan va yaratilgan konsepsiyalar va ularning institutsional jihatlari, mazkur sohada o'z qarashlarini ilgari surgan olimlar va mutaxassislarning tadqiqotlari, xorijiy mamlakatlarda davlat xizmatining tashkiliy, siyosiy va tanlov bilan bog'liq vazifalarining samaradorlik mezonlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: davlat xizmati, davlat fuqarolik xizmati, konsepsiya, institutsional muammo, ochiq tizim, yopiq tizim, tanlov, hokimiyat, samaradorlik.

АННОТАЦИЯ

В статье рассмотрены и проанализированы общности и особенности государственной службы и государственной гражданской службы, разработанные концепции и институциональные аспекты этой сферы, исследования ученых и взгляды специалистов по данному вопросу, критерии эффективности задач, связанных с организационно-политическими вопросами и отбором кандидатов для государственной службы в других странах.

Ключевые слова: государственная служба, государственная гражданская служба, концепция, институциональная проблема, открытая система, закрытая система отбора, конкурс, власть, эффективность.

ANNOTATION

The article examines and analyzes the commonalities and features of the civil service and state civil service, developed concepts and institutional aspects in this area, research by scientists and specialists who put forward their knowledge and views on this issue, criteria for the effectiveness of tasks related to organizational, political and selection of candidates for the state services in foreign countries.

Key words: public service, public civil service, concept, institutional problem, open system, closed selection system, competition, power, efficiency.

O‘tgan yili mamlakatimiz taraqqiyotida tub burilish yasagan muhim voqealardan biri – bu Oliy Majlis tomonidan “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilinganligini alohida e‘tirof etish lozim[1]. Sababi, uzoq yillar davomida davlat xizmatida ishlagan, uning qiyinchiliklariyu, murakkabliklarini (xalqona so‘z bilan “issiq sovug‘ini” yetarlicha ko‘rgan) boshdan kechirgan xodimlarning maqomi, taqdiri, istiqboli, muammolari hech kimni qiziqirmagan edi, desak, ma‘lum ma‘noda haq bo‘lamiz. Bugun esa ushbu Qonun mamlakatimiz taraqqiyotini, istiqbolini o‘zining taqdirida ko‘rayotgan har bir hodimning, rahbarning, umuman olganda, davlat xizmatchisining “haqiqiy himoyachisi”ga aylandi.

Davlat xizmati tushunchasi qadimdan insoniyat va boshqaruv sohasining muhim instituti bo‘lsada, tushuncha va kategoriya sifatida XVIII asrlarda vujudga kelganligini va Yevropa Uyg‘onish davri bilan bog‘liqligini alohida qayd etish mumkin. To‘g‘ri, bu borada qadim Sharq allomalari hisoblanmish, bobokalonlarimiz Abu Nasr Forobiy, Nizomulmulk, Yusuf Xos Xojib, A.Navoiy kabilarning ham ko‘plab qarashlari mavjud bo‘lsada, ularning asarlarida bugungi zamonaviy “Davlat xizmati yoki davlat fuqarolik xizmati” singari kategoriyalar qo‘llanilmaganligini ham aytib o‘tmoq lozim.

Alohida qayd etishga lozim bo‘lgan jihatlardan biri shuki, bugun siyosiy fanlar tizimida ham, shuningdek, huquqshunoslik, jamiyatshunoslik, iqtisod fanlari tizimida ham “Davlat xizmati”, “Davlat fuqarolik xizmati” singari tushunchalar, terminlar keng ishlatilmoqda va qo‘llanilmoqda. Lekin, aynan ushbu tushunchalarning vujudga kelishi, ilmiy konseptual omillari va ularning rivojlanishi tendensiyalari borasidagi tadqiqotlarni esa O‘zbekistonda yetarli deb bo‘lmaydi. Ya‘nikim, bugungi kunda o‘ta dolzarb mavzulardan bo‘lgan ushbu boradagi tadqiqotlar juda kam. Mavzuni tadqiq qilish uchun, avvalo, har ikki tushunchani, ya‘ni “davlat

xizmati” va “davlat fuqarolik xizmati”ni lug‘aviy mazmunidan tortib, uning konseptual asoslarini aniqlashtirib olish muhim ahamiyatga ega.

Ma‘lumki, davlat xizmati – davlat organlarida ma‘lum bir mansabni egallagan shaxsning ommaviy, professional va bajaragan mehnati uchun davlat tomonidan moddiy to‘lov asosida amalga oshiradigan ishi bo‘lib, mazkur faoliyat doirasida lavozim majburiyatlari vakolatlarini davlat tomonidan belgilangan qonunlar va huquq asosida amalga oshiruv faoliyatidir.

Bugungi kunda xalqaro tajribani o‘rganish, bu borada katta yutuqlarni qo‘lga kiritgan mamlakatlarning erishgan yutuqlari va tajribalarini o‘rganishning ahamiyati tobora ortib borayotganligin e‘tirof etmoq lozim. Xalqaro amaliyotni tahlil qilish natijasida biz bugungi kunda mamlakatimizda qanday tajribani joriy qilishni, qaysi islohotlarning afzal ekanligini, qaysi konsepsiya tadqiqot uchun muhim yo‘nalishligini, ularning davlat rivojlanishining qaysi modeli uchun mantiqan mos ekanligini aniqlash mumkin. Ayniqsa, so‘nggi yillarda oldimizda turgan eng katta vazifalardan biri sifatida davlat xizmatining samaradorligini oshirish ekanligini ta‘kidlash joiz. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan ham doim davlat xizmatining taraqqiyotimiz yo‘lidagi muhim bo‘g‘ini ekanligi ta‘kidlab kelinmoqda. Xususan, 2022-yilning 4-avgust kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida davlat xizmatini isloh qilish va boshqaruvda natijadorlikni oshirish chora-tadbirlari yuzasidan bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda ko‘tarilgan qator masalalar ichida “Bu raqobatli bozorda davlat xizmati ham jozibador bo‘lishi kerakligi, davlat xizmatchilari faoliyatining kafolatlari ham kuchaytirilishini hamda xodimning tajribasi, malakasi va erishgan natijasiga qarab, rag‘batlantirish tizimi joriy qilinishi, ularning hayoti va sog‘lig‘i davlat hisobidan sug‘urta qilinishi va eng asosiysi, o‘z vazifalarini halol va pok bajarayotgan davlat xizmatchilari uchun keksalikni munosib o‘tkazish kafolatlari yaratilishi alohida ta‘kidlandi”[2].

O‘tgan asrning 90-yillaridagi vaziyat davlat xizmati va xizmatchisining ma‘lum bir portretini, sifatlarini, xususiyatlarini yaratish bilan bog‘liq katta muammolarni O‘zbekiston oldiga ham ko‘ndalang qo‘yganligi barchamizga ma‘lum. Bu davrga kelib, uzoq yillar davomida

davlat va jamiyat tomonidan “qat’iy” qabul qilingan “kommunistik rahbar” qiyofasi o‘zining jozibadorligini yo‘qotib bo‘lgan edi. Jamiyatning dunyoga ochilishi va taraqqiyparvar, ma’rifatparvar davlatlar tajribasi, ularning hayoti bilan tanishish darajasi ortib borganligi va buning natijasida qotib qolgan byurokratizmga nisbatan ishonchi yo‘qolganligi hech birimizga sir emas. Shuning uchun ham davlat oldida nafaqat kommunistik aqida va dunyoqarashdan holi bo‘lgan kadrlar siyosati, balki zamonaviy prinsiplarga, mazmunga asoslangan, dunyo tajribasidan uzilib qolmagan davlat xizmatining modelini topish va joriy qilish barcha o‘tish davridagi yangi davlatlar uchun ustuvor masalaga aylangan edi.

Hech kimga sir emas, bunda ba’zi davlatlar davlat xizmatini tashkil qilish, doimiy takomillashtirish borasida rivojlangan mamlakatlarda uzoq yillar davomida shakllangan fuqarolik jamiyatining ba’zi elementlarini shunchaki ko‘chirib olish yo‘lidan bordi. Shuningdek, asosiy e’tiborini “velosiped kashf qilish”ga emas, balki ularda shakllangan tayyor modelni o‘zlashtirish va o‘z milliy xususiyatlari bilan boyitishga ham e’tibor qaratgan davlatlar bo‘ldi. Asosiy masala – davlat xizmatini alohida rivojlanish modeli sifatida belgilash, isloh qilish va mamlakatdagi ko‘plab muammolarga aynan ushbu institut yordamida yechim topish edi. Shuningdek, aynan ushbu institutni o‘zgaruvchan zamonaviy talablarga doimiy moslashtirib borish ham asosiy strategik vazifalardan biriga aylandi, desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi.

Tadqiqot davomida shunday fikrlar shakllandiki, barcha davlatlar davlat xizmati sohasidagi islohotlarni amalga oshirishdan asosiy maqsad sifatida quyidagi vazifalarni yechishni mo‘ljallagan va shundayligicha qolmoqda:

1) fuqarolik xizmati tizimidagi siyosiy maqsadlarning roli va professional partiya byurokratiyasi o‘rtasidagi muvozanatni topish;

2) davlat xizmatining jadalligi va uning barqarorligi o‘rtasidagi muvozanatga erishish;

3) davlat xizmatining ochiqligi, demokratlashganlik darajasining kuchayishi, uning fuqarolar va jamiyat ehtiyojlari va manfaatlariga moslashuvchanligi;

4) davlat fuqarolik xizmatining “menejerlashuvi”, davlat fuqarolik xizmati tizimiga

bozor tamoyillarining joriy qilinishi (Buyuk Britaniya, Italiya, Niderlandiya, Yangi Zelandiya va boshqalar); hukumat bilan tanlovlar asosida u yoki bu davlat vazifalarini bajarish yoki xizmatlar ko‘rsatish borasida shartnoma tuzadigan nohukumat tashkilotlarning shakllanishi;

5) davlat xizmati sohasida biror bir lavozimni egallash yoki ularni lavozim xizmati yo‘lida ilgari surish sohasining kengayishi;

6) davlat xizmatchilarining soni, ularning imtiyozlarini qisqartirgan holda, bir vaqtda ishlarining natijadorligiga qarab ularning oylik maoshlarini o‘stirib borish tizimini joriy qilish (Buyuk Britaniya, Niderlandiya, Janubiya Koreya, AQSH).

Bu turdagi islohotlar yoki taraqqiyot jarayonlari O‘zbekistonda ham boshlanganligini e’tirof etgan holda, bugungi kunda u davlat xizmatidagi samaradorlikni oshirishga qaratilganligini ham aytish lozim. Bu – ma’muriy-huquqiy sohadagi o‘zgarishlarning ustuvor yo‘nalishi sifatida davlat fuqarolik xizmatini samarali tashkil qilish borasidagi dolzarb muammolarni o‘rganishning natijasi hamdir. Ma’lumki, bugun ko‘plab xorijiy mamlakatlarda bunday islohotlarning, o‘zgarishlarning ko‘plab modellari yaratilgan va ular asosida samaradorlik mezonlari ishlab chiqilganligini ham ko‘rishimiz mumkin. Xorijiy tajribani o‘rganishning yana bir muhim jihati sifatida bu avvalo mamlakatimizda sohaning muammolari, tamoyillari, meyoriy-huquqiy tartibga solishning ustuvor vazifalarini, shuningdek, davlat-xizmatchi munosabatlarining asosiy ishtirokchilarini ham aniqlash ekanligini ta’kidlab o‘tish joiz.

Rivojlangan davlatlardagi davlat xizmati borasidagi aniq bir muvaffaqiyatlarga qaramasdan, o‘tish davrida bo‘lgan davlatlardagi birorta keng miqyosli islohot (bir muncha taraqqiy etgan Koreya Respublikasi yoki Braziliyani misol tariqasida keltirish mumkin) butunlay katta mavaffaqiyat bilan yakunlamadi. Shuningdek, Buyuk Britaniyada davlat xizmatini isloh qilish natijalarini ba’zi mutaxassislar salbiy baholaganlar. Chunki, islohotlar natijasida davlat xizmatining yaxlit tizimining buzilishi ro‘y bergan, davlat xizmatining nufuzi va jozibadorligi yo‘qolgan. Qator ekspertlarning xolisona ta’kidlariga ko‘ra, bu “ma’lum bir davlatdagi davlat xizmati jamiyatdagi munosabatlar holatidan

va aynan uning o‘zini boshqaradigan kadrlar yetishib chiqadigan jamiyatning rivojlanganlik darajasidan o‘zib ketmagan bo‘lishi lozim”[3]. Aks holda, davlat xizmatiga joriy qilingan modeldan voz kechiladi yoki xatolik mavjud bo‘lgan davlat xizmatining rasmiy jihatlarinigina o‘zlashtirish va mamlakatda mavjud real ijtimoiy munosabatlarga moslashish yuz beradi. Oxir oqibatda bu mamlakatdagi mavjud kamchiliklarni amalga oshirilgan islohotlar “niqobi” ostida vaqtinchalik “yopib qo‘yilishi”ga olib keladi.

Bugungi kunda davlat xizmatini tashkil qilishning O‘zbekiston uchun maqbul bo‘lgan modelini topish yoki yaratishning dolzarbligi ham shundaki, biz qaysi davlatlar yoki jamiyatlar tajribasiga ko‘proq murojaat qilamiz yoki o‘rganamiz. Ochiq ingliz-sakson modeli (yangi davlat menejmenti) ma‘qulmi yoki yevropa qit‘asining boshqa davlatlariga xos bo‘lgan yopiq model ma‘qulmi, shuningdek, bugun sharq mamakatlari ham bu borada katta muvaffaqitlarga erishganligini hisobga olgan holdagisi ma‘qulmi, albatta tadqiqotlar buni ko‘rsatib beradi.

Umuman olganda, bugun biz davlat xizmatini rivojlantirish yo‘lidan qat‘iy borish bilan bir qatorda, davlat tuzilishiga ham e‘tiborimizni qaratishimiz kerak. Sababi, har qanday modelning qo‘llanilish sohasi va imkoniyatlari davlatning federal yoki unitar tuzilishiga alohida yo‘naltirilganligi bilan ham muhim. Shunday qilib, davlat fuqaroliq xizmati to‘rtta modelga ajratiladi:

Unitar davlatda amalga oshiriladigan, markazlashgan yopiq model;

Nisbiy nomarkazlashgan yopiq model (federativ davlatda);

Nisbiy nomarkazlashgan ochiq model (unitar davlatda);

Nomarkazlashgan ochiq model (federativ davlatda) [4].

Davlat xizmatini isloh qilish zarurati, albatta, sohaning ma‘lum bir kamchiliklardan xoli emasligi, qonunchilik borasida ham hali ma‘lum bir ishlar takomillashtirilishi va eng asosiysi davlat xizmatchilarida ma‘lum bir siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma‘naviy ong mezonlari va madaniyati shakllantirilishi lozimligidan kelib chiqadi deyishimiz mumkin. Zero, mavzuning boshida aytib o‘tganimizdek, garchi “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Res-

publikasining Qonuni qabul qilingan bo‘lsada, ushbu Qonunni sharhlash, biror bir kamchiliklarini ko‘rsata bilish yoki aksincha, uning ustun tomonlari borasida mutaxassislar, siyosatshunoslar, huquqshunoslar, sotsiologlar, iqtisodchilar o‘zlarining ekspert munosabatini bildirmadilar, yoki kam bildirdilar deyish mumkin. Misol uchun mavzu yuzasidan tadqiqot olib borgan kamsonli o‘zbekistonlik olimlardan O.Xasanov o‘z tadqiqotlaridan birida “Bugungi kunda inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bilan bog‘liq yuqori natijalarni qayd etayotgan Fransiya, AQSH, Germaniya, Singapur, Janubiy Koreya, Isroil, BAA va Turkiya kabi mamlakatlarning tajribasi siyosiy tizim rivojlanishidagi muvaffaqiyatlar – avvalo, kadrlar salohiyatining o‘sishi bilan chambarchas bog‘liq ekanligini yana va yana isbotlamoqda” – deya ta‘kidlagan [5].

Chunki, har bir mamlakatda davlat xizmati va uni rivojlantirishning muqobil yo‘llari, qonunchilikdagi oxirigacha yetmagan masalalar, davlat fuqarolik xizmatini tartibga soluvchi, uning o‘rnini bosuvchi, huquqiy maqomini yanada takomillashtirish bilan bog‘liq masalalar bir marotaba emas, balki doimiy muhokama bo‘ladigan mavzular qatoridan o‘rin olgan. Shuningdek, qonunchilikdagi ba‘zi masalalar, ya‘ni davlat fuqarolik xizmatida ishlayotgan odamning o‘rnini vaqtincha boshqarib turuvchining huquqiy maqomi va uning tayinlanishi, lavozimidan ozod qilinishi singari muammolar, davlat xizmatiga hukumat tomonidan tayinlanadigan shaxslar (oldin harbiy xizmatda bo‘lib, keyin fuqarolik xizmatiga o‘tgan shaxslar, xorijdan taklif qilingan, shartnoma asosida ishlaydigan va xokazo) borasidagi holatlarning hal qilinmaganligi kabi masalalar ham qonun doirasida o‘z yechimini topgan bo‘lishi kerakligini aytib o‘tish joiz.

Shuningdek, ko‘plab davlatlar tajribasida, davlat xizmati sohasiga uning aniq maqsadi va vazifalari, ularni baholash mezonlari, ishlan rahbarning o‘zboshimchaligi tufayli bo‘shatib yuborilishi, shuningdek, mansabdorlarning xulq-atvorini, ahloq meyorlari masalalari to‘lig‘icha kiritilmagan. Shu va boshqa omillarni hisobga olgan holda, aytish mumkinki, bu kabi tajribalarni doimiy o‘rganish va doimiy isloh qilish faqatgina O‘zbekistonga foyda keltiradi.

Yuqorida davlat xizmatini tizim sifatida samarali tashkil borasida aytib o'tilgan modellarimiz ichidan O'zbekiston uchun maqbullari bu ingliz sakson modeli (ochiq) va kontinental (yopiq), shuningdek, unitar davlat boshqaruvi uchun nisbiy nomarkazlashgan modelni o'zaro taqqoslash yo'li bilan o'rganish lozim. Misol uchun, birgina ochiq model uchun xos bo'lgan xususiyatlar ichida quyidagilarni alohida sanash mumkin:

- davlat xizmati bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishning aniq tashkiliy huquqiy tizimi yo'qligi;
- kadrlarni tanlashning ochiq tanlov tizimi;
- mehnat haqqi va karyeraning bajargan ishi va natijasiga bog'liqligi;
- ishdan bo'lishatishning oddiy tartiblari o'rnatilganligi (AQSH, Buyuk Britaniya, Kanada) [6].

Bizga ma'lumki, ingliz sakson tizimi yoki modeli odatda sud amaliyotiga, qonunlarga va hukumatning me'yoriy hujjatlariga asoslanadi. Yopiq modelga esa:

- davlat xizmatining har bir darajasining malakalarini aniq belgilash;
- kadrlarni tanlashning ko'pbosqichli tizimi;
- davlat xizmatchisi yoki unga da'vo-garning yuqori ijtimoiy maqomi, ya'ni mansab lavozimlari, oylik maoshi, mehnat staji va lavozimiga bog'liqligi;
- davlat xizmatchisini lavozimdan bo'shatishning murakkab jarayon ekanligi (Germaniya va Fransiya) xos.

Shuningdek, bugungi kunda ushbu sohada dunyo miqyosida amalga oshirilayotgan tadqiqotlarni shartli tarzda uch kategoriyaga ajratish mumkin:

1. Davlat xizmati yoki fuqarolik xizmatining institut sifatida shakllanishining tarixiy shart-

sharoitlarini, ularning rivojlanish tendensiyalari va bosqichlarini o'rganish;

2. Davlat xizmati va davlat fuqarolik xizmati borasida mamlakatimizda va xorijda amalga oshirilayotgan islohotlar tajribasini qiyoslash va o'rganish;

3. Ushbu sohani isloh qilish jarayonlarini nazariy asoslash.

Xulosa o'rnida aytish lozimki, yuqoridagilar ichida eng katta qiziqish birinchi galda, davlat fuqarolik xizmatini isloh qilishning nazariy asoslarini o'rganishga qaratilgan. Buning asosiy sabablari har bir davlatda amalga oshiriladigan ma'muriy islohotlar borasidagi davlat siyosatining o'zagini davlat xizmati va fuqarolik xizmati, shuningdek, kadrlar siyosati tashkil qiladi. Ma'lumki, bu borada davlatlar tomonidan sohaga doir qonunlar, qarorlar, konsepsiyalar, strategiyalar hamda uning tashkiliy va amaliy tomonlarini rivojlantiradigan qator xujjatlar qabul qilinadi.

Ayniqsa, "davlat xizmati va u orqali davlat boshqaruvidagi samaradorlikni oshirish maqsadida sohaga doir ko'plab tadqiqotlar qilinadi, xorijiy mamlakatlarning tajribalari o'rganiladi, sohani rivojlantirish borasida turli metodlar, ko'nikmalar, malaka talablari, davlat xizmati va xizmatchilarining professionallik faoliyatidagi samaradorlikni baholash bo'yicha mezonlar ishlab chiqiladi" [7].

Davlat fuqarolik xizmatining rivojlanishi yetakchi ijtimoiy institut shaklida hokimiyat mexanizmlari vositasida jamiyatning ongi va madaniyati o'zgarishini, boshqaruv sohasining professional tarzda taraqqiy etishini ta'minlaydi. Odatda, barcha islohotlar iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, huquqiy va ma'naviy sohalarga bo'linadi. Tor ma'noda aytadigan bo'lsak, ularning barchasi jamiyat taraqqiyotini ta'minlash borasidagi muammolarni bartaraf etishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonuni. 10.11.2022 dan kuchga kirgan. <https://lex.uz/uz/docs/6145972>
2. Ixcham va samarali boshqaruv tizimini yaratish vazifasi qo‘yildi. <https://president.uz/uz/lists/view/5398>
3. Understanding the Civil Service. <https://www.civilservant.org.uk/>
4. Ben Nancholas. The UK Civil Service: an explainer. <https://online.york.ac.uk/the-uk-civil-service-an-explainer/>
5. Xasanov Otabek Abdurashidovich. O‘zbekistonda siyosiy modernizatsiya jarayonlarida davlat kadrlar siyosatini rivojlantirish tendensiyalari. 23.00.02 – Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar ixtisosligi bo‘yicha Siyosiy fanlar bo‘yicha fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent – 2022. B.5
6. Yakushik, Valentin, Change of the Type of Political System (Ukrainian Case). (Institute of International and Cultural Studies, Tsuda College: Tokyo, 1995.) - P. 12-19; Post-Communist Ukraine: Contradictions and Prospects for Socio-Political Development. - In: Political Thought. Ukrainian Scientific Journal. No. 1. 1993. - P. 117-120.
7. Старилов Ю.Н. Государственная служба в Российской Федерации: теоретико-правовое исследование. – Воронеж, 1996.

GLOBAL DUNYODA MILLIY TIL MILLIY-MA'NAVIY XAVFSIZLIK OMILI

ESHMURODOV

Akbar Tolliboyevich,

Renessans ta'lim universiteti

*“Ijtimoiy-siyosiy fanlar” kafedrası
dotsenti, s.f.f.d. (PhD)*

ANNOTATSIYA

Maqolada jamiyatda ma'naviy xavfsizlikni ta'minlashda tilning o'рни masalasi yoritilgan. Ma'lumki, til – millatning ma'naviy boyligi, nafaqat muomala vositasi, balki xalqning madaniyati, urf-odati, turmush tarzi, tarixidir. Maqolada mamlakatimizda o'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro'-e'tibori-ni tubdan oshirish, unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalashda tilning o'рни, shuningdek, mamlakatimizda davlat tilidan foydalanishdagi muammolar bayon etilgan va ularning yechimi bo'yicha bir qator takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: til, til madaniyati, o'zbek tili, millat, globallashuv, ma'naviy xavfsizlik, ma'naviyat, inson, milliy o'zlik.

АННОТАЦИЯ

В статье описывается роль языка в обеспечении духовной безопасности в обществе. Излагается роль узбекского языка в общественной жизни нашего народа и на международном уровне, в воспитании нашей молодежи в духе патриотизма, национальных традиций и ценностей. Также рассматриваются проблемы использования государственного языка в нашей стране и приведен ряд предложений по их решению.

Ключевые слова: язык, языковая культура, узбекский язык, национальность, глобализация, духовная безопасность, духовность, человек, национальная идентичность

ANNOTATION

This article describes the role of language in ensuring spiritual security in society. As it is known, language is the spiritual wealth of the nation, not only a means of communication, but also culture, traditions, lifestyle and history of the nation. The article outlines the role of the Uzbek language in the public life of our people and at the international level, the role of the language in educating our youth in the spirit of patriotism, national traditions and values, as well as the problems of using the state language in our country and provides a number of proposals for their solution.

Key words: language, linguistic culture, Uzbek language, nationality, globalization, spiritual security, spirituality, person, national identity

Til milliy o‘zlikni anglash omili, har qanday xalq madaniyatining poydevori bo‘lib, xalqlarning o‘tmishi, ko‘p asrlik intellektual merosini o‘zida saqlab turuvchi xazinadir. Poydevorni buzing va uy qulab tushadi. Insonning aqliy takomilida fanning, ruhiy kamolotida ma‘naviyatning ishtiroki muhim. Aqliy takomilga erishgan inson o‘zining moddiy olamini beqam-u ko‘st qilishi bor gap, biroq kam-ko‘stsiz bu olam ma‘naviyatsiz butun bo‘lmas. Ma‘naviyat qushning bir qanotiga mengzalgani bosh sababi ham shudir. Odamiylikning chin omili sanalgan ma‘naviyat odam bolasini shaxs sifatida shakllantiradi, biologik mavjudotdan insonlik rutbasiga ko‘taradi. Bu rutbaning yo‘rgagi axloqiy va ruhiy tarbiya bo‘lsa, beshigi til va adabiyotdir. Bugungi globallashgan dunyoda millat tiliga milliy o‘zlikni asrashning bosh sharti deb qaralayotgani ham shundan [1].

Albatta, olimlar fikriga ko‘ra bugungi globallashuv jarayonlari muttasil davom etadigan tarixiy jarayon bo‘lib, u bir tomondan jahonning yetakchi davlatlarining gomogenlashuvi va universallashuvi bo‘lsa, ikkinchi tomondan milliy chegaralarning “yuvilib ketish”i va ma‘naviy inqiroz jarayoni ham hisoblanadi. Ana shu sababli dunyoda yuz berayotgan ma‘naviy inqiroz jarayonlarida milliy tilni asrash, sofligini saqlab qolish milliy va ma‘naviy xavfsizlikni ta‘minlash borasidagi strategik vazifa hisoblanadi.

Bugungi kunda ko‘pgina mamlakatlarda o‘z milliy tillarini himoya qilish bo‘yicha aniq davlat siyosati mavjud. Jumladan, mamlakatimizda ham o‘zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro‘-e‘tiborini tubdan oshirish, unib-o‘sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an‘ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to‘laqonli joriy etishni ta‘minlash, O‘zbekistondagi millat va elatlarning tillarini saqlash va rivojlantirish, davlat tili sifatida o‘zbek tilini o‘rganish uchun shart-sharoitlar yaratish, o‘zbek tili va til siyosatini rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo‘nalish va

vazifalarini hamda istiqboldagi bosqichlarini belgilash maqsadida **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2020-yilning 20-oktabr kuni “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni imzoladi. Farmonga muvofiq, 2020–2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi tasdiqlandi.**

Konsepsiyada:

- mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha sohalarida davlat tili imkoniyatlaridan to‘liq va to‘g‘ri foydalanishga erishish;
- ta‘lim tashkilotlarida davlat tilini o‘qitish tizimini yanada takomillashtirish, uning ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirish;
- davlat tilining sofligini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish;
- davlat tilining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga faol integratsiyalashuvini ta‘minlash;
- davlat tilining xalqaro miqyosdagi o‘rni va nufuzini oshirish, bu borada xorijiy hamkorlik aloqalarini rivojlantirish;
- mamlakatimizda istiqomat qiladigan barcha millat va elatlar tillarini rivojlantirish maqsadida keng va teng imkoniyatlar hamda ularga davlat tilini o‘rganish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish masalalari nazarda tutildi.

Bundan tashqari, yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyaning 4-moddasida “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir.

O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an‘analari hurmat qilinishini ta‘minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi” [2] deb belgilab qo‘yildi.

I.Gerder “Inson faoliyatidagi to‘rt asosiy hodi- sa: til, madaniyat, jamiyat va milliy ruhni bir-biri bilan bog‘lagan. Til o‘zining kelib chiqishiga ko‘ra madaniyat bilan bog‘liq bo‘lib, u jamiyat bilan birga takomillashadi. Tilning madaniyat bilan organik bog‘liqligi uni milliy ruhning muhim tarkibiy qismiga aylantiradi”, deb e‘tirof etadi [3]. Til va madaniyatning o‘zaro munosabatini Vilgelm fon Humboldt o‘zining “Odam tillarining tuzilishining farqlanishi va uning odam zotining ma‘naviy rivojlanishiga ta‘siri” nomli asarida batafsil yoritgan [4]. Olimning ta‘limotida quyidagi g‘oyalar o‘z ifodasini topdi:

1) moddiy va ma'naviy madaniyat tilda mujassamlashadi;

2) har qanday madaniyat milliydir, uning milliy xarakteri tilda dunyoni o'ziga xos ko'rish vositasi bilan ifodalanadi;

3) tilning ichki shakli – “xalq ruhi” va uning madaniyatining ifodasidir;

4) til inson va uni o'rab olgan dunyo orasidagi halqa hisoblanadi.

Darhaqiqat, til millatning milliy mansubligini belgilovchi milliy kod hisoblanadi. Unda millatning uzoq o'tmishidan tortib, to bugungi kungacha bo'lgan madaniyati, ma'naviyati mujassam. Til milliy kod bo'lishi bilan birga davlatda fuqarolar o'rtasidagi muloqot vositasi ham hisoblanadi. 1989-yilda o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi tarixiy voqea hisoblanadi. Bugun O'zbekistonda 130 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qilishadi. O'zbek tili davlat tili sifatida yurtimizda yashayotgan har bir millat va elat vakillari uchun asosiy muloqot vositasi, uning qadriyatiga aylanmog'i zarur. Hazrat Navoiyning “Tilga ixtiyorsiz – elga e'tiborsiz” degan hikmati necha asr o'tsa ham o'zining ma'no-mohiyatini yo'qotgani yo'q.

Aksincha, tarixiy jarayonlar bu hikmatning naqadar haqqoniyligini isbotlab kelmoqda. Bugun hayotimizda o'zbek tilidan foydalanish borasida talaygina muammolar mavjud bo'lib, ularni hal etish bo'yicha tezkor chora-tadbirlar qo'llanilmasa ertaga kech bo'lishi mumkin. Aslini olganda, o'zbek tilining davlat tili sifatida amaliyotga tatbiqi, kundalik hayotimizdagi o'zni borasidagi muammoning asosiy sababini tilimizning o'zidan izlashimiz to'g'ri emas. Boisi, har qanday til o'z egasi bilan birga yashaydi, til egasi undan o'zi xohlagandek foydalanadi, unga o'zi xohlagandek munosabatda bo'ladi. Muammoning tub ildizini oiladan, maktabdan, oliy ta'lim muassasalari va ommaviy axborot vositalari, xususan o'zimizdan izlashimiz kerak. Chunki o'tgan davr ichida fuqarolarimizda til madaniyati, undan to'g'ri foydalanish ko'nikmasi shakllantirilmadi. Til muammolari bugun oddiqlikka aylangan bo'lib, ko'cha-ko'yidagi xato yozuvlar, o'zbek tili qolib, xorij tillaridagi reklama vositalari, turli muassasalarga qo'yilgan noto'g'ri nomlarni ko'rib tursakda, e'tibor qilmaymiz, etimiz junjikmaydi. O'rganishlar shuni ko'rsatmoqdaki, o'zbek tilidagi so'zlarni bugun tilimizdan bironta begona millat

majburan siqib chiqarmayapti, balki o'zimizning ixtiyorimiz, ma'rifatsizligimiz sababli bu ishni o'zimiz amalga oshiryapmiz.

O'zbekistonning davlat tili haqidagi qonuniga ko'ra, fuqarolar o'zaro murojaat tilini xohlagan til sifatida tanlashi mumkin, davlat tili o'zbek tili. Fuqarolarning xohlagan tilda davlat idoralariga murojaat qilishi belgilangan. O'zbek tilining rivojiga eng katta xalaqit berayotgan me'yorlardan biri bu. Chunki til rivojlanishi uchun unga ehtiyoj paydo qilish kerak. Ehtiyoj bo'lmagan til o'z-o'zidan zaiflashadi. Bugungi kunda ta'lim, televideniye, huquqiy hujjatlarda rus tilining ta'siri kuchli. Huquqiy hujjatlar, asosan, rus tilida tayyorlanadi [5].

Germaniyada nemis tilidan boshqa tilda davlat idoralariga murojaat qilishmaydi, agar boshqa tilda murojaat qilsangiz u nafaqat umuman ko'rib chiqilmaydi, balki siz bu ishingiz uchun jarimaga ham tortilasiz. Davlat tiliga munosabatni shunday qurish orqali nemis tiliga ehtiyoj yuzaga keltirilgan. Biz esa ehtiyojni o'zimiz kamaytirypmiz. Buning natijasida til rivojlanmayapti va yosh avlod boshqa tilli bo'lib katta bo'lyapti.

Bundan tashqari, til – millat tafakkurining bebaho xazinasi, ulkan boyligi sifatida ijtimoiy hayotda muhim ahamiyat kasb etishi, milliy g'urur ekanligini barchamiz bilsakda, til madaniyati yetishmasligi tufayli til muammolari hosilasi uyimizga ham kirib keldi. Bugun o'z uyimizda qimirlamasdan, tilimiz va ongimizga kirib kelayotgan “til bosqinchilaridan qutula olmayapmiz. O'zbek xalqchil adabiyotining yirik namoyandasi, ma'rifatparvari Zokirjon Furqat she'rlaridan birida bejiz “Mening maktab aro buldur murodim, Xatimdek chiqsa imlo-yu savodim”, [6] demagan edi. Ana shu sabab, oila, ta'lim tizimi, ommaviy axborot vositalari orqali fuqarolarimizning til madaniyatini takomillashtirishimiz zarur. Til madaniyati deganda til qonuniyatlarini bilish, o'z ona tilini sevish va unga amal qilish holati tushuniladi. Agar biz tilimizni yigirma yildan keyin qanday ko'rishni istasak, bugundan o'sha mo'ljalga mos o'zbek tili ta'limini yo'lga qo'yishimiz joiz. Bordi-yu shunday qilinmasa, davlat tomonidan ko'rilgan choralar ora yo'lda qolib ketaveradi. Bizning til borasida, vatanparvarlik borasidagi oqsashlarimizni yaxshi anglagan Markaziy Osiyodan umid uzmagani ba'zi kuchlar bundan unumli foydalanishga harakat qilyapti.

Barchamizga ma'lumki, jahon maydonida gegemonlikni da'vo qilayotgan davlatlarning dunyoni qaytadan bo'lib olish umidida yadroviy qurollardan ko'ra mafkuraviy yo'l bilan boshqa xalqlarni bo'ysundirishga ishtiyoqi ortgan bir paytda tildan "yumshoq kuch" sifatida foydalanmoqda. Shu bois, fuqarolarda til madaniyatini shakllantirish favqulodda muhim hisoblanadi. Darhaqiqat, tilshunoslikda ham globallashuv jarayoni o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lib, kechayotgan yuz yillikda UNESCO tomonidan ayrim tillarning yashab qolishi va taraqqiyoti masalasi xavotirli bo'layotgani ta'kidlandi. Tilshunoslar tomonidan 2009-yilda "yo'qolish xavfi mavjud dunyo tillarining interaktiv atlas" (UNESCO "Interactive Atlas of the World's Languages in Danger")ning onlayn versiyasi ishga tushirildi. Uning ro'yxatida aks etgan tillar maxsus rangda ajratilib, "zaif (vulnerable), muayyan xavf ostida qolgan (definitely endangered), biroz xavf ostida qolgan (severely endangered), jiddiy xavf ostida qolgan (critically endangered), yo'qolib ketgan (extinct) hamda qayta tirilgan (revitalized) tillar ko'rinishida dasturlashtirildi. Bu ro'yxatda o'zbek tili muayyan xavf ostida qolgan (definitely endangered) tillar qatoridan o'rin olgan [7].

Jadal globallashuv jarayonida xalqaro munosabatlarning beto'xtov rivojlanishi barcha millat vakillaridan o'z ona tilidan tashqari boshqa millatlar tilini, ayniqsa, xalqaro til vazifasini o'tayotgan tillarni talab darajasida o'zlashtirishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, jahon miqyosida raqobatbardosh kadrlarga ehtiyoj ortib borishi tufayli mahalliy tillar o'z auditoriyasini yo'qotib xalqaro tillarga o'rnini bo'shatib berayotganini alohida ta'kidlash zarur. Umuman olganda, XXI asr davomida jahonda mavjud 7000 ga yaqin tilning yashab qolishi va istiqboli uchun ta'limning naqadar muhim ahamiyat kasb etishi isbot talab qilmaydigan haqiqatga aylandi. Globallashuv jarayoni tashuvchisi bo'lgan internet tarmog'ining kengayishi natijasida ma'lum millat so'zlashuvchilarining o'z tillaridan foydalanmay qo'yishi, shuningdek, "millat" tushunchasining ayrim xalqlar orasida nisbiylashuvi ham bunga sabab bo'lmoqda. Hozirgi vaqtda har qanday tilning

dunyo tillari qatorida yashab qolishi uchun o'ziga xos talablar mavjud bo'lib, bu talab ko'proq tilning internet tizimida qo'llanish darajasi bilan bog'liqligida namoyon bo'lmoqda.

Til – millatning ma'naviy boyligi, nafaqat muomala vositasi – balki xalqning madaniyati, urf-odati, uning turmush tarzi, tarixidir. Turli xalqlarning tillariga hurmat esa o'z navbatida o'zaro tushunish, muloqotlarga imkoniyat yarata-di. Tillar saqlanib qolishi uchun esa bu tillarni qo'llab-quvvatlash zarurdir. Aynan til tufayli insoniyat u yoki bu xalqqa mansubligidan faxrlanib yashaydi. Barcha tillarni tan olish va hurmat qilish tinchlikning birdan-bir kafolatidir. Shu sababli ham har bir xalq o'z tili saqlanib qolishi uchun harakat qiladi. Bu jarayonda kitobning, adabiyotning ta'siri kattadir. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Men shunga aminman – kitob-siz taraqqiyotga, yuksak ma'naviyatga erishib bo'lmaydi. Kitob o'qimagan odamning ham, millatning ham kelajagi yo'q" [8].

Ochig'ini aytganda, bugun til borasida qonunchilik tizimi, tilni rivojlantirish va nazorat qiluvchi tuzilmalar paydo bo'ldi, ammo natija kutgandek emas. Xalqaro amaliyot, masalan, Fransiya tajribasi asosida davlat tili to'g'risidagi qonun talablariga rioya qilinishini nazorat qilish maqsadida iste'molchilar tashkilotlari, jamoatchilik tashkilotlarini tashkil etish lozim. Nazarimizda, bu kabi usullar hayotimizda sinovdan o'tgan bo'lib, albatta o'zining ijobiy natijasini beradi.

So'nggi so'z o'rnida ta'kidlash kerakki, o'zbek ma'rifatparvari Abdulla Avloniyning bundan yuz yil oldin aytgan "har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurgan oyinayi hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur" degan so'zlari bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas [9]. Til millat masalasi bo'lganligi bois, har birimiz uning targ'iboti va tashviqotiga, til madaniyatni shakllantirishga oilamizda, mahalla, o'qish yoki ish jamoamizda to'la va o'rinli qo'llanishiga mas'ul-miz. Qolaversa, til siyosati, o'zbek tilini yanada ravnaq toptirish har bir fuqaroning burchi va yurt taqdiriga daxldorlik tuyg'usidir.

ADABIYOTLAR

1. "Yangi O'zbekiston" gazetasi, 2022-yil 21-avgust, 170-son.
2. <https://lex.uz/docs/6445145>
3. Гердер И.Г. Идеи и философия истории человечества. – М.: "Наука", 1977. – С. 233.
4. Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию. – М.: "Прогресс", 1984. – С. 80.
5. <https://kun.uz/news/2024/01/29/millatni-sevishni-shakllantirmas-ekanmiz-barcha-urinish-larimiz-befoyda-alisher-qodirov>
6. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/manaviyat-yulduzlari/furqat-2/>
7. <http://www.unesco.org/languages-atlas/index.ph>
8. "Yangi O'zbekiston" gazetasi, 2022-yil 14-avgust, 74-son.
9. "O'zbekistonda xorijiy tillar" ilmiy-metodik elektron jurnali, 2017-yil 4-soni. 211-bet.

ZAMONAVIY DUNYODA GENDER TENGLIK SIYOSATI

OTAQULOV

*Shuxrat Murodullayevich,
MTTDMQTMOI “Ijtimoiy fanlar”
kafedrası dotsenti*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada xalqaro miqyosda va dunyo davlatlarida gender tenglik masalasiga qaratilgan jarayonlar yoritilgan bo‘lib, unda fuqarolarning, xususan, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi normativ hujjatlarning qabul qilinishi hamda genderni nisbatan sezgir institutlar, jumladan, gender masalalariga sezgir parlamentlar faoliyatini kengaytirish haqida fikrlar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: inson huquqlari, huquq, gender, gender siyosat, gender strategiyasi, gender tenglik, gender madaniyat, parlament.

АННОТАЦИЯ

В статье освещаются процессы, направленные на решение задач гендерного равенства на международном уровне и в странах мира, принятие нормативных документов по защите социальных, политических, экономических и культурных прав граждан, особенно женщин, и деятельность гендерно-чувствительных институтов, в том числе гендерно-чувствительных парламентов.

Ключевые слова: права человека, право, гендер, гендерная политика, гендерная стратегия, гендерное равенство, гендерная культура, парламент.

ANNOTATION

This article describes the processes aimed at the issue of gender equality at the international level and in the countries of the world. It also contains opinions on the adoption of normative documents on the protection of social, political, economic, and cultural rights of citizens, especially women, on expanding the activities of gender-sensitive institutions and parliaments sensitive to gender issues.

Key words: human rights, law, gender, gender policy, gender strategy, gender equality, gender culture, parliament.

Bugungi global rivojlanish davrida gender tenglik masalasi dunyo davlatlari hamda xalqaro va mintaqaviy tuzilmalar siyosatining eng muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Chunki bu inson qadri, erkinliklari va manfaatlarini kafolatlash, global miqyosda barqaror taraqqiyotni ta‘minlash, tinchlik va barqarorlikni o‘rnatishning asosiy talablari hamda zaruriy shartlaridan biri hisoblanadi.

Ushbu sohada birgina BMT doirasida qator xalqaro shartnomalar, xususan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktlar, Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi konvensiya, Pekin deklaratsiyasi va Harakatlar platformasi kabi o‘nlab xalqaro hujjatlar qabul qilingan. Ular gender tenglik va adolat tamoyillarini o‘zida aks ettirishi, o‘zaro bog‘liqligi, bir-birini taqozo etishi va to‘ldirishi hamda hayotiyligi bilan ajralib turadi.

Bunda Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi konvensiya umume‘tirof etilgan ayollar huquqlarini himoya qilish va gender tengligiga erishish borasidagi “jahonning global konstitutsiyasi” sanaladi. Erkaklar va xotin-qizlar huquqlarini to‘la amalga oshirishni ta‘minlaydigan, gender tenglikka asoslangan konstitutsiyani ishlab chiqish gender tengsizlikni bartaraf etishga yordam beradi hamda davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarida ayollar huquq va manfaatlarini himoya qilishga huquqiy asos yaratadi.

Parlamentlararo ittifoq tomonidan 2012-yilda qabul qilingan “Genderga nisbatan sezuvchan parlamentlar uchun harakatlar rejası”ning hayotga tatbiq etilayotgani mamlakatlarda va global miqyosda gender siyosatni rivojlantirish va gender tenglikka erishishga xizmat qilmoqda.

Jahon parlamentlari ayol rahbarlari sammitida qabul qilingan “Barqarorlik va farovonlikni oshirish maqsadida xatarlarning oldini olish: Parlament yetakchiligi” nomli Toshkent deklaratsiyasining gender tenglikka erishish yo‘lida muhim hujjat ekaniga alohida e‘tibor qaratilishi zarur.

Parlamentlararo ittifoq Bosh kotibi O‘zbekistonda gender tenglik va genderga nisbatan sezgir institutlar, jumladan, “gender masalalarga sezgir parlament” yaratilgani, ular barcha xotin-qizlarning erkaklar bilan bir xil va teng huquq, erkinliklardan to‘liq foydalanishi, har qanday xatardan xoli, munosib hayot kechirishi, umuman, mamlakatda tinchlik va barqarorlikni ta‘minlashda harakatlantiruvchi kuchga aylanib borayotganiga urg‘u berdi.

BMT va Parlamentlararo ittifoq tomonidan sohaga oid xalqaro hujjatlar hayotga tatbiq etilishi natijasida bugunga kelib milliy parlamentlarda ayollarning ulushi 26,1 foizni tashkil etdi (2001-yilda – o‘rtacha 14 foiz). 193 mamlakatdan beshtasida – Ruanda (61 foiz), Kuba (54,4 foiz), Nikaragua (50,6 foiz), Meksika (50 foiz) va Birlashgan Arab Amirliklari (50 foiz), Yangi Zelandiya (49,7 foiz), Islandiya (47,6 foiz) va Kosta-Rika (47,4 foiz)da parlament a‘zolarining ko‘pchiligini ayollar tashkil etadi. Bosh kotib “parlamentida ayollarning salmog‘i 33 foizni tashkil etgan O‘zbekiston jahon mamlakatlari reytingida 55-o‘ringa ko‘tarilgani”¹ga e‘tibor qaratadi.

Shunga qaramay dunyoda biror mamlakat gender masalalarini to‘la hal qilgan, deb bo‘lmaydi. Shuning uchun Pning 145-assambleyasi asosiy hujjati bo‘lmish Kigali rezolyusiyasida ta‘kidlanganidek, dunyo mamlakatlari darajasida va global miqyosda gender siyosatni rivojlantirish, “genderga nisbatan adolatli va gender siyosatni qo‘llab-quvvatlovchi jamiyatni shakllantirish”, qarorlar qabul qilishda siyosiy institutlar tomonidan ayollar xizmat qiladigan tashkilotlarda xotin-qizlarning ovozlari inobatga olishni ta‘minlashda gender sezuvchan parlamentlar ishini yo‘lga qo‘yish va ularni baholashda quyidagi yo‘nalishlarga alohida e‘tibor qaratildi. Xususan:

- gender masalalarni inobatga olgan holda parlament tuzilmalarini takomillashtirish;

¹ <https://parliament.gov.uz/oz/articles/822>.

- parlamentda “gender madaniyat”ni shakllantirish, “gender sezuvchanlik”ni tushunish, uni parlament faoliyatining asosiy tamoyillariga aylantirish va amaliyotda qo‘llay bilish;

- jamiyat va davlat hayotida gender tenglikni ta‘minlash strategiyasini rivojlantirish, gender masalalarini inobatga oluvchi budjetni shakllantirish va gender auditini amalga oshirish;

- jamiyatdagi gender tenglikka nisbatan munosabatni doimiy monitoring qilish, o‘rganib borish, tegishli tadqiqotlarni amalga oshirish va tavsiyalar tayyorlash;

- gender tenglik siyosatining hayotga tatbiq etilish holati va xotin-qizlarning davlat boshqaruvi organlaridagi vakilligi va ishtirokini ta‘minlash alohida ahamiyatga egaligini ko‘rsatmoqda.

Bugungi kunda gender tenglikni ta‘minlashda tegishli masalalarning dunyo konstitutsiyalarida aks ettirilishi, “gender masalalarga sezgir konstitutsiyalar” qabul qilinishi tendensiyalari namoyon bo‘lmoqda. Albatta, O‘zbekiston ham ushbu yo‘nalishda jahon hamjamiyati bilan birga qadam tashlamoqda.

Bu borada Parlamentlararo ittifoq Bosh kotibi O‘zbekistondagi gender siyosat va konstitutsiyaviy islohotlar xususida gapirib, “Gender sezgir Konstitutsiya” qabul qilinishi mamlakatda xotin-qizlarning erkinliklari, huquqlari va manfaatlarini samarali himoya qilish, ular kamsitilishi va ularga nisbatan har qanday zo‘ravonlikka yo‘l qo‘yilmasligiga xizmat qilishi”ni ta‘kidlaydi. Ruanda parlamenti Deputatlar palatasi Spikeri ham “Ruandada gender tenglik va ayollarning rahbarlik lavozimlarini targ‘ib qilish konstitutsiyaviy majburiyat” ekani, O‘zbekistondagi konstitutsiyaviy islohotlar esa dunyodagi umumiy tendensiyalarni inobatga olayotganini ko‘rsatib o‘tdi.

Sohaga oid dunyo konstitutsiyalarini o‘rganish xalqaro majburiyatlarga muvofiq xotin-qizlar va erkaklar o‘rtasidagi tenglik tamoyilini amalga oshirish yo‘lidagi birinchi qadam sifatida gender tenglik tamoyili konstitutsiyalarga kiritilayotganidan dalolat beradi. Bunda gender nuqtayi nazardan konstitutsiyaviy islohotlarning asosiy vazifasi, xususan, quyidagilardan iborat:

birinchidan, Konstitutsiyaga umume’tirof etilgan prinsip va normalarni kiritish. Bugungi kunda dunyo konstitutsiyalarining 98 foizi tenglik va kamsitilmaslik, 94 foizi zo‘ravonlikdan himoya

qilish, 86 foizi xotin-qizlarning ta‘lim olishi, 85 foizi ijtimoiy xizmatlardan foydalanish kafolati, 44 foizi diskriminatsiyaga qarshi choralar va 12 foizi xotin-qizlar huquqlari bo‘yicha alohida qoidalarni o‘z ichiga oladi;

ikkinchidan, barcha jabhada xotin-qizlarning konstitutsiyaviy nazorat va islohotlar jarayonlarida to‘liq va teng ishtirok etishini ta‘minlash lozim;

uchinchidan, konstitutsiyani yangilashda jahon davlatlarining gender omillarni, ayniqsa, “kamsituvchi konstitutsiyaviy qoidalar”ga barham berish borasidagi ijobiy tajribasi inobatga olinganligi².

Shu bilan birga, xotin-qizlar huquqlariga oid konstitutsiyaviy normalar tenglik va kamsitilmaslikning umumiy tamoyillari bilangina chegaralanmay, ayollarning o‘ziga xos huquq va erkinliklarini ham qamrab olishi lozim. Ular ta‘lim, sog‘liqni saqlash, fuqarolik, saylanadigan va tayinlanadigan organlarda ishtirok etish kabi sohalarni ham nazarda tutishi zarur.

Umuman, mamlakatimizdagi konstitutsiyaviy islohotlarni o‘rganib chiqqan xorijiy parlamentlar va ekspertlar yangilanayotgan O‘zbekiston Konstitutsiyasiga kiritilgan:

- ✓ inson qadr-qimmatini, erkinliklari, huquqlari va qonuniy manfaatlarini hurmatlash va himoya qilish;

- ✓ ijtimoiy va huquqiy davlat qurish, adolatli ochiq fuqarolik jamiyatini shakllantirish;

- ✓ xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirish kabi vazifalarni hal etishga qaratilgan 100 dan ziyod muhim yangilik gender siyosatni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqadi, deb qarab, ularni ijobiy baholamoqda.

Ularning fikricha, ushbu yangiliklar nafaqat sohaga oid xalqaro shartnomalar tegishli tamoyillari va qoidalarini qonunchiligimizga implementatsiya qilish, balki xalqaro huquqning o‘zini ham rivojlantirishga turtki bo‘lishi mumkin.

Gender siyosatni rivojlantirishda BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari hamda 2030-yilgacha bo‘lgan davrda BMT Global kun tartibi alohida ahamiyat kasb etadi. Barqaror rivojlanishning beshinchi maqsadiga muvofiq, 2030-yilga kelib xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarning har qanday shakliga barham berish, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda qarorlar qabul qilishning barcha darajalarida xotin-qizlarning to‘liq va samarali ishtirokini

² <https://parliament.gov.uz/oz/articles/822>.

va yetakchilik qilish uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash zarur. Bundan tashqari, ushbu maqsad davlat va uning mintaqalari barqaror rivojlanishi borasidagi davlat dasturlarini qabul qilishda gender tenglik tamoyillarini joriy qilishni o'z ichiga oladi.

Global Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish doirasida O'zbekiston ham "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi Milliy maqsad va vazifalar"ni belgiladi. Ushbu Milliy maqsadlarning beshinchisini amalga oshirish doirasida "Gender tenglikni ta'minlash hamda barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish"ga oid to'qqizta vazifa ishlab chiqildi va ular bosqichmabosqich hal etilmoqda. Jumladan, mamlakatimiz Milliy BRM doirasida quyidagilarni o'z zimmasiga olgan:

- hamma jabhada xotin-qizlarga nisbatan kamsitilishning barcha turlarini tugatish;
- davlat va xususiy sektorda xotin-qizlarga nisbatan zo'rvonlikning barcha turlarini yo'q qilish;
- jamiyat hayotida xotin-qizlarning to'liq va samarali ishtirokini va barcha darajada yetakchilik uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash;
- davlat dasturlarini qabul qilish jarayonida gender tenglik tamoyillarini to'liq aks ettirish.

Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish nuqtayi nazaridan kelib chiqib, Parlamentlararo ittifoqning 145-assambleyasida gender masalalardan tashqari yana bir muammo – migratsiya, ayniqsa, ayollar migratsiyasi masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Bunda boshqariladigan migratsiyani qo'llab-quvvatlash parlamentariylarning asosiy va ustuvor vazifalaridan bo'lishi kerakligi e'tirof etildi.

Xususan, BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish "barqaror rivojlanishni rag'batlantirish va 2030-yilgacha bo'lgan kun tartibini amalga oshirish, ko'lam va xavfi ortib borayotgan iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashish, inson huquqlari va qonun ustuvorligini ta'minlash, ochlik inqirozi va kuchayib borayotgan gumanitar favqulodda vaziyatlarga qarshi turish uchun resurslarni safarbar qilish, boshqariladigan migratsiyani qo'llab-quvvatlash, dunyoda tinchlik, tenglik va hamma uchun bir xil imkoniyatlar yaratishda" jahon parlamentlarining roli yuqori ekanini ta'kidladi³.

³ https://mamainthecity.ru/Business_Mom/Career/issledovanie-udovletvorennosti-rabotoy-zhenshchiny-chuvstvuyut-sebya-na-raboteschastlivee-chem-muzh/

Assambleyada Parlamentlararo ittifoqning Demokratiya va inson huquqlarini himoya qilish byurosi tomonidan tayyorlangan "Xalqaro migratsiya darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarning mahalliy va mintaqaviy rivojlanishiga parlamentning ta'siri hamda odam savdosi va inson huquqlari buzilishining barcha shakllariga, jumladan, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishiga chek qo'yish" nomli rezolyutsiya har tomonlama ko'rib chiqildi va qabul qilindi. Ushbu rezolyutsiyada:

◆ global normativ hujjatlar qabul qilinishida migratsiya va migratsiyani boshqarish bo'yicha parlamentlararo hamkorlikni mustahkamlash masalasiga urg'u berildi;

◆ parlamentlar migratsiya boshqaruvini optimallashtirish va majburiy hamda tartibsiz migratsiyaning asosiy omillarini, xususan, o'ta qashshoqlik, iqlim o'zgarishi va tabiiy ofatlarni bartaraf etish uchun 2030 yilgacha Barqaror rivojlanish kun tartibiga erishishda faol ishtirok etishga, shuningdek, aholi salomatligini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarni ilgari surishga chaqirildi;

◆ mazkur muammolarni hal etishga qaratilgan milliy va xalqaro dasturlar ishlab chiqish va amalga oshirish zarurligi ta'kidlandi.

Shuningdek, hukumatlar kontrabanda va odam savdosining oldini olish, tergov qilish, jinoiy javobgarlikka tortish va unga qarshi kurashish hamda ushbu faoliyat bilan bog'liq moliyaviy oqimlarni aniqlash va to'xtatish bo'yicha xalqaro hamkorlikni kuchaytirishga da'vat etilgan.

2021-yilning iyun oyida Buxoro shahrida o'tkazilgan Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda parlamentlararo global hamkorlik masalalariga bag'ishlangan xalqaro forumda yuqori natijalarga erishilgani va Buxoro deklaratsiyasi qabul qilingani e'tirof etildi.

"O'zbekistonning faolligi yuksak e'tirofga loyiq", deb ta'kidlandi. Uning ishtirokida "Men parlamentda yoshlarni qo'llayman" chorlovi ostida O'zbekiston yoshlar parlamentlari forumida tadbirlarning natijadorligiga alohida to'xtaldi.

Ta'kidlashicha, "Parlamentlararo ittifoq O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining BRMlarni bajarishda va inson huquqlarini himoya qilishda parlamentlar rolini oshirish to'g'risidagi rezolyutsiyani qabul qilish borasidagi tashabbusini to'la qo'llab-quvvatlaydi".

Umuman, Parlamentlararo ittifoq rahbariyati va a‘zolari ushbu tashkilot bilan O‘zbekiston o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli munosabatlarni ijobiy baholab, uni yangi bosqichga olib chiqish istagini bildirdi. So‘nggi yillarda gender tenglik masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, sohaga oid 25 ta qonunchilik hujjati qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasining Gender tenglikni ta‘minlash masalalari bo‘yicha komissiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatida Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo‘mitasi tashkil etildi.

O‘zbekiston tarixida ilk marotaba parlamentda xotin-qizlar soni BMT tomonidan belgilangan tavsiyalarga mos darajaga yetib, parlamentdagi xotin-qizlar soni qariyb 32 foizga yetdi va dunyodagi 190 ta parlament orasida 37-o‘ringa ko‘tarildi.

Boshqaruv lavozimidagi xotin-qizlar ulushi 27 foizga, partiyalarda 44 foizga, oliy ta‘limda 40 foizga, tadbirkorlikda 35 foizga yetdi.

Ma‘lumki, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh assambleyasining 2015-yil sentabrda Barqaror rivojlanish bo‘yicha o‘tkazilgan sammitida qabul qilingan 70-son rezolyutsiyasiga muvofiq, shuningdek, 2030-yilgacha bo‘lgan davrda BMT Global kun tartibining

Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi “2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qaror qabul qildi.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Barqaror rivojlanishning Beshinchi maqsadini amalga oshirish doirasida “Gender tenglikni ta‘minlash hamda barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish”ga oid to‘qqizta vazifani ishlab chiqdi. Xususan, Jahon bankining “Ayollar, biznes va qonun indeksi”da 190 ta mamlakat orasida 139-o‘rinni, AQSHning Jorjtaun instituti tomonidan yuritiladigan “Ayollar, tinchlik va xavfsizlik indeksi”da 167 ta mamlakat ichida 89-o‘rinni egallamoqda.

Islohotlarning barcha bosqichlarida O‘zbekistonda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosat keng qamrovli masalalarni o‘z ichiga oladi. Aholi daromadlarini tizimli ravishda oshirib borish, bandlik va mehnat munosabatlarini shakllantirish, aholining ayrim toifalarini, shu jumladan, tadbirkor va fermer xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish va qo‘llab-quvvatlash





borasida qo'shimcha kafolatlar berildi⁴.

Xususan, xotin-qizlar bandligini ta'minlash, ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish maqsadida imtiyozli kreditlar ajratish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

Tijorat banklari mikrokredit bazasi mijozlarining 30 foizidan ortig'ini xotin-qizlar tashkil etmoqda. Tijorat banklari mablag'lari hisobidan 172 mingdan ortiq xotin-qizlarga 4,9 trillion so'm miqdorida kreditlar ajratildi. Buning natijasida tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'ygan xotin-qizlar soni bir yilda 45 ming nafarga ko'paydi.

2019-yildan boshlab aholining ish bilan ta'minlanishi va yangi ish o'rinlari yaratilishini davlat buyurtmasi asosida amalga oshirish tizimi yo'lga qo'yildi. O'zini o'zi band qilgan fuqarolarga vaqtincha mehnat guvohnomalarini berish va ularning ish stajini qayd etish tartibi joriy etildi. Natijada norasmiy sektorda band bo'lgan xotin-qizlarning ulushi 27 foizga yetdi.

Respublikaning chekka hududlarini rivojlantirish, qishloqlarni obodonlashtirish, qishloqlarda yashovchi xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini qo'llab-quvvatlash orqali

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2021-yil 22-fevraldagi BMT Inson huquqlari bo'yicha sammitining 46-sessiyasida so'zlagan nutqi //https://president.uz

kambag'allikni qisqartirishga ham alohida e'tibor qaratildi. Qishloq xo'jaligining turli sohalarida 1,5 milliondan ortiq xotin-qizlar mehnat qiladi. Tadbirkorlik subyektlarining 20 foiziga, shu jumladan, fermer xo'jaliklarining 7,3 foiziga ayollar rahbarlik qiladi.

2017-yildan boshlab sog'liqni saqlash tizimida tub o'zgarishlar amalga oshirilib, aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash, fuqarolarni sog'lom farzandlar tug'ilishiga ongli va mas'uliyatli munosabatda bo'lishga o'rgatish, xotin-qizlar va erkaklarning reproduktiv huquqlarini amalga oshirishda teng imkoniyatlarni yaratish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirildi.

So'nggi o'n yillikda butun dunyo hamjamiyatida demokratik me'yor va tamoyillarni qaror toptirish uchun kurashning dolzarblashuvi munosabati bilan gender tenglik muammosi tobora keskinlashib bormoqda. Gender tenglik asosiy ijtimoiy qadriyat sifatida umumiy tenglik konsepsiyasining ajralmas qismiga aylanib bormoqda⁵.

Gender strategiyasining asosiy maqsadi – irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar xotin-qizlar va erkaklarning haqiqiy tengligini ta'minlashdan iboratdir.

⁵ Отакулов Ш.М. (2020). Гендерное равенство и политическая жизнь. "Вопросы политологии", 6(58), 57-63.

Gender strategiyasining asosiy vazifalari va maqsadlari quyidagilar hisoblanadi:

- xotin-qizlarning yer va mulkka nisbatan egalik qilish imkoniyatlarini kengaytirish, jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan, siyosat, iqtisodiyot, huquq, madaniyat, ta'lim, ilm-fan hamda sport munosabatlarida xotin-qizlarning erkaklar bilan teng ishtirok etishlarini qo'llab-quvvatlash, qaror qabul qilishda ularning yetakchilik qilishlari uchun teng imkoniyatlarni yaratish;

- xotin-qizlarning siyosiy faolligini oshirish, ularning jamiyatdagi o'rni bilan bog'liq salbiy qarashlarni o'zgartirish, aholi bandligi sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun kafolatlangan teng huquq hamda imkoniyatlarni, shuningdek, munosib ish o'rinlarini yaratish, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish, xotin-qizlarning tijorat banklaridan kredit olishga bo'lgan imkoniyatlarini kengaytirish;

- xotin-qizlar va erkaklarning butun umri davomida o'qishga bo'lgan imkoniyatlarini rag'batlantirish, ularning oilani rejalashtirish borasidagi tibbiy madaniyatini oshirish va reproduktiv salomatligini mustahkamlash, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini yuksaltirish, odam savdosi va majburiy mehnatga qarshi kurashish;

- tazyiq va zo'ravonlikning oldini olish, ularni aniqlash va barham berish bo'yicha samarali

tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni yaratish, oilani mustahkamlash, oilaviy munosabatlarda barcha oila a'zolarining mas'ulligini oshirish, erta nikoh, yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikoh, erta tug'ruq hamda oilaviy ajralishlarning oldini olish;

- gender tenglik tamoyillarini ilgari surishda, xotin-qizlar va erkaklarning huquq hamda imkoniyatlarini teng amalga oshirishda budjetni rejalashtirish;

- gender masalalarini budjet jarayonlariga integratsiyalash, gender statistikasi yuritilishini takomillashtirish, gender tenglik, ayollar tadbirkorligi, xotin-qizlar va erkaklarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik holatlarini baholovchi xalqaro reyting va indekslarda O'zbekistonning o'rnini yaxshilash bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- 2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi gender tenglikni ta'minlash va barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish milliy maqsadlariga erishishda parlament, fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalarining rolini oshirish, gender tenglik sohasidagi xalqaro shartnomalardan kelib chiqadigan majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash, O'zbekiston Respublikasining milliy manfaatlariga mos bo'lgan xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish.

ADABIYOTLAR

1. <https://parliament.gov.uz/oz/articles/822>.
2. [https://mamainthecity.ru/Business_Mom/Career/issledovanie udovletvorennosti-rabotoy-zhenshchiny-chuvstvuyut-sebya-na-raboteschastlivee-chem-muzh](https://mamainthecity.ru/Business_Mom/Career/issledovanie_udovletvorennosti-rabotoy-zhenshchiny-chuvstvuyut-sebya-na-raboteschastlivee-chem-muzh)
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2021-yil 22- fevraldagi BMT Inson huquqlari bo'yicha sammitining 46-sessiyasida so'zlagan nutqi // <https://president.uz>
4. Отакулов Ш.М. (2020). Гендерное равенство и политическая жизнь. “Вопросы политологии”, 6(58). – 57-63.

ANNOTATSIYA

MIGRATSIYANING YEVROPA IJTIMOIY-SIYOSIY JARAYONLARIGA TA'SIRI

MUYDINOV

*Dilshod Najmiddinovich,
siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori,
dotsent,
O'zbekiston Milliy universiteti
mustaqil izlanuvchisi*

Migratsiya Yevropada o'nlab yillar davomida muhim muammo bo'lib kelmoqda, turli mintaqalardan migratsiya to'qlinlari qit'adagi mamlakatlari ijtimoiy va siyosiy jarayonlariga ta'sir ko'rsatdi. Ushbu maqolada migratsiyaning Yevropaning ijtimoiy va siyosiy landshaftiga ta'sirini, uning demografik tendensiyalari, madaniy xilma-xillik va siyosiy dinamikani qanday shakllantirgani yoritiladi. Maqola Yevropadagi migratsiya tarixiga umumiy nuqtayi nazar berish, mintaqaning ijtimoiy va siyosiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan asosiy voqealar va tendensiyalarni yoritib berish bilan boshlanadi. Migratsiya Yevropa jamiyatiga qanday ta'sir ko'rsatganligi, jumladan, ko'p madaniyatli hamjamiyatlarning paydo bo'lishi, millatchilik va immigratsiyaga qarshi tuyg'ularning kuchayishi, migrantlar va qabul qiluvchi mamlakatlar duch keladigan integratsiya muammolarini o'rganadi. Bundan tashqari, maqolada migratsiyaning Yevropadagi siyosiy jarayonlarni shakllantirishdagi roli, jumladan, migrantlar hamjamiyatlarining saylovlar, siyosat va ommaviy nutqlarga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, chegara nazorati choralari, integratsiya dasturlari va boshpana siyosati kabi migratsiya bilan bog'liq muammolarga Yevropa hukumatlari va institutlarining javoblari muhokama qilinadi. Umuman olganda, ushbu maqolada migratsiya Yevropaning ijtimoiy va siyosiy jarayonlariga chuqur ta'sir ko'rsatganligi, mintaqaning o'ziga xosligi, xilma-xilligi va siyosiy dinamikasini murakkab va ko'p qirrali shakllarda shakllantirgani ta'kidlanadi. Ushbu ta'sirlarni tushunish Yevropada migratsiya tomonidan taqdim etilgan muammolar va imkoniyatlarni hal qilish uchun samarali siyosat va strategiyalarni ishlab chiqish uchun juda muhimdir.

Kalit so'zlar: migratsiya, Yevropa, ijtimoiy jarayonlar, siyosiy jarayonlar, demografik siljishlar, madaniy dinamika, ijtimoiy integratsiya, siyosiy tabaqalar, multikulturalizm, o'zlikni shakllantirish.

АННОТАЦИЯ

